Xorazmiyning arifmetik risolasi qachon yozilgani noma’lum. Biroq unda olim algebraik risolasini eslaydi. Demak, bundan Xorazmiy arifmetik risolani algebraik risoladan keyin yozgani ma’lum bo’ladi. Bu risola XII asrda Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilingan. Tarjimaning XIV asrda ko‘chirilgan yagona qo‘lyozmasi Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanadi. Risola “Diksit Algorizmi”, ya’ni “Al-Xorazmiy aytdi” iborasi bilan boshlanadi. Bundan keyin Xorazmiy to‘qqizta hind raqamining sonlarni ifodalashdagi afzalliklari va ular yordamida har qanday sonni ham qisqa qilib va osonlik bilan yozish mumkinligini aytadi. Asarning lotincha qo‘lyozmasida hind raqamlari ko‘pincha yozilmay, ularning o‘rnini bo‘sh qoldirilgan yoki ahyon-ahyonda 1, 2, 3, 5 sonlarga mos keladigan hind raqamlari yozilgan. Ko‘pincha esa hind raqamlari o‘sha davrda Ovro‘poda keng tarqalgan rim raqamlari bilan almashtirilgan.

**Ijodi haqida.** Xorazmiy hind raqamlari asosida o’nlik pozitsion sistemada sonlarning yozilishini batafsil bayon qiladi. U sonlarning bunday yozilishidagi qulayliklar, ayniqsa, nol ishlatilishining ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Keyin Xorazmiy arifmetik amallarni bayon qilishga o’tadi. Bunda Xorazmiy sonlarning martabalarini, ya’ni razryadlarini e’tiborga olishni hamda nolni yozishni unutmaslikni uqtiradi, aks holda natija xato chiqadi, deydi u.

Risolaning boshlanishida Xorazmiy undagi masalalar o‘z davrining amaliy talablariga javob sifatida vujudga kelganligini qayd qiladi.

U shunday deydi: “...Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o‘z ichiga oluvchi “Aljabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob”ni ta’lif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnomaga tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda va shuningdek, yer o‘lchash, kanallar o‘tkazishda, (amaliy) geometriya va boshqa shunga o‘xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir”.

Risolaning Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanayotgan lotincha ko‘lyozmasining matnini 1857 yili B. Bonkompani nashr etgan. Mazkur qo‘lyozmaning fotoreproduksiyasini tarixchi A. P. Yushkevich ham nashr etgan Undan tashqari, A. P. Yushkevich o‘z risolasida Xorazmiy risolasi alohida paragraf bag‘ishlagan. B. Bonkompanining nashri asosida Yu. X. Kopelevich va B. A. Rozenfeldlar risolaning ruscha tarjimasini nashr etishgan. Xorazmiyning 1200 yillik yubileyi munosabati bilan 1983 yili bu asarning qayta nashri va o‘zbekcha tarjimasi chop etildi. Xorazmiyning arifmetik risolasi XII asrdayoq Ispaniyada seviliyalik Ioann tomonidan qayta ishlangan. Keyinchalik to yangi davrgacha Ovro‘po olimlari





Xorazmiy risolasini qayta-qayta ishlaganlar, u asosida darsliklar yozganlar. Bu qayta ishlangan nusxalar va darsliklarning nomida “Algorizm kitobi” degan ibora bo‘lgan. Xorazmiyning algebraik risolasining to‘liq nomi – “Al-ki-tob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala”. Risolaning nomidagi “al-jabr” va “al-muqobala” so‘zлari “to‘ldirish” va “ro‘para qo‘yish” – o‘rta asr algebrasining ikkita asosiy amalini anglatadi. “Aljabr” so‘zi lotincha transkripsiyyada “algebra” bo‘lib, Xorazmiy asos solgan yangi fanning nomi bo‘lib qoldi. Xorazmiyning algebraic risolasi uch qismidan iborat: 1) algebraik qism, buning oxirida kichik bir bo‘lim – savdo muomalasidagi bob keltiriladi; 2) geometrik kism, algebraik usul qo‘llanib o‘lchash haqida; 3) vasiyatlar haqidagi qism. Xorazmiy uni alohida nom bilan “Vasiyatlar kitobi” deb atagan. Xorazmiy o‘z risolasida hech qanday belgi keltirmaydi va mazmunni butunlay so‘z bilan bayon etadi va shakllar keltiradi. Asarning boshida Xorazmiy o‘z oldiga qo‘ygan maqsad – kompleks masalalarni aks ettirgan. Shu bilan birga Xorazmiy xalifaliqda kun tartibida turgan ehtiyojlar, islam va shariat talablariga ko‘ra yuzaga keladigan masalalar, me’morchilik va irrigatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal qilishni ham ko‘zda tutganligini bildiradi. Umuman olganda, Xorazmiy algebrasi – bu sonli kvadrat va chiziqli tenglamalarni yechish haqidagi fandir. Xorazmiyning aytishicha, algebrada uch xil son bilan ish ko‘riladi: ildiz (jizr) yoki narsa (shay), kvadrat (mol) va oddiy son yoki dirham (pul birligi). Yana uning aytishicha, ildiz o‘zini o‘ziga ko‘paytiriladigan miqdordir, kvadrat esa iddizni o‘ziga ko‘paytirishda hosil bo‘lgan kattaliqdir. Xorazmiy ish ko‘radigan tenglamalar mana shu uch mikdor orasidagi munosabatlardir. U avval risolada ko‘riladigan oltita chiziqli va kvadrat tenglamaning tasnifini keltiradi. Bundan keyin aniq misollar bilan boshqa har qanday tenglamalar risola mohiyatidagi asosiy amallar – aljabr va almuqobala amallari yordamida olti konoik ko‘rinishga keltiriladi. Xorazmiy asos solgan algebra fanini undan keyingi Sharq olimlari muvaffaqiyatli rivojlantirdilar. Xorazmiyning boshqa asarlaridan farqli o‘laroq, uning algebraik risolasining uchta qo‘lyozmasi saqlangan. Ular Kobulda, Madinada va Oksford universitetining Bodleyan kutubxonasida saqlanadi. Risola 1145 yili Seviliyada (Ispaniya) Robert Chester tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan. Asarning arabcha qo‘lyozmalarini va lotincha tarjimalari XIX va XX asr olimlari tomonidan chuqur o‘rganilgan. Xorazmiyning eng yirik astronomik asari uning “Zij”idir. Olim bu asarini 830 yil atrofida yozgan. Xorazmiyning “Zij”i 37 bob, 116 jadvaddan iborat.

**Xulosa.** Xorazmiyning yuqorida keltirilgan asarlariyoq u fanning qator tarmoqlarining asoschisi bo‘lganligini ko‘rsatadi. Uning g‘oyalari matematika va astronomianing oyoqqa turishi va rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Hozirgi davrda uning





xizmatlari jahon afkor ommasi tomonidan e'tirof etilgan. Xorazmiy asarlari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Turli g'arb va sharq tillariga tarjima etilgan. U o'z asarlari, ixtirolari bilan nafaqat o'z vatanini, balki arab xalifaligining ilmiy yutug'i, o'z davri madaniyatining yuksak natijalarini butun dunyo va barcha asrlarga mashhur etdi. Hozirda uning nomiga turli mamlakatlarda (Eron, Turkmaniston, O'zbekiston va boshqalar) mukofot va medallar ta'sis etilgan, ko'cha, muassasalarga nomlari qo'yilgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. “Ma’naviyat yulduzlar” (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999) kitobidan olindi.
2. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, “Fan”, 1983, 78-bet.
3. A. P. Yushkevich. Arifmeticheskiy traktat Muxammeda ibn Musa al-Xorezmi. Trudi’ instituta istorii yestestvoznaniya i texniki, AN SSSR, vnp. 1, M., 1964.
4. A. P. Yushkevich. Iстория математики в средней веке. M., 1961.
5. Muxammed al-Xorezmi. Matematicheskiye traktati’. T., 1964.
6. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. T., “Fan”, 1983.
7. V. V. Bartold. Vvedeniye k izdaniyu Xudud Al-adam. Sochineniye: t. VIII, M., 1973, str. 504-545.



Uzumni quritishda qo‘yiladigan talablar va quritish usullari  
Payg‘ambarov. B. R<sup>1</sup>, Sultonov. S. S<sup>1</sup>, Xudoyberdiyev. J. R<sup>1</sup>  
<sup>1</sup> ToshDAU talabasi

**Annotatsiya:** Quritilgan kishmish yoki mayizning sifati ko‘p jihatdan xom ashyoga bog‘liq. Talablarga javob beradigan mahsulotni quritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Tayanch iboralar:** *kishmish, mayiz, objo ‘sh, shtabel, soyaki, sabza, bedona, zarsimon sabza, shig ‘oniy, girmiyon.*

Uzum mahsuloti urinmagan, chirimagan, tarkibidan har xil zarur moddalari, ayniqsa kislota va qand moddalari yetarli bo‘lishi zarur. Qand miqdori uzumning mayiz solishidagiasosiy ko‘rsatkichdir. Masalan, qand miqdori kishmish navlarida kamida 22-23% bo‘lishi lozim. Quruq moddasi yetarli bo‘lmagan uzumning mayizi sifatsiz bo‘ladi. Xom ashyoni konditsiya talablariga mos bo‘lishi yuqori sifatli mahsulot olish uchun yetarli bo‘libgina qolmay, balki uzumning navi va hosilini qanday sharoitda yetishtirilganligiga ham bog‘liqdir. Masalan, uzumning bir qator navlarida qand moddasi yetarli bo‘ladi, biroq uning po‘sti qattiqligidan ularni quritib bo‘lmaydi. Bunday uzumlar sharbat va sharob olish uchun yaraydi. Shuningdek, ayni bir navning o‘zi turli sharoitda sifat jihatdan har xil hosil beradi. Masalan, Qashqadaryo viloyatida yetishtirilgan uzumning Kattaqo‘rg‘on, Sultoni navlari Samarqand viloyatida yetishtirilgan Kattaqo‘rg‘on va Sultoni navlaridan tayyorlangan mayizdan sifati birmuncha pastroq bo‘ladi. Hosilni o‘z vaqtida va to‘g‘ri yig‘ib olish, tashish va quritishga tayyorlash sifatli kishmish va mayiz olish, mahsulot tannarxini kamaytirishda katta ahamiyatga ega. Quritiladigan uzumning sifati ko‘p jihatdan uning yetilganligiga bog‘liqdir. Barvaqt uzilgan hosilning mazasi, rangi, og‘irligi talabga javob bermaydi va shu sababli ulardan sifatsiz mayiz olinadi, kech uzilganlari esa nobud bo‘ladi. Mayiz qilinadigan uzum qand moddasi eng yuqori 24-25% ga yetganda, desert sharoblar tayyorlash uchun kamida 22%, oddiy sharoblar tayyorlash uchun esa 17-20% ga yetganda uziladi. Demak, qayta ishslash sanoati talablariga mos bo‘lgan uzumlar texnik jihatdan yetilgan hisoblanadi. Yangiligida iste’mol qilinadigan xo‘raki uzumlar yaxshi pishgan, o‘z naviga xos maza, hid va rang hamda etining konsistensiyasiga ega bo‘lishi kerak. Keyinroq eti yumshab mazasi qochadi. Hosil faqat havo quruq va ochiq kunlarida uziladi. Uzishni shudring ko‘tarilgan paytdan boshlab, shudring tushguncha tamomlash lozim. Uzumning kishmish navlari tarkibidagi qand modda 23-25% gacha, boshqa navlarda esa 23% ga yetganda uziladi. Mayiz qilinadigan uzumni bir idishdan ikkinchisiga



to‘kib urintirish yaramaydi. Uzum uzishda tok qaychisi va pichoq ishlatiladi. Kasallangan, uringan uzum boshlari alohida idishga solinadi. Hosil uzilganda uzum boshlarini idishga zarb bilan tashlash yaramaydi. Savat to‘lgan hamon uzum 35-40 kg li idishga solinadi va jo‘natiladi. Ortiqcha mahsulotni quritish maydonchasiga olib kelish tavsiya etilmaydi.

**Uzumni quritish usullari.** Respublikada mayiz quritish bo‘yicha Samarqand viloyati 1-o‘rinni egallaydi. Viloyatda yiliga 7-10 ming tonna mayiz quritiladi. Uzumdan 2 xil mahsulot, ya’ni **kishmish** va **mayiz** olinadi. Kishmish urug‘siz uzumdan, mayiz urug‘li uzumdan tayyorlanadi. Quritiladigan eng yaxshi navlar quyidagilardir: urug‘siz navlardan

- Oq kishmish, Qora kishmish, Askari, Bedona, Lo‘nda kishmish, Xishrav kishmish. Urug‘li navlardan - Kattaqo‘rg‘on, Sultoniy, Qora janjal, Shtruangur - Rizamat, Qorakaltak, Oqkaltak, Aleksandr muskati. Kishmish navli uzumlardagi qand muddasi 23- 25% ga, mayizbop navlari esa 22-23% ga yetganda uziladi. Qand muddasi yetarli bo‘lmagan taqdirda xom ashyodan kam mayiz tushadi, uning xaridorgirlik qimmati pasayadi, natijada quruq mahsulot ishlab chiqarish xo‘jalik uchun foydali bo‘lmay, balki zarar keltiradi.

Uzumning navi va quritish usuliga qarab quruq mahsulotning quyidagi xillari ishlabchiqariladi:

- **bedona** – ishqor eritmasi va oltingugurt angidridi ishlatilmay, oftobda Oqkishmishdan quritilgan mayiz;
- **sabza** – qaynoq ishqor eritmasiga botirib olib, oftobda quritilgan mayiz;
- **zarsimon sabza** – avvalo ishqor eritmasiga botirib olib va oltingugurt angidridibilan dudlab, so‘ngra shtabelda quritilgan Oq kishmish;
- **soyaki** – maxsus xonalarda Oq kishmishdan soyaki qilib quritiladi. Bunda ishqorgabotirilmaydi, oltingugurt bilan dudlanmaydi;
- **shig‘oniy** – Qora kishmishdan quritilgan mayiz;
- **girmiyon** – Kattaqo‘rg‘on, Sultoni, Nimrang kabi yirik g‘ujumli uzum navlaridan tayyorlanadi. Quritishdan avval uzum qaynoq ishqorga botirib olinadi, keyin ochiq joyga yoyib qo‘yiladi;
- **shtabelgirmiyon** – Kattaqo‘rg‘on, Sultoni, Nimrang kabi navlardan oltingugurtbilan dudlab tayyorlanadi, keyin shtabellarga taxlab quritiladi;
- **qora vassarga** – Qora uzum navlaridan dorilanmay oftobda quritiladi;
- **chillaki** – Chillaki va Terbosh nav uzumlaridan dorilanmay oftobda quritiladi;
- **avlon** – har xil nav uzumlardan dorilanmay faqat oftobda quritib olingan mayiz.



Uzumning har bir navi alohida uziladi va quritiladi. Hosil 10-15 kilogrammlı savatlarda quritish maydonchasiga tashiladi. Uni uzilgan kuniyoq tozalash kerak. Aks holda mahsulotning sifati pasayadi. Quritish oldidan navlarga ajratiladi. Bunda kasallangan, hashoratlardan zararlangan, yetilmay qolgan, oftobda kuygan g'ujumlari tanlab olinadi. Konditsiya talablariga to'g'ri kelmaydigan uzum boshlarini ajratish bilan birga, ular rangiga va g'ujumning katta-kichikligiga qarab ham ajratiladi. Yaxshi saralangan uzum bir meyorda quriydi, olingan quruq mahsulot yuqori sifatli bo'ladi. Uzumni navlarga ajratish paytida yirik boshlarini shinchalarga ajratib qo'yish tavsiya qilinadi. Bu esa, quritish muddatini ancha qisqartiradi. Uzum maxsus stollarda, konveyyerlarda, qo'lda ajratiladi.

Quritish maydonchasiga olib kelingan xom ashyo yuviladi, tozalanadi, saralanadi, maydalanadi, ishqorli suv va oltingugurda ishlov beriladi. Uzumni quritish asosan 4usulga bo'linadi: *Oftobi, objo'sh, shtabel, soyaki*.

**Objo'sh** usulida uzumni ishqorli qaynoq suvgaga botirib olib oftobga yoyib quritiladi. Bu usulda asosan Kattaqurg'on, Sulton, Rizamat, Nimrang va kishmish navlari quritiladi. Objo'sh usulni afzalligi shundan iboratki, ishqorli qaynoq suvgaga botirib olingandan keyin uzum ustida mayda yoriqlar paydo bo'ladi, ustidan g'ubori ketadi. Bu esa uzumni qurish muddatini 3-4 marotaba qisqartiradi. Mayiz chiqishi birmuncha qulaydir. Quritishdan oldin uzum navlariga ajratilib, 2-3 kg lik g'alvirlarga solinib 0,3-0,4% li qaynoq ishqorga 6-8 soniya muddatga botirib olinadi. Har 100 litr suvgaga 300-400 gramm ishqor solinib, suv 7-8 daqiqa qaynagandan keyin g'alvirlardagi uzumlarni botirib olish tavsiya etiladi. Agar uzumda yoriqchalar paydo bo'lmasa, biroz ko'proq muddat (11-12 soniya) ushlash mumkin yoki qo'shiladigan ishqor konsentratsiyasini biroz oshirish kerak va uzum juda ezilib ketadigan bo'lsa biroz suv qo'shish mumkin. Hajmi 200 litrli qozonga ko'pi bilan 1000 kg uzumni botirib olish tavsiya qilinadi. Keyin esa eritma almashtirilishi lozim. Quritish 6-12 kun davom etib, har 2-3 kun o'tganda uzum boshlari ag'darilib turiladi. Bu usulda uzum quritilganda standart bo'yicha 26-30% mayiz olish mumkin. Uzum quritilgandan keyin namiligi 18-20% bo'lganda qurigan hisoblanadi. Bu usulda quritish hozir ko'pchilik xo'jaliklarda keng qo'llanilmoqda, chunki qurish muddati qisqarishi xo'jaliklarda muhim ahamiyatga egadir.

Quritishning **oftobi** usuli erta pishib yetiladigan xududlarda qadimdan qo'llanilib uzumga dastlabki ishlov berilmagan holda o'tkaziladi. Bu usulda asosan qora kishmish navi quritiladi. Yog'ingarchilik boshlagunga qadar qurimasligi sababli yirik g'ujumli (Nimrang, Katta qo'rg'on) uzum navlari oftobi usulda quritilmaydi. Har bir bosh uzum navlarga ajratiladi va ishlov beriladi, yupqa qilib,



yog‘och padnislarga yoki oldindan somonli loy bilan suvalgan quritish maydonchalariga yoyiladi. Bu ko‘pchilik uzumchilik xo‘jaliklarida qo‘llaniladigan eng qadimiy usuldir. Xom ashyo yoyilgandan keyin 6-8 kundan so‘ng uzum boshlari ag‘darib qo‘yiladi. Uzumning qora kishmish navlaridan olingan mahsulot Shig‘oni, Oq kishmish navidan olingan esa - ***bedona*** deb ataladi. Quritish 28-30 kun davom etadi. Bunda 22-25% quritilgan mahsulot olinadi va uning namligi esa 18% ni tashkil etadi.

Mayizni kaftda g‘ijimlaganda bir oz ezilsa-yu, ammo bir-biriga yopishib qolmasa u tayyor hisoblanadi. Quritilgan mayiz xas-cho‘pdan tozalanadi, shamolda shopiriladi va nami bir meyorda bo‘lishi uchun uyum qilib qo‘yiladi. Quritilgan mayiz 5-6 kundan so‘ng yana qo‘shimcha ravishda ko‘zdan kechirib tozalanadi. Undagi har xil mexanik aralashmalar, tosh, mayda kesaklar, uzum boshlarining qurigan bandlari terib tashlanadi. Shundan so‘ng tayyor mahsulotni quti va qoplarga joyланади. Bu usulni kamchiligi, mayiz juda uzoq quritilsada kam mahsulot olinadi. Uzumni quritishning «*soyaki*» usuli Qashqadaryo viloyatining tog‘oldi va tog‘li Kitob-Shahrisabz xududida qadimdan keng tarqagan. Uning mohiyati shundaki, uzum soyada ya’ni shamol esadigan yerlarga qurilgan maxsus soyagi xonalarda quritiladi. Odatta bunday xonalarni qurishdan oldin doimiy harakatdagi havo oqimini umumiyo yo‘nalishi aniqlanadi va soyagi xonalarining uzunasiga joylashadigan xonalarda yoriqsimon tuynukchalari shamol esadigan tomonдан ochiladi.

**Xulosa:** Uzumni mazkur usulda quritish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Bunda uzum eng avval ochiq havoda, maydonda quritiladi va quritishning ikkinchi davrida esa, ya’ni quyosh faolligi pasaygan davrida oftobda so‘ligan uzumlar yig‘ib olinganquritgichda quritiladi. Uzumni ochiq havoda quritish natijasida yoqilg‘i sarfi kamayadi, quritgichlarning unumdoorligi ortadi, ya’ni murakkab usulda quritilganda bir soatda 170 kg quruq mahsulot tayyorlanadi. Ayni paytda bir soatda 40 kg yoqilg‘i sarflanadi va sifatli mahsulot 25-26% ni tashkil etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bo’riev H., Rizaev R. “Meva-uzum mahsulotlari biokimyosi va texnologiyasi” T., "Mehnat", 1996. 74-88 bet.
2. Ibragimov O., Egamberdiev S. «Meva va sabzavotlarni saqlash texnologiyasi» fanidan ma‘ruza matnlari. Farg’ona, 2001 y.
3. Jo’raev R., Islomov X. «Meva-sabzavotlarni saqlash va dastlabki ishlov berish



texnologiyasi» fanidan ma‘ruza matnlari. Toshkent, ToshDAU nashriyoti 2000 y.

4. Muradillaev A. “Meva-sabzavot mahsulotlari saklashning biokimyoviy va mikrobiologik asoslari” fanidan ma‘ruzalar matni. Namangan, 1999 y.

5. Bo‘riyev H., Jo‘rayev R., Alimov O. Meva-sabzavotlarni saqlash va ularga dastlabki ishlov berish. T., ”Mehnat”, 2002, 112-119 bet





**Ko'chkunchixonning hukmronligida Shayboniyalar sultanati.  
Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti tarix yo'naliishi  
talabasi Erkinjonov Elomon Umidjon o'g'li.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Ko'chkunchixon hayoti va Shayboniyalar haqida ma'lumot beradi, shuningdek Ko'chkunchixon davridagi siyosiy faoliyat haqida ma'lumot beradi. Shuningdek uning shaxsiyati haqida ham to'xtab o'tilgan. Bundan tashqari o'sha davrdagi siyosiy voqealar haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ko'chkunchixon, Suyunchixon, Temur Sulton, Ubaydulla Sulton, Samarqand, Buxoro, Turkiston, Safaviylar, Xurason.

Muhammad Shayboniyxon vafotidan so'ng Chingiz yasoqi va turkiy an'analarga sodiq qolgan holda Shayboniy taxtiga Ko'chkunchi Sulton o'tirdi. Biroq, Eron bosqini arafasida taxtga Ko'chkunchini tug'ushgan ukasi Sevinchi Sulton (ayrim manbalarda Suyunchixo'ja Sulton) taxtga o'tkazilishi kerak edi. Ko'chkunchixon Suyunchixondan Yoshi katta bo'laganligi bois u taxtga o'tqazildi. Shayboniy silsilasiga muvofiq Ko'chkunchixon Samarqandda taxtga o'trib oliv hukmdor sifatida mamlakatni idora etdi. Uning ilm fanga berilganligi harbiy hokimiyatni Ubaydullaxon qoliga to'planishiga imkon berdi, biroq Ubaydullaxon Ko'chkunchixonga hech qachon xafv sifatida ko'rмаган va hamisha uni qo'llab-quvvatlagan edi. Ko'chkunchixon o'z faolyait davrida harbiy yurishlarda kam qatnashgan hukmdorlar sirasiga kiradi. Manbalarda qayt etilishicha xon davlat ishlaridan yiroq, shariatparvar, zohid va olim-u ulomonining himoyachisi hisoblangan, nihoyatda soddadil bo'lgan.<sup>1</sup>

Ko'chkunchixon 1454-yili Abulxayrixon saroyida tug'uladi. Ko'chkunchixon ota tomondan Jo'jxon nasli orqali Chingizzonga borib taqalsa. Ona tomondan Robiya Sulton begin orqali Ulug'bek Mirzoga, aniqrog'i Amir Temur silsilasiga borib taqaladi. Ko'chkunchi Sulton Abulxayrixonning sakkizinch o'g'li bo'lib, uning eng ardoqli farzandlaridan edi. Suyunchi Sulton, Oqburun Sultonlar xonning bir onadan tug'ulgan ukalari edi.<sup>2</sup> Ko'chkunchixon otasi saroyida ta'lim-tarbiya oladi. Abulxayrixonning 1468-yili vafot etishidan so'ng Ko'chkunchixon, Suyunchi Sultonlar toj-u taxt uchun kurashlar paytida Movarounnahrdan panoh topishga majbur bo'lishdi. Keyinchalik, Muhammad Shayboniyxonning Abulxayrixon davlatini tiklash chog'ida unga qo'shilib siyosiy faolyatini boshlashadi. Muhammad Shayboniyxon tomonidan Movarounnahrga yurish arafasida Ko'chkunchixon Turkiston shahriga

<sup>1</sup> Акбар Замонов. Ўрта аср тарихий шаҳслари ҳайотининг айрим номалум саҳифалари. Ёджу инситути. Т.: 2020. 1186.

<sup>2</sup> Мухаммдиёр ибн Араб Катагон. "Мусаххир ал-билод" (Мамлакатларнинг эгалланиши). Форс тилидан таржима: И.Бекжонов, Д. Сангирова. 236.



hokim etib tayinlanadi. 1508-yili Movarounnahrga qozoq Sultonlari Ahmad va Jonkish Sultonlar hujumi arafasida Shohbekxon Ularga qarshi kurashga otlanadi,<sup>3</sup> ushbu ma'lumot tarixchi Muhammaddiyor ibn Arab Qatag'onning "Musaxxir al bilod" asarida quydagicha tafsiflanadi va unda Ko'chkunchixonning keynigi siyosiy faoliyat haqida quydagicha bayon etiladi: "*Muhammadxon Shayboniy Xurason o'lkalarini ham Sulton Husayn Mirzo avlodlaridan tortib olgach, qozoq sultonlaridan Ahmad ila Jonish Sulton Miyonqol va Samarqandga bosqin-chopqin uyushtirib, aholini qiyin ahvolga solib qo'ydi, Shayboniyxon shu sababli qozoq sultonlarini jazolash uchun Qozoq ustiga yurish qildi. Ahmad Sultonni o'ldirgach va ul g'ururlangan guruhni bosqin-chopqin bilan jazolagach muzaffar va g'olib ravishda qaytish jilovini ortqaga burdi. Turkiston viloyatiga yetishgach, lashkar dam olishi uchun bir necha kun ul mamlakatda isqomat nog'orasini qoqdi. Shundan Turkiston hukumati Ko'chkunchixondan olib, unga Toshkent viloyatiga qarashli shahar va tumanlarni berdi...*"<sup>4</sup> Suyunchixo'ja esa Andijonga hokim etib tayinlanadi. Lekin, keyinchalik Suyunchixo'ja yana Toshkent hokimligiga qayta tayinlanadi.

1510-yili Marv yaqinidagi jangda Shayboniyxonni o'limidan so'ng Turondagi siyosiy vaziyat tubdan o'zgarib ketdi. 1510-yili Ko'chkunchixon Samarqandni idora eta boshladi, u Shayboniyxon o'g'li Temur Sulton bilan birgalikda boshqargan. 1511-1512-yillarda Eron Safaviylari va Bobur Mirzoni birlashgan qo'shinlari Movarounnahrga hujum qildi. Davlat xavf ostida qoldi lekin, Ubaydulla Sultonning jonbozligi bilan Movarounnahrda Safaviylar zulmidan ozod etildi. 1512-yili Chingizzon yasoqi va turkiy udumga ko'ra an'analar asosida Ko'chkunchixon Movarounnahr xoni etib e'lon qilindi. Shayboniylar davrining mashxur tarixchisi Xofiz Tanish Buxoriy Ko'chkunchixonni taxtga o'tirigan paytini quydagicha izohlaydi: "*Ko'chkunchixon yosh jihatdan hammalaridan katta bo'lganiydan, uni xon (qilib) ko'tardilar va qolg'a, ya'ni vali ahndlak Suyunchak Sultonga tegdi*".<sup>5</sup> Bu hol shundan dalolat beradiki, Ko'chkunchixon Shayboniyxon vafotidan so'ng, Abulkayrizodalar ichida eng yoshi ulug'i va kattasi hisoblangan. Ko'chkunchixon dashtiy va soddadil hukmdor bo'lgan. Tarixchi olimlar fikriga ko'ra u Samarqand taxtiga o'tirgan bo'lsada, uni Muhammad Temur ibn Shayboniyxon bilan birga idora etgan, bo'lsada u bilan ziddiyatga bormagan. Uning 1514-yil vafotidan so'ng Samarqand Ko'chkunchixon va uning avlodlariga mulk etib berilgan. Shuni ta'kidlab, o'tish kerakki Shayboniyarlarni oliy hukmdori Ko'chkunchixon bo'lsada suyurg'ol mulklar unga soliq to'lab turish

<sup>3</sup> Akbar Zamon. Buxoro xonligi. Bayoz T.: 2021. 30b.

<sup>4</sup> Мұхаммаддиёр ибн Араб Қатагон. "Мусаххир ал-билод" (Мамлакатларнинг эгалланиши). Форс тилидан таржима: И.Бекжонов, Д. Сангирова. 153 б.

<sup>5</sup>Хофиз Таниш Бухорий. Абдулланома(Шарафномаи шохий). 1 қисм ШарқТ.: 1999. 61 б.



orqaligina bo'y sunishgan. Amalda ularning o'z qo'shnlari bo'lib, unga urush kezlarda Ubaydulla Sulton boshchilik qilgan. Bu holat shuni ko'rsatar ediki, Shayboniyarni ma'muriy markazi Samarqand hisoblangan bo'lsa, Ubaydulla Sulton bosh qomondon sifatida bo'lganligi va barcha harbiy yurishlarda ishtrok etganligi bois Shayboniyalar harbiy bosh qarorgohi Buxoro bo'lgan. Bundan ko'rindan, Shayboniyalar o'rtasidagi qo'sh hokimyatchilik ildizlari aynan Ko'chkunchixonning taxtga o'trishidan boshlangan.

1507-yili Shayboniyxon tomonidan Hirot jommesida pul bosishga doir farmon berildi, ushbu kumush va mis tangalar mamlakat iqsodiyotiga sezilarli ta'sri ko'rsatdi. Biroq, Shayboniyxon vafotidan so'ng, mamlakatda ro'y bergan 15011-1512-yildagi siyosiy voqealar, 1512-yilda yuz bergan qish faslidagi qattiq sovuq dehqonchilikka tasir etmay qolmadi. Shu sababli, asosiy dehqonlardan tushadigan daromad xon xazinasiga kelishi kamayib ketdi. Mamlakatda narx navo o'sib ketdi, iqsodiyot izdan chiqdi, buni ustiga ham Buxoroda ham Samarqandda mis tangalarni zarb etilishi, Ubaydulla Sulton va Ko'chkunchixonlarning pullarini qadrsizlanishiga olib keldi. Vaziyat yagona kumush va mis tangalarni zarb etishni taqazo etar edi. Bu masalani hal etilishi qariyib o'n besh yilni o'z ichiga oldi, va nihoyat Ko'chkunchixon 1525-yilda Samarqand, Balx, Toshkent shaharlarida o'g'irligi 4,8 grammlik kumush tanga zarb etiradi, ushbu tangani miqdori kumush va mis qotishmasi orqali tayyorlangan. Tanga tarkibida 90 foiz kumush, 10 foiz mis qotishmasi bo'lgan.<sup>6</sup> To'g'ri bu omil tangani biroz, qadrsiz ekanligini ko'rsatadi, biroq Ko'chkunchixon tangasi bozorda narx-navoni pasayishiga olib kelgan.

Ko'chkunchixon davrida Usmonli Sulton Salim I Yovuz huzuriga elchi jo'natilgan biroq, bu elchilik Ubaydulla Sulton tomonidan jo'natilgan. 1515-yilda esa Turkiyadan elchilar kelgan, Shayboniyalar bilan Safaviylarga qarshi ittifoq tuzish taklifini ilgari surishgan. 1528-yili Shayboniyxonni nevarasi Po'lad Sulton, Ko'chkunchixonni elchilari va Shayboniy malika Shayboniyxon kelini Mehrixonim tomonidan elchilar jo'natiladi. Aynan Ko'chkunchixon davrida Boburiylar bilan savdo elchilik aloqalari ilk bor yo'lga qo'yila boshlangan. Keyinchalik, Boburiy Akbarshoh va Shayboniy Abdullaxonning munosabatlari ilig' bo'lishiga ham shu omil debocha bo'lgan.

Ko'chkunchixon dinparvar va oliyhimmat shaxs bo'lganligi, bejiz emas. Ona tomonidan Mirzo Ulugbekga nevara ekanligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ko'chkunchixon hukmronligi davrida Temuriylarni nodir qo'lyozmasi hisoblanmish, Sharafiddin Ali Yazdiyni "Zafarnoma" asarini o'zbek tiliga tarjima ettirishni

<sup>6</sup> Akbar Zamon. Buxoro xonligi. Bayoz T.: 2021. 144-145b.



buyuradi. O'zi, esa madrasalarda tolbi ilmlar uchun astronomiyadan saboq beradi.Ko'chkunchixon Shayboniyalar tarixida rasman eng uzoq hukmdorlik qilgan shaxslardan biri hisoblanadi. 1529-yil ayrim manbalarda 1530-yil vafot etadi.Uning vafotidan so'ng qolg'a an'anasi ko'ra o'g'li Abu Said Sulton taxtga o'tiradi. Taxt yoshi katta shaxsga o'tishi ham aynan Ko'chkunchixon davridan boshlanadi.Ko'chkunchixon o'z davrida dashtdan chiqqan soddadil hukmdori hisoblangan. Uning boshqaruvida, Samarqand poytaxt bo'lgan bo'lsada u ma'muriy markaz sifatida e'trof etiladi, harbiy markaz esa Buxoro hisoblangan. Ubaydullaxon rasman xon bo'lmasada, u barcha harbiy qo'shinlarga boshchilik qilgan.Bunda biz Ko'chkunchixonni harbiy mahorati yo'qligi uchun ayblay olmaymiz. Biroq, Ko'chkunchixon Shayboniyarlari Xurasonga hukmdorligi davrida amalga oshirilgan yurishlarida ishtrok etdi va bu yurishlarda Xirot, Mashxad, Astrobod shaharlari eggallandi.Aynan uning davrida garchi Ubaydulla Sulton tomonidan bo'lsa ham qisman Shayboniyxon davrida tiklangan hududlar qo'lga kiritildi. Ko'chkunchixon hukmronligi davrida Safaviylardan o'ch olish va Xurasonda o'z mavqeini tiklash maqsadida Xurason hududiga olti marotaba harbiy yurishlar Ubaydulla Sulton tomonidan amalga oshirilgan.Aynan bu hol Ko'chkunchixonni tashabusi bilan bo'limgan bo'lsada, uning hukmdorligi davrida sodir bo'lganligi taqsinga loyiqidir.

### **Foydalangan manba va adabiyotlar ro'yhati.**

1. Муҳаммддиёр ибн Араб Қатағон. "Мусаххир ал-билод" (Мамлакатларнинг эгалланиши). Форс тилидан таржима: И.Бекжонов, Д. Сангирова.Б.430.
2. Хофи Таниш Бухорий.Абдулланома(Шарафномаи шохий). 1қисм.Шарқ.Т.: 1999.Б.414.
3. Акбар Замонов.Ўрта аср тариҳий шаҳслари ҳайотининг айрим номалум саҳифалари.Ёджу инситутиТ.:2020.Б.168.
4. Akbar Zamon.Buxoro xonligi.BayozT.:2021.B.261.





Shayboniyarda qolg'a (valiahd) tayyorlash an'anasi.

Namangan davlat universiteti Tarix yo'nalishi talabasi Erkinjonov Elomon.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Shayboniyarlarni valiahd (qolg'a) tayyorlash uдуми haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, Shayboniyalar boshqaruvi haqida ham ma'lumot olish mumkin. Bundan tashqari Shayboniy Sultonlar Suyunchixo'ja va Jonibek Sultonlarni siyosiy faoliyati haqida ham ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qolg'a, an'anna, Ko'chkunchixon, Suyunchi Sulton, Jonibek Sulton, Shayboniy Sultonlar, Abdullaxon II.

Dastlab, Muhamad Shayboniyxon tomonidan Movarounnahr shaharlari birmabir eggalanganidan so'ng, suyurg'ol tarzda inom etildi. Amakilari Ko'chkunchixonga Turkiston, Toshkent Suyunchixonga, Amakivachasi Jonibek ibn Xoji Muhammad Sultonga Farg'ona vodiysini ikki strategik shaharlari Andijon va Aksi shaxarlari, Buxoro esa ukasi Mahmud Sultonga, keyinchalik unaga Qarshi, Qunduz hokimligi ham beriladi, biroq 1504-yili Mahmud Sulton Qunduzda vafot etishi natijasida Qunduz, Qarshi, Buxoro shahar va unga yondosh tumanlar Ubaydulla Sultonga berildi. Samarqand shahri esa Temur Sultonga inom etildi. Shu tariqa mamlakat suyurg'ol tarzda Shayboniyxoning yaqinlariga taqsimlab berildi. Biroq, 1506-1508-1509-yillarda qozoq sultonlarini harbiy yurishi natijasida, Turkiston hokimligida Ko'chkunchixon olinib, Toshkent voliyligiga tayinlandi. Toshkent hokimi Suyunchi Sulton esa Andijon hokimi etib tayinlandi. Bu haqida muarrix Muhammad Diyor ibn Arab Qatag'oni asarida shunday ma'lumot berilgan: "*Shundan Turkiston hukumati Ko'chkunchixondan olib, unga Toshkent viloyatiga qarashli shahar va tumanlarni berdi...*"<sup>1</sup> bundan ko'rindiki, Jonibek Sulton Aksi bilan kifoyatlanadi. 1506-yili Balx shahri eggalangach, Shayboniyxon o'g'llaridan biri Xurramshoxni, ya'ni Bobur Mirzoni opasi Xonzoda begimdan tug'ulgan shaxzodani Balxga hokim etib tayinladi. Shayboniyxoni harbiy yurishlarida barcha Sultonlar ishtrok etgan, ayrim hollarda Temur Sulton ishtrok etolmasa yoxud otasi harbiy yurishlarda bo'lgan taqdida saltanatni idora etib turgan. Shu taxlit markazni boshqarayotgan Temur Sulton valiahd (qolg'a) hisoblangan.

1510-yili Marv yaqinidagi jangda xonning halok bo'lishi, Shayboniyarlarni siyosiy mavqeiga juda katta ta'sir etdi. Xonlik Eron qizilboshlari va Bobur Mirzo hujumi xavf ostida qoldi. 1510-yilda Ko'chkunchixon Temur Sulton bilan hamkorlikda

<sup>1</sup> Муҳаммдиёр ибн Араб Катагон. "Мусаххир ал-билод" (Мамлакатларнинг эгалланиши). Форс тилидан таржима: И.Бекжонов, Д. Сангирова. 1536.



Samarqandni birgalikda idora eta boshladi. 1511-yili Bobur Mirzo tomonidan Ko'lob, Xisor, Qarshi, Buxoro va Samarqandni egallanishi<sup>2</sup> ko'plab Shayboniyarni o'z mulkidan mahrum bo'lishiga olib keldi. Temur Sulton xonlik taxtiga da'vogar bo'lsada, Mavarounnahr tahlika ostida qolganligi bois uni xon etib ko'tarishmadi. 1512-yili dushman quvib chiqarilganidan so'ng, Temur Sultonni o'rniga Chingizzon yasoqi va turkiy an'analarga mos ravishda Ko'chkunchixonni xon etib ko'tarishadi. Temur Sulton taxtga da'vosidan voz kechdi, Samarqandni idora eta boshladi. Biroq 1514-yili vafoti Samarqand voliyligi to'liq Ko'chkunchixon vorislari qo'liga o'tishiga imkon berdi. Shu tariqa, hukmdorga ya'ni Ko'chkunchixonga valiahd tayyorlash masalasi ham tez fursatda hal qilindi, sulolaning xondan keyin eng yoshi ulug'i hisoblangan Suyunchixo'ja hisoblanardi. Shu boisdan ham Ko'chkunchixonni ukasi Suyunchixo'ja qolg'a etib tayinlandi.

Suyunchixon Ko'chkunchixonni tug'ushgan ukasi bo'lib, Abulkayrixonni to'qqizinchi farzandi edi. 1455-yili ayrim manbalarda 1456-yili tug'ulgan. Onasi esa Ulugbekning qizi Robiya Sulton edi. Suyunchixon otasi Abulkayrixon singari sargardonlikni boshidan o'tkazdi. Jiyani Shayboniyxonni otsi davlatchiligini tiklashdagi harakatlarida ishtrok etdi, unnig harbiy yurishlarida ishitrok etdi. 1503-yili Toshkent egallanganidan so'ng Toshkent hokimi etib tayinlandi. 1509-yilda esa Andijon hokimi etib tayinlandi. bunga qozoq Sultonlari hujumi sabab bolgan edi. Shayboniyxon vafotidan keyin, Toshkent hokimligiga tayinlandi. Ko'chkunchixon taxtga chiqqach, eng yoshi kattasi sifatida qolg'a (valiahd) vazifasini bajarishga kirishdi. Bu haqida tarixchi Xofiz Tanish Buxoriyni "Abdullanoma" asarida shunday deyiladi: "Ko'chkunchixon yosh jihatdan hamada katta bo'lganidan, Uni xon (qilib) ko'tardilar va qolg'alik ya'ni valiadxlik Suyunchixonga tegdi"<sup>3</sup> U Toshkent hokimligi bilan Ko'chkunchixonidan keyingi shaxs hisoblangan. Dastlab, xonlik taxtiga u chiqishi kerak edi. Biroq, harbiy sohada shijoatli, jasur bo'lganligi bois Ubaydulla Sulton qarshilik qilgan. Bundan maqsad agar Suyunchi Sulton xon bo'lsa Ubaydullaxonning siyosiy faoliyati uchun to'siq bo'lishi mumkin edi. Biroq, xonlik taxtiga yoshi ulug'i Ko'chkunchixon o'tqazildi. 1525-yili Suyunchixon vafot etgach qo'lg'alik maqomi Shayboniyarning eng ulug'i Jonibek Sultonga nasib etdi.

Jonibek Sulton garchi xonlik taxtiga o'tirmagan bo'lsada, uning avlodlaridan Abdulla Sulton eng ko'zga ko'ringan xonlardan edi. Jonibek Sultonni tug'ulgan yili noma'lum. Jonibek Sulton Shayboniyxon bilan bir onada tug'ulgan aka-ukani farzandlaridan edi. Ya'ni Shohbudoq Sulton va Hoji Muhammadxon bir onani bolasi

<sup>2</sup> Азamat Зиё. Ўзбек давлатчилик тарихи Энг қадимги даврдан Россия босқинига кадар. Т.:Шарқ\_2001.1546.

<sup>3</sup> Хофиз Таниш Бухорий. Абдулланома(Шарафномайи Шохий ). Шарқ. Т.:1999.1қисм.61б.



edi.Ularni onasi barqut qabilasidan hisoblangan, tarixchi olimlar, muarrixlar tomonidan ularni onasi haqida ma'lumot berilmagan.Jonibek Sulton Shayboniyxonning barcha janglarida ishtirok etdi. 1504-yili Andijon va Aksi shaxarlarini hokimi etib tayinlanadi.1512-yili Safaviylar quvib chiqarilgach malakatni taqsimlashni Jonibek Sultonga topshirishdi. Jonibek Sulton xohishiga ko'ra barcha hududlar Shayboniylar o'rtaida taqsimlandi. O'ziga esa Miyonqol, Ofirkent,Samarqand Sug'di hududlarni mulk sifatida oldi va vorislariga qoldirdi.Jonibek Sulton 1525-yili Suyunchixon vafotidan so'ng qolg'alikni qo'lga kiritildi.Biroq, 1528-yili Jonibek Sulton vafot etdi.Ko'p o'tmay Ko'chkunchixon ham vafot etdi. Natijada, yoshi katta bo'lganligi uchun, an'anaga xonlik taxtiga ko'ra Ko'chkunchixonni o'g'li Abu Said Sulton taxtga o'tirdi. 1530-1533-yillarda mamlakatni Abu Saidxon idora etdi.Uning hukmdorligi davrida Mavarounnahrda va Xurosonda hokimyat zaiflashdi.<sup>4</sup> Undan so'ng taxtga Ubaydulla Sulton o'tirdi, u yetti yil taxtda o'tirdi. Undan so'ng Abdullaxon I ning qisqa fursat hukmdorligidan so'ng mamlakatda qo'shhokimyatchilik qaror topdi. Buxoro Abdulaziz ibn Ubaydullaxon qo'l ostida, Samarqand esa Abdulatif ibn Ko'chkunchixon qo'lida edi. Bundan tashqari Toshkent, Turkiston, Farg'ona vodiysi Suyunchixon avlodlari Keldimuhamad va Baroqxon nazaratida edi.1550-yili Abdulazizzon vafotidan so'ng taxt Shayboniyxonni nabirasi Muhammaddiyor Sultonga o'tdi(Shayboniyxon o'g'li Suyunchi Abulkayir Sultonni o'g'li).Ko'p o'tmay taxtni Pirmuhammad ibn Jonibek egalladi, ammo u hokimyatni saqlab qolaolmadi. Barqoxon boshchiligidagi kuchlar, Abdulatif bilan ittfoq tuzib Buxoroni qo'lga kiritishdi.Pirmuhammad va Iskandar Sultonlar Balxga chekinishdi. Buxoroda 1551-1554-yillarda Ubaydullaxonni o'g'li Rahim Sultonni vorislar Muhammaddiyor va Burhon Sultonlar hukmdorlik qilishdi.1554-yili Burhon Sulton Muhammaddiyor Sulton qatl etdi.1556-yili Abdullaxon II Buxoroni eggalaganidan so'ng Burhon Sultonni qilmishlari uchun qatlettirdi.<sup>5</sup> Shundan so'ng rasman bo'lmasada markaziy hokimyatni tashkil topishi natijasida qolg'a tizimi tiklandi Pirmuhamadxon xon etib ko'tarildi, amalda esa hokimyat Abdullaxon qo'lida edi.1561-yili Pirmuhammad taxtdan tushirilib, taxtga Iskandarxon ibn Jonibek o'tirdi amalda hokimyat va qolg'alik Abdullaxon qo'liga o'tdi.1583-yili esa taxt rasman Abdullaxonga o'tganidan so'ng, valiahd etib Abdullaxonni o'g'li Abdulmo'min tayinlandi. Abdulmo'min valiahd bo'lishiga qaramay doim otasiga qarshi borishga harakat qilgan.Shu boisdan ham Abdullaxon uni Xurason noibligidan olib tashlaydi.

<sup>4</sup> B.J.Eshov,A.A.Odilov.O'zbekiston tarixi.T.:Donishmand ziyozi\_2020.239b.

<sup>5</sup> A.Zamonov.Buxoro xonligi tarixi.T.:Bayoz.2021.64-65b.



Aynan, 1540-yildan boshlab qolg'a tizimiga amal qilinmay qo'yildi. Mamlakatda taxt uchun kurashlar avjiga chiqdi. Biroq, Abdullaxonning jonbozligi bilan mamlakatda osoishtalik ta'minlandi. Xon Chinfgiz yasoqi va turkiy davlatchilikga sodiq qolib avval o'zi emas balik, Pirmuhammad va otasi Iskandar Sultonni taxtga o'tirgizdi. Bu hol o'zining dushmalariga xonlik silsilasiga qarshi chiqmayotganligini dalili edi. Abdullaxon vafotidan so'ng toji-u taxt uchun kurash avj olib mamlakat parokandalikga yuz tutdi. Qolg'a tayyorlash maslasi ham barham topdi. Shayboniyalar Chingiz yasoqi va turkiy an'analarga sodiq qolgan holda malakatni eng yoshi ulug'iga topshirish masalasiga amal qilishdi. Bu hol mamlakatda XVI asrning 40-yillarigacha tartibni saqlash imkonini berdi. Shayboniyxon davridagi Sultonlar bunga qattiq rioya etishdi, biroq ularning vafotidan so'ng ular vorislari o'rtasida ayovsiz kurash avjiga chiqdi. Aynan, Abdullaxon II ning hokimyat tepasiga kelishi bir muddat osoishtalikni ta'minladi. Abdullaxon ham qolg'alikga amal qilgan bo'lsada, harbiy hokimyatni o'z qo'lida saqlab qoldi. O'zboshimcha Sultonlarni ayamay qilichdan o'tkazdi. Qolg'alik an'anasi Shayboniyalar sulolasida valiahd tayyorlashni turkiy udumlargacha xos bo'lган bir ko'rinishi edi.

### **Foydalanigan manba va adabiyotlar.**

1. Мухаммдиёр ибн Араб Қатағон. “Мусаххир ал-билод” (Мамлакатларнинг эгалланиши). Форс тилидан таржима: И.Бекжонов, Д. Сангирова.430б.
2. Ҳофиз Таниш Бухорий.Абдулланома(Шарафномайи Шоҳий ) 1Кисм.Шарқ.Т.:1999.1қисм.414б.
3. Азамат Зиё.Ўзбек давлатчилик тариҳи Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар.Т.:Шарқ\_2001.3676.
4. B.J.Eshov,A.A.Odilov.O'zbekiston tarixi.T.:Donishmand ziyosi\_2020.404b.
5. A.Zamonov.Buxoro xonligi tarixi.T.:Bayoz.2021.261b.



Shayboniyxon avlodlarini qismati.

Namangan davlat universiteti talabasi Erkinjonov Elomon Umidjon o'g'li.

**Annotatsiya:** Muhammad Shayboniyxon Marvda vafot etganidan so'ng, uning vorislari hayoti va siyosiy faoliyatida tub burilish sodir bo'ldi. Taxt vorisi hisoblanga uning vorisi Temur Sulton taxtdan qo'lga an'anasiga ko'ra chetlatildi. Qolgan surryotlar Muhammadyor Sultondan tashqari xonlik taxtga o'tirishmadidi. Ushbu maqola shu haqida ma'lumot beradi.

**Kalit so'z:** Temur Sulton, Po'lad Sulton, Ko'kbo'yir Sulton, Xurramshoh, Sevinch Sulton, Muhammadyor Sulton, Buxoro.

Muhammad Shayboniyxon hukmdorligi davrida ko'plab, malikalarni o'z nikohiga olganligi haqida ma'lumot o'z zamonasining tarixchilari tomonidan bayon etib borilgan. Uning siyosiy faoliyatida diplomatic nikoh usulidan ham foydalanilgan. O'z davrida Shayboniy Chingiziy va Temuriy malikalar bilan hayot yo'lini bog'lab Movarounnahrdagi siyosiy nufuzini mustahkamlab borgan. Shayboniyxon 1500-yil Samarqandni qo'lga kiritish maqsadida, Sulton Ali Mirzoni onasi Zuhra begin bilan nikohdan o'tishni rejalashtiradi, biroq Samarqand olingach, xotinlikga olmaydi. Bu haqida "Boburnoma" da shunday deyilgan: "*Bu badbaxt xotin (Zuhrabegin) esi past bo'lganidan, erga tegish havasi bilan o'g'lining xonumonini elga berdi. Shayboniyxon unga zarracha parvo qilmadi.*"<sup>1</sup> Bu Shayboniyxonning Samarqandni jangsz eggalaganidan dalolat beradi. Shayboniyxon 1501-yili Samarqandni olgach Bobur Mirzoni opasi Xonzoda beginni o'z nikohiga oladi. Bu hol uni nufuzini yanada oshiradi. Aynan, Temuriy malikaga uylanishi uni Movarounnahr taxtini sohibi sifatida e'tirof etilishini imkonini beradi. 1503-yili Toshkent eggalanganidan so'ng Shayboniyxon Xonzoda beginni nikohidan chiqarib, iddasi o'tgandan so'ng Mahdixo'jaga nikohlatib beradi.<sup>2</sup>

Muarrixlar tomonidan Shayboniyxon bir necha bor o'z nikohiga Temuriy va Chig'atoy maliklarni olganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Xonzoda begin, Oyisha Sulton begin, Xonzoda bintu Ahmadshoh qizi va boshqalar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shayboniyxonni dastlabki xotinlari haqida ma'lumotlar deyarli uchramaydi. Biroq keying Shayboniyxonning rafiqalari haqida ma'lumotlar uchraydi. Shuningdek, Shayboniyxonni o'g'llari haqida ham ma'lumotlar bor. Ularning eng to'ng'ichi Temur Sulton hisoblangan. Keyingilari, Xurammshoh va Sevinch Muhammad Sulton yohud

<sup>1</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур.Бобурнома.Ўқтиувчи.Т.:2008.766.

<sup>2</sup> Фиёсиддин ибн Хумомиддин Хондамир.Ҳабиб ус сийяр.Шарқ.Т.:2011.2516.



Abulxayri Sultonlar bo'lgan. Shayboniyxonni qizlar haqida ma'lumotlar uchramaydi. Bu davrda ayol qadri, nomusi ulug'langanligi bois, diniy qadiriyatlar kuchayganligi tufayli Shayboniy malikkalar haqida ma'lumotlar deyarli oz. Shu boisdan xonning qizlari bo'lganmi yoki yo'mi bu ochiq qolgan savollardan biridir.

Shayboniyxonni katta o'g'li Muhammad Temur Sulton hisoblanadi. Uni tug'ilgan yili haqida ma'lumotlar berilmagan. Ayrim manbalarda Temur Sulton Trukistonda tavallud topganligi bois XV asrni 70-yoki 80-yillarida tug'ulgan bo'lishi haqida ma'lumotlar uchraydi. Shayboniyxon qozoq xoni Burunduqxon bo'lgan jangalarda o'zini jasoratini ko'rsata olgan. Burunduqxonni O'troga hujumi arafasida Temur Sulton O'tror hokimi bo'lgan va uni hujumini qaytargan. Temur Sulton Shayboniyxonning barcha jangalarida ishtirok etgan. Temur Sulton 1501-1509-yillardagi harbiy yurishlarda faol ishtirok etdi. 1507-yil Xirot va Xurason qo'lga kiritilgach Samarqand Temur Sultonga beriladi va valiahd etib tayinlanadi. Muhammad ibn Arab Qatag'on bu haqida shunday deb ta'kidlaydi: "...Muhammad Shayboniyxon Xurason fatxidan keyin Samarqand viloyati va tumanlarini unga berdi va o'zining valiahdi deb e'lon qildi..."<sup>3</sup>.

Otasi tomonidan 1508-yili amakivachasi Ubaydulla Sulton bilan Mashxaddagi Sulton Husayn Mirzo o'g'illari Abulmuxsin va Kepak Mirzolarni tor-mor etadi. Shuningdek 1509-1510-yillarda Qoshg'arga muvaffaqiyatsiz harbiy yurishni amalga oshiradi. 1510-yili Temur Sulton otasi Marv qamalida qolgan paytida amakivachasi Ubaydulla Sulton va o'z Amudaryodan kechib, yordamga oshiqadi, biroq Elbars Sulton tomonidan xoinlik yuz berib, Shoh Ismoil Shayboniy qo'shinlari yaqinlashayotganligi haqida xabar berilgach, Shayboniyxon ma'g'lub bo'ladi.<sup>4</sup> Temur Sulton hamisha otasiga sodiq farzand bo'lgan. Temur Sulton 1511-1512-yili Eron qizilboshlari hujumi arfasida, Bobur Mirzoga qarshi yurishda, Ubaydullaxon bilan ularga qarshi turdi. Ikkinchı bor Movarounnahr Shayboniylar qo'liga o'tgach Samarqandni Shayboniyxonni amakisi Ko'chkunchixon bilan birgalikda boshqardi. Aynan, Temur Sultonning rafiqasi dono va oqila malika Mehrixonim tomonidan ko'lab ilm darg'alari qo'llab-quvvatlandi, ilm-fanga homiylik qilindi. 1514-yili Temur Sulton vafot etdi. Temur Sultonni vorisi Po'lad Sulton hisoblanib u o'z davrida Bobur Mirzoni she'rlariga ixlosmand bo'lib, 1528-yili Agraga Shayboniylar elchlari qatorida o'zini elchisini Bobur Mirzoga jo'natadi. U 1530-yili vafot etadi. Uning avvlodi Ko'kboyir Sulton o'zboshimcha va xalqni talaganligi, ko'p yashamaganligi haqida Muhammad

<sup>3</sup> Муҳаммдиёр ибн Араб Қатагон. "Мусаххир ал-билод" (Мамлакатларнинг эгалланиши). Форс тилидан таржима: И.Бекжонов, Д. Сангирова.128.6.

<sup>4</sup> Akbar Zamon.Buxoro xonligi.BayozT.:2021.37b.



ibn Arab Qatag'on asarida ma'lumot berilgan.Ko'kboyir Sulton vafotidan keyin Temur Sultonni nasli uziladi.

Shayboniyxonni keyingi vorisi Xurramshoh hisoblanadi.Uni onasi Xonzoda begin bo'lganligi bois, ona tomonidan Bobur Mirzoga jiyan bo'lib, Temuriylar nasliga taqalgan.Xurramshoh 1502-yili tug'ilgan, otasi tomonidan Balx eggalangach, Qanbar otaliq homiyligida hokim etib tayinlanadi.Manbalarda qayd etilishicha,u ovga ishqiboz,otasi farmonlariga sodiq holda ado etgan.Shuningdek,oddiy xalq dardini doimo,o'ylagan.Xurramshoh 1510-yili Muhammad Shayboniyxon vafot etganidan so'ng u ham bir-ikki yildan so'ng vafot etadi.Zahiriddin Muhammad Bobur Xurramshoh haqida o'zining "Boburnoma"asarida shunday fikrlarni bayon etadi:"...Xurramshoh, yaxshi o'g'lon edi,Shayboniyxon unga Balx viloyatini bergen edi,Otasi o'lganidan keyin bir-ikki yil o'tgach,vafotetdi....".<sup>5</sup>Shoh Ismoil Marvni egallab Shayboniyxon vafot etganidan so'ng, Xonzodabegin va Xurramshoh Kobulga jo'natiladi.Boburni Movarounnahrga yurishi chog'ida Xurramshoh vafot etadi.

Shayboniyxonni kichik o'g'ili Sevinch Muhammad yoki Abulxayri Sulton, tug'ilgan yili aniq emas.Sevinch Muhammadning Abulxayri nomlari ham uchraydi.Shayboniyni bobosi Abulxayrixon sharafiga berlgan ismidir,biroq Abulxayrixonga hurmat saqlagan holda uni Sevinch Muhammad Sulton deb atashgan.Otasidan erta yetim qolganligi bois Ubaydullaxon o'z homiyligiga oladi.Shayboniyxon tirikligidayoq uni Kesh viloyatiga hokim etib tayinlaydi. Sevinch Sulton Ubaydullaxon taxtga o'tirgach unning xizmatida bo'ladi,umrini Buxoroda o'tkizadi.Sevinch Sultonni Muhammadyor ismli o'g'li bo'lganligi haqida tarixiy manbalar mavjud.Biroq, ko'pchilik tarixchilar tomonidan Muhammadyor Sulton Ubaydullaxonning o'g'li Rahim Sulton o'g'li sifatida ko'rishadi, biroq 1550-yili Abdulazizzon vafot etgach,ko'plab ulamo va beklar Muhammadyorni taxtga o'tirgizishadi.Taxtga Ubaydullaxonning o'g'li Rahim Sultonni vorisi Burhon Sulton davo qila boshlaganidan so'ng,shariat qozisi tomonidan chiqarilgan fatvordan,keyin Muhammadyor nomi Muhammadrahim nomiga o'zgartiriladi va Buxoroni o'zida qo'shhokimyatchilik vujudga keladi.Muhammadyorxon taxtni Burhon Sulton bilan hamjihatlikda boshqardi.Shu sababli, ko'pchilik Muhammadyor Sultonni Ubaydullaxon vorisi deb adashishadi.Baroqxon bilan ittifoq tuzib,bir necha bor Abdullaxonni Miyonqol,Nasf(Qarshi)ga uyushtirilgan harbiy yurishlarni oldini olishga harakat qildi.1554-yil Burhon Sulton beklar gapiga va yakkahokimlikga intilib,Muhammadyorxonni qilichdan o'tkazadi.Natijada, Shayboniyxonning o'g'il vorislari qolmaydi,bundan keying muarrixlar tomonidan yozilga tarixiy asarlarda

<sup>5</sup> Захириддин Мухаммад Бобур."Бобурнома"."Ўқитувчи".Т.:2008.346.



Shayboniyxon vorislari haqida ma'lumot uchramaydi.Muhammadyorxon qatl etilganidan bir yil o'tar-o'tmas, Burhon Sulton ashadiy dushmani Abdullaxon II tomonidan ayovsizlarcha qatl etiladi.

Agar e'tbor berilsa, Shayboniyxon, uning avlodlarini hayoti, hukmronligi yohud siyosiy faoliyati yuz yildan oshmaydi.Muhammad Shayboniyxon 1451-yilida tavallud topgan bo'lsa, oxirgi Shayboniyxon avlodi Muhammadyor Sulton 1454-yilqatl etilgan.Bu Shayboniyxon avlodlarini o'g'il naslli qirilib bitganligidan dalolat beradi.Bundan, tashqari xonlik taxtiga na Temur Sulton, na Xurramshoh,na Sevinch Sultonni o'tirganligi ko'rishimiz mumkin.Faqatgina, Sevinch Sultonning nabirasi Muhammadyor Sulton Buxoro taxtiga o'tiradi.Biroq, uning boshqaruvi ham qo'shhokimyatchilik ostida bo'ladi.Shayboniyxon avvoldlari Muhammadyor Sulton qatlidan so'ng uzilib qoladi.

### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati.**

1. Захириддин Муҳаммад Бобур.Бобурнома.Ўқтиувчи.Т.:2008.Б.287.
2. Фиёсиддин ибн Хумомиддин Хондамир.Ҳабиб ус сийяр.Шарқ.Т.:2011.Б.302.
3. Мухаммаддиёр ибн Араб Қатағон. “Мусаххир ал-билод” (Мамлакатларнинг эгалланиши). Форс тилидан таржима: И.Бекжонов, Д. Сангирова.Б.429.
4. Akbar Zamon.Buxoro xonligi.BayozT.:2021.Б.262.



**SULTON MUHAMMAD SHAYBONIYXONNING SIYOSIY FAOLIYATIGA  
TARIXIY CHIZGILAR**

**Elomon Erkinjonov**

**Namangan davlat universiteti “Tarix” yo’nalishi 2-bosqich talabasi.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Shayboniyxonning siyosiy faoliyati va hayoti haqida, shuningdek Muhammad Shayboniyxonning harbiy yurishlari natijasida Shayboniylar davlatini tashkil topishi haqida, Shayboniyxonning o’zbek davlatchiligidagi o’rni haqida yozilgan.

**Kalitso’zlar:** Shayboniyxon, Mahmudxon, BoburMirzo, Toshkent, Samarqand, Shoh Ismoil, qizilboshlar, Shayboniyxon, harbiy yurishlar, Ubaydulla Sulton, Shayboniy Sultonlar.

Mustaqillik yillarda sovet davrida tariximizga bo’lgan turli xil bo’xtonlar olib tashlandi. Ko’plab siymolarga qo’yilgan ayblovlar bekor qilindi. Buyuk ajdodlarimizning vatan oldidagi xizmatlari, olimlar, ziyollilar tomonidan o’rganilib, xalq ommasiga bobolarimizni jahon tamadduniga nechog’lik hissa qo’shganliklari haqida ma’lumotlar yetkazilib berildi. Ular haqida ilmiy asarlar yozildi. Qadimda mavjud bo’lgan Qang’, Davon, Xorazm, Efatallar, Turk xoqonligi haqida izlanishlar olib borildi. Birinchi prezidentimiz Islom Abdug’aniyevich Karimov tomonidan tarixmizni tub mohiyatini oolib berish uchun olib borgan ishlari tafsinga loyiq. I.A.Karimov davrida Amir Temur va Temuriylarga oid ko’plab ilmiy ishlar yaratildi. Nafaqat, Temuriylar, balki Somoniylar, Xorazmshohlar, Qoraxoniylar, Shayboniylar, Xorazm Shayboniylar (Arabshohiylar) va boshqa sulolalar davlat boshqaruvi, ma’naviy hayoti, iqsodiy ahvoli, hukmdorlari haqida ko’plab ilmiy asarlar, maqolalar yaratildi. Ko’plab ilmiy ishlar, o’quv qo’llanmalar, maqolalar tayyorlandi.

O’zbek xalqi tarixi bir necha ming yillik ekanligi haqida ko’plab olimlar tadqiqot olib borishdi. Ular fikricha o’zbek davlatchiligi tarixi 3000 ming yilga yaqin ekanligi ta’kidlanmoqda. Qadimgi davrlardan to yangi davrlargacha ko’plab siymolar yetishib chiqdi. Ularning ilmiy izlanishlari, siyosiy faoliyatlari o’zbek xalqining davlatchilik faoliyatiga ham sezilarli hissa qo’shdi, shuningdek davlatimizning poydevorini yaratishga asos bo’ldi. Buyuk bobolarimizni olib borgan ishlarini, tajribalarini bugungi kunda ham davlat rahbarlarimiz tomonidan ko’rib chiqilib, keng jamoatchilikka taqdim etilmoqda. Ularning insonlarga bo’lgan munosabatlardan ibrat olsak arziydi. To’g’ri o’z dayrida raiyat ahvoli bilan qiziqmagan hukmdorlar ham bo’lgan, lekin ular sanoqli



интенсивность движения. В проектах нового строительства и реконструкции дорог рекомендуется перепроектировать участки, для которых итоговый коэффициент аварийности превышает 15 – 20. В проектах капитального ремонта в условиях холмистого рельефа следует пересматривать перестройку участков дорог с итоговыми коэффициентами аварийности более 25 – 40.

Метод коэффициентов аварийности обладает следующими недостатками:

– не всегда по следствию (факту ДТП) можно установить причину происшествия и выявить дорожные условия, повлиявшие на возникновение аварийной ситуации;

– в методе итогового коэффициента аварийности не учитывается конкретная скорость движения автомобилей на участке дороги и поэтому установленная по указанному методу опасность дорожных условий как бы не зависит от скорости, с которой движется автомобиль. Скорость движения автомобилей являются существенным параметром практически всех ДТП. Поэтому, на наш взгляд, скорость движения (фактическая, расчетная и т.д.) должна находиться в основе определения опасности дорожных условий и коэффициентов аварийности в том числе;

– метод итогового коэффициента аварийности не позволяет оценить увеличение опасности дорожных условий при ухудшении качества строительства, так как в этом методе любые отклонения параметра от среднего значения не влияют на результаты оценки опасности геометрического элемента.

Таким образом, рекомендуется проверять дороги на безопасность дорожного движения различными методами.

### **Литература.**

1. Азизов К.Х., Основы организации безопасности движения, Ташкент 2012.
2. Статья “АНАЛИЗ МЕТОДОВ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ БЕЗОПАСНОСТИ ДОРОЖНОГО ДВИЖЕНИЯ” Л.С. Абрамова, доц., к.т.н., В.В. Ширин, доц., к.т.н., Г.Г. Птица, асп., Харьковский национальный автомобильно-дорожный университет/
3. [https://studwood.net/993987/bzhd/analiz\\_suschestvuyuschihih sposobov metodov otseki bezopasnosti avariynosti dorozhnogo dvizheniya?ysclid=lauvv13 ura238691568](https://studwood.net/993987/bzhd/analiz_suschestvuyuschihih sposobov metodov otseki bezopasnosti avariynosti dorozhnogo dvizheniya?ysclid=lauvv13 ura238691568)



## O'QUVCHILARDA OVQATLANISH MADANIYATI SHAKILLANTIRISH.

NamDPI, PhD. Sh.Xudayqulov.

Talaba Qo'ziyeva Mashxura

Email: [kuzievamashura262@gmail.com](mailto:kuzievamashura262@gmail.com)

telefon raqam: +998 33 428 28 04

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada to'g'ri ovqatlanish inson va uning keyingi avlodlariga ham foydali ekanligi, sog'lom ovqatlanishni yo'lga qo'yish, to'g'ri ovqatlanishga rioya qilgan kishi kasalliklarga kamroq chalinadi va shifokor ko'rigiga muhtoj bo'lmasligi hamda o'quvchilarga ovqatlanish madaniyatini shakillantirish nazarda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** Ovqatlanish odobi, tozalikka rioya qilish, sog'lom ovqatlanish, Fastfood, Sharq madaniyati, G'arb madaniyati.

Yurish-turish gap so'zlarda odob madaniyat bo'lganidek, ovqatlanishda ham odob degan tushunchalar bor. n ovqatlanish madaniyati hamma joyda bir xil emas.

Dasturxonga tortiladigan taom ilmiy asosda tayyorlanishi, nafosat bilan bezatilishi lozim. Masalliqni lazzatli va foydali taumga aylantirish pazandaning mahoratiga bog'liq. Uni tayyorlash ilmining o'ziga xos texnologiyasi mavjud. Pazandachilik nafaqat texnologiya, balki tarix, kimyo, biologiya, fizika fanlari bilan ham chambarchas bog'liq o'ziga xos texnologiyasi mavjud. Pazandachilik san'ati insoniyatning eng qadimgi faoliyatlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi har doim jamiyatning iqtisodiy ravnaqiga aloqador bo'lgan.

Dasturxon did bilan bezatilsa va ovqat chiroyli qilib qo'yilsa ko'rganda faqat ko'z quvonib qolmasdan bunda me'da shirasi ham ko'proq ajraladi hazm tizimi ovqatlanishga tayyor turadi. Taomni har xil ko'katlar: jingalak maydanoz (petrushka), shivist, sabzavotlar, limon, bodring, karamlar bilan istemol qilish xazm jarayonini yaxshilaydi.

"Ovqatning barokati undan oldin va keyin qo'lni yuvmoqdir" Taomlanishdan oldin va keyin ham qo'lni va tishlarni yuvish kerak. Taomni tik turib yeb bo'lmaydi.




Bu tibbiyot tomonidan ham ko'rib chiqilgan. Tik holatda ovqat yeyish yoki suv ichish oshqozon ichak faoliyatiga zarar yetkazadi. Shu sababli o'tirgan holatda ovqatlanish zarur. (1-rasm)

Choyni yoki ovqatni puflab yeb bo'lmaydi. Bu haqda shifokorlar ham aytib o'tgan. Lekin biz ba'zan sabrimiz chidamay tezroq sovishini hohlaymiz. Aslida o'z holicha sovigani yaxshi va albatta issiq holatda ham yeb bo'lmaydi. Tibbiy tomonidan issiqlik og'iz bo'shlig'ini kuydiradi. Taomni shoshilmasdan sekin yeyish kerak. Tez yeyish orqali o'g'izdagi ovqat haqidagi ma'lumot miyaga sekin yetib boradi natijada to'yish hissi kechikadi va ko'p ovqat yeyishga sabab bo'ladi. Meyordan ortiq yeyilganda oshqozon 20 mm ga kengayadi. Shu sabab ovqatni shoshilmay sekin yeyish zarur. Ovqatlanib bo'lgach dasturxon ustidan hamma bo'limguncha turib ketish bo'lmaydi hamma tavomlanib bo'limgunchcha duo qilib turiladi faqatgina zarurat bo'lgandagina turish mumkin. Dasturxonda o'tirganda tovush chiqarmasdan chapillatmay yeyish, qoshiqni taraqlatmaslik, choyni piyolaga to'ldirib quymaslik, kattalardan oldin taomga qo'l cho'zmaslik odobbdandir.

To'g'ri ovqatlanishga rioya qilish inson sog'lig'iga foydali va umrini uzaytiradi. Ovqatni o'z vaqtida iste'mol qilish lozim. Har doim ovqatdan 10-15 daqiqa oldin meva yoki sabzavot yeyish tavsiya etiladi. Bu tibbiyot tomonidan ham keltirilgan. Davomiy olma yeyish inson umrini 17 yilga uzaytiradi. Kechki soat 6 dan keyin ovqatlanish kerak emas. Chunki 6 dan keyingi ovqat sekin hazm bo'ladi va shu sababli oshqzonga botadi. Agar kechqurun yotishdan oldin qorin ochsa 1 stakan qatiq yoki 1 dona olma yeyish lozim. Noto'g'ri ovqatlanish va Fastfood mahsulotlarini yeyish inson organizmiga zarar keltirib turli xil oshqozon ichak kasalliklari va vazndan ortiq semirishga olib keladi. Semirish esa qandli diabet kasalligini keltirib chiqaradi. To'g'ri ovqatlanish sog'lom ovqatlanish demakdir.



*1-rasm. Ovqatlanish odobi elementlari*



*2-rasm. Ovqatlanish piramидаси*



So‘g‘lom ovqatlanish-organizmning o‘sishi, meyoriy rivojlanishini va hayot kechirishi, salomatlikni mustahkamlovchi hamda kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiruvchi sog‘lom turmush tarzining eng asosiy omillaridan biri hisoblanadi. (2-rasm)

Oziq-ovqat mahsulotlarini to‘g‘ri iste’mol qilish orqali organism oziqlanadi oziqlanadi hamda sog‘lom rivojlanadi. Bir maromda bir xil ovqatlanish organism uchun zadir. Kunlik ovqatlanish ratsionini turli foydali vitaminlar bilan boorish hamda bir kunda besh marta: ertalabki nonushta, ikkinchi nonushta, tushlik, tushdan keyingi yengil ovqatlanish, kechki taom bilan belgilash tavsiya etilad. To‘g‘ri ovqatlanish tartibiga rioya qilish esa salomatlik uchun juda muhim. Ovqat tarkibida inson organizmiga foydali turli moddalar bor. Yog‘, oqsil, uglevod va vitaminlar shular jumlasiga kiradi. Inson doimiy harakat natijasida kerakli miqdorda energiya sarflaydi. Sarflangan energiya o‘rnini esa oziq-ovqat mahsulotlari egallaydi. Har bir inson jismonan va ruhan baquvvat va faol yashashi uchun to‘g‘ri ovqatlanish tarziga amal qilishi muhim ahamiyatga ega. Unga to‘liq amal qilinsa gerantologiy (inson organizmining qarishi) bilan shug‘ullanuvchi xalqaro tashkilot olimlarining fikriga ko‘ra, 100-120 yil ko‘rish imkoniyati mavjud. Ayrim manbalarda esa, 180 yosh ham hayot davomiyligida chegara hisoblanmaydi.

Hulosa o‘rnida shuni aytish joizki, to‘g‘ri ovqatlanish inson va uning keyingi avlodlariga ham foydalidir. Sog‘lom ovqatlanishni yo‘lga qo‘yish balki butun jamiyat uchun ham yaxshi. Sog‘lom jamiyatda sog‘lom muhit, sog‘lom muhitdan esa sog‘lom kelajak barpo etiladi. To‘g‘ri ovqatlanishga rioya qilgan kishi kasalliklarga kamroq chalinadi va shifokor ko‘rigiga muhtoj bo‘lmaydi.

Demak, ovqatlanishni hayotimizda birinchi o‘ringa qo‘ymasligimiz kerak, bu shunchaki bizning ish-harakatlarimizni bajarishda tayanch vazifasini o‘taydi. Inson boshqa jonzotlardan ilm, aql, odob, farosat, shuningdek, taom yeishdagi amallarni bajarish bilan farq qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shayxova G‘uli "Ovqatlanish saboqlari" Toshkent "O‘zbekiston" 2015y
2. Xoji Muhammad Shohmurodzoda, Xoji Fazliddin Koramutulloh "Taomlanish odobi" Toshkent "Movarounnahr" 2005
3. O’.Toxirov va boshqalar. Texnologiya. Umumta’lim maktablari uchun darslik 5-sinf. Sharq nashiryoti. Toshkent 2020 yil.



## O'QUVCHILARGA IZONIT-IPLAR GRAFIKASI USULIDA TASVIRLAR TAYYORLASHNI O'RGATISH.

**NamDPI. PhD. Sh.Xudayqulov. Talaba Dolimova Aziza Otabek qizi**


**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktab o'quvchilariga Izonit-iplar grafikasi tarixi va ular xaqida ma'lumotlar keltirilgan. O'quvchilarga texnologiya dars mashg'ulotlarida, mактабдан va darsdan tashqari mashg'ulotlarda Izonit-iplar grafikasi usuli yordamida turli naqsh elementlaridan qiziqarli, chiroyli dekorativ pannolar, naturmortlar, tabiat manzaralari, kitob uchun xatcho'p, kitob g'iloflari, qutichalar bezagi, sovg'a uchun turli esdalik kompozitsiyalar yaratish uchun ko'rsatma vazifasini bajaradi.

**Kalit so'zlar:** Izonit-iplar grafikasi, rangli iplar, igna, asos, qaychi, bigiz, to'g'nag'ichlar, kompozitsiya, tasvir, Ovalsimon, spiralsimon, to'rtburchak, doira, choc, texnika, nuqta, kashta tikish, qog'ozlar.

Bugun yoshlarni barkamol avlod bo'lib yetishishda, puxta bilimlar egallash o'zlarini iqtidorlarini to'la namoyon qilish, barcha qobilyatlarni yuzaga chiqarish hamda jamiyatda muhim bir kasb-hunarni egallashlari uchun barcha fanlar qatori "Texnologiya" faninig o'rini katta axamyatga egadir.

Fan mashg'ulotlarida mustaqil ijodiy ishlar amalga oshirish bilan birga turli xil materiallardan chiroyli buyumlar, tikish usullari bilan xar-xil kashtalar, zardo'zlik asosida buyumlar, izonit-ip grafikasi asosida chiroyli dekorativ pannolar, naturmortlar tikish texnologiyasi bilan ko'nikma va malakalaringizni oshirib boriladi.


Ip grafikasi (turlari: ip o'tkazish, ip tasviri, ip dizayni) yoki string art (inglizcha string art - "iplar san'ati" dan) - bu karton yoki boshqa mustahkam asosda iplar bilan tasvirni olish usuli. Ip grafikasi ba'zan izografiya yoki karton kashtado'zlik deb ham ataladi. Ba'zan asos sifatida baxmal (baxmal qog'oz) yoki qalin qog'oz ham ishlataladi. Oddiy iplar, jun va rangli ipak iplardan ham foydalanishingiz mumkin. Izonit-iplar grafikasi bu qattiq buyumga iplar grafikasi yordamida biron-bir tasvirni yaratishga aytildi. Izonit XVII asrda Angilyalik to'quvchilar tomonidan yaratilgan. Dastlab ular yog'ochning ustki qismiga mixlar qoqib, mixlarga iplarni tortib, turli grafik naqshlarni hosil qilishgan(1-rasm). Keyinchalik takomillashtirilib kartonlar, disklar ustiga tasvirlar tushirilgan.




1-rasm. Mixlarga iplarni tortib  
bosil qilish



Izonit juda qiziqarli va ajoyib usul bo'lib, kashtaga yoki to'qish san'atiga o'xshamaydi. Chunki bu juda ham sodda va dizayni jihatidan ham boshqa tikish uslublaridan ajralib turadi. Izonit texnologiyasi qimmatbaho materiallarni talab qilmaydi, faqat rangli yorqin iplar va mustahkam asos sifatida xizmat qiladigan materiallardan foydalaniladi. Izonit usuli bilan turli xildagi tasvirlani iplar yordamida hosil qilishdan iborat bo'ladi. Hosil qilingan tasvirlar juda ham chiroyli manzarani berdi.



**2-rasm. Burchak shaklini tikish**



**3-rasm. Spiral shaklini to'ldirish**

Izonit usulida tikish texnikasida burchak, yoysimon, spiral shakli, bargsimon, va aylana shaklli usullaridan foydalanib naqshlar tikeladi (2 va 3-rasmlar). Hamma shakl har xil gullarni va naqshlarni beradi. Hamma tikish usullaridan foydalib ham bir ajoyib manzara hosil qilish mumkin. Izonit usulida tikish uchun asosan rangli iplar, igna, asos, qaychi kerak bo'ladi. Rangli iplar mulina, iris, g'altakli kabi iplar ko'p ishlatiladi. Ignas esa ozgina ingichkarog' bo'lgani yaxshi. Izonitning asosi esa karton, qog'oz, disk, plastinka kabi asoslardan foydalanamiz. Qaychini esa iplarni tez va oson kesishimiz uchun ishlatamiz. Asoslarni teshish uchun bigiz yoki to'g'nag'ichlardan ishlatamiz. Skotch yoki yelimlardan ham foydalanamiz, chunki, asosning orqa tomonidan iplari mustahkam bo'lishi uchun.


Izonit usuli texnikasini o'rghanish uchun burchak, doira va kamon shakllarini o'rghanishning o'zi kifoya. Chunki ko'p shakllar manashu usullar yordamida tayyorlanadi.

Izonit tayyorlashimiz uchun birinchi bo'lib karton yoki qog'ozga burchak shakli chiziladi, burchakning har bir tomoni teng qismlarga bo'lingan va burchak yonidagi segmentlar soni teng bo'lishi kerak, aks holda burchak chiqmay qolishi mumkin. Ip karton qog'ozning ichki qismidan birinchi nuqtadan boshlab kiritiladi va oxirgi nuqtaga borib to'xtaydi (1-jadval).


**Burchak shaklini xosil qilish jaryoni ketma-ketlikda ko'rib chiqamiz.**

1-jadval






Doirani to'ldirish usuli ham burchakni to'ldirish qoidasiga muofiq amalga oshiriladi. Birinchidan, baravar teng miqdordagi teng qismlarga bo'linadi. So'ng aylananing har qanday oqimi ixtiyoriy tanlanadi (4 va 5-rasmlar).



4-rasm. Doirani to'ldirish usuli




5-rasm. Doirani to'ldirish usuli

Turli shakllarni to'ldirish usuli; geometrik shakllarni to'ldirish texnologiyasini yaxshiroq tushunish uchun "Bantik" va "Narvon" shaklini to'ldirishni o'rganib chiqish kerak bo'ladi.

Kompozitsiyalani yaratish uchun faqat burchaklar va doiralar yetarli emas, shuning uchun eng ko'p uchraydigan shakllarni tikishni ham o'rghanish kerak bo'ladi (6-rasm). Ovalsimon, spiralsimon, to'rtburchak va boshqa shakllar doirani to'ldirish qoidalari bilan bir xil tartibda amalga oshiriladi. Murakkab tuzilishga ega bo'lgan mahsulotlar uchun doiralar va ovallardan foydalilanildi.





**6-rasm. Tuli xildagi sovg'a uchun giloflar hamda panolardan na'munalar**

Dekorativ ta'sirni kuchaytirish maqsadida atrofni yoki yopiq konturni bir necha bosqichda, har bir choc uchun ipni turli xil uzunliklarda o'tkazish mumkin. Spiralsimon usuli; bu usulda ish jarayoni burilish nuqtasidan boshlanadi. Tikish uzunligi 1-2-dan 3-4-nuqtalar orasida tanlanadi. Spiral so'nggi nuqtagacha har doim bir yo'nalishda harakat qilish bilan to'ldirilib boriladi.

Ovalsimon usul; ish jarayoni ovalsimon shaklning birinchi nuqtasidan boshlanib, yana o'sha yeridan tugallanadi. Ikki nuqta orasidagi masofani bir xil taminlash lozim, bu ko'proq bargning pastki qismiga tegishli hisoblanadi. Bargdan tashqari, kurtaklar, gullarni to'ldirish zarur bo'lganda ucburchaklarni to'ldirish usulidan ham foydalanish mumkin.

Shunday qilib izonit-ip grafikasini har xil usullaridan foydalanish bilan o'quvchilarni ijodkorlik qobiliyatlarini shakillantirishga erishamiz. O'quvchilarni texnologiya mashg'ulotlarida shu usullardan foydalanib turli naqsh elementlaridan qiziqarli, chiroyli dekorativ pannolar, naturmortlar, tabiat manzaralari, kitob uchun xatcho'p, kitob g'iloflari, qutichalar bezagi, sovg'a uchun esdalik kompozitsiyalar yaratish imkonini beradi. Tikish texnikasi murakkab tuyulsada aslida har bir bosqichning amalga oshirilishi judda oddiy, tikish jarayonida o'quvchilar diqqatini oshirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. G.A. Branitskogo «Kartiny iz tsvetnykh nitok i gvozdey» 1995 godu.
2. Nagibinoy M.I. «CHudesa iz tkani svoimi rukami» (Yaroslavl, «Akademiya razvitiya», 1997 g.)
3. G. A. Branitskiy, Jivye kartiny, Baro-Press, 2003.
4. G. A. Branitskiy, Nauka i zhizn, 2004, № 12, 116.
5. U.Yu.Talipova."Izonit yoki iplar grafikasi" nomli dars ishlanmasi 2022y.
- . O'.O.Tohirov va boshqalar. "Texnologiya" umumiy o'rta ta'lif maktabi 8-sinf uchun darslik.2020y.



KASHTACHILIK SAN'ATINI O'QUVCHILARGA O'RGATISH  
TEHNOLOGIYASI

*NamDPI, Texnologik ta'lif yo'nalishi talabasi*

*Adashaliyeva Zarnigor Sobirjon qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda milliy qadriyatlarimizni tiklash, san'atni qadrlash, o'zbek amaliy bezak san'atida o'zbekonalikni targ'ib qilish, liboslarimiz va sarpolarimizda milliy bezaklardan foydalanish haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Milliy hunarmandchilik, xalq hunarmandchiligi,, kashtado'zlik, kashtado'zlik san'ati, amaliy bezak, hunarmandchilik, dekorativ kashtalar,

O'rta Osiyoda, ayniqsa, o'zbek, turkman, tojik, ayollari o'rtasida gazlamaga ishlov berish bo'yicha xalq hunarmandchiligi keng tarqalgan bo'lib, uning zardo'zlik, ilmado'zlik, yo'rmado'zlik, zamindo'zlik kashtachilik va so'zanalik, gilamchilik va boshqa sohalari rivojlangan. Honadonlardagi har bir qiz bolalarga tikish bichish, ya'ni kashta alohida o'rgatilgan, har bir qiz buni bilishi lozim bo'lgan. Qizlar tug'ilganda onalari tomonidan qizlariga bisot tayyorlash kerak bo'lgani uchun, qizlar o'z sarpolarini o'z qo'llari bilan tayyorlaganlar. Ular kiyimlar, so'zanalar, kirpech, dorpech, choyshab, choynak yopgich va turli hildagi uy ro'zg'or buyumlarini bezashda turli joylarida dekorativ kashtalarda bir necha choc turlaridan foydalanilgan. Masalan, Nurota, Buxoro, Samarqandda gazlamaga ishlov berish bo'yicha xalq hunarmandchilik mahsulotlari ko'proq yo'rma choc bilan, Shahrisabzda yo'rma kandaxayol, iroqi, Toshkentda esa ko'proq bosma choc bilan tikilgan.




1-rasm.Kashtadan namuna

yetdi.

XX asrning boshlarida kelib mashinalashtirilgan ishlab chiqarish keng yo'lga qoyilishi 43 nomdag'i hunarmandchilik mahsulotlarining turi, tarkibi va ishlab chiqarish



hajmi keskin kamaydi. 20 asr oxiri va 21 asr boshlariga kelib yirik sanoatlasjgan ishlab chiqarish qaror topgan bo'lsada, hunarmandchilikning mavqeい saqlanib qoldi (1-rasm.).



**2-rasm.Kashta tikish jarayoni**

milliy liboslarimizda ham ko'p uchraydi, ayniqsa, kelinlik liboslarini busiz tasavvur qilish qiyin. Uy ro'zg'or buyumlarimizda ham kashtaning turli turlarini uchratamiz. Kashtalarda, asosan, kelinlik liboslarida anor va olma tasviri, yostiq, joynamoz, choynak yopgich va belbog'lارимизда o'smiliksimon tasvirlar, shox, gulband, guldastalar ko'p uchraydi (2-rasm).

Kashta folscha – chizilgan, tortilgan degan ma'nolarni anglatib, amaliy san'atning keng tarqalgan turi hisoblanadi. Ilma kashta, kashta turlaridan biri bo'lib, asosan, matolarga, chit,surp, shoyi, baxmal, bo'z, satinka tikiladi.

Unda o'smiliksimon shakllar, naqshlar, ramziy ma'nodagi meva va hayvon tasvirlari, yozuvlar, kishilarning qiyofalari, obidalar, gul tasvirlari tushiriladi. Avvalo matoga gul, tasvir, naqsh tushirib, uni o'zining ish quroli bo'lgan chambarakka mahkamlanadi, kashta tikiladigan

Kashtado'zlikning ko'plab turlari mavjud bo'lib, o'zbek kashtado'zligida do'ppi alohida ahamiyatga ega, Shahrisabzning gilam do'ppisi, Buxoroning zar do'ppisi, Namanganning chust, iroqi, duxoba va boshqa do'ppilari O'rta Osiyoda xalqlari orasida keng tarqalgan, bular orasida eng mashhuri chust do'ppisi hisoblanadi. Bundan tashqari kashtachilik



**3-rasm.Kerakli asboblar**



**4-rasm.Maxsus igna va iplar**



**5-rasm. Kashta tikish jarayon**



gazlamani chambarakka tortishda uning kichik gardishini qo'yilib, gazlamani rostlab katta gardishni uning ustiga qo'yib, mahkamlanadi va gazlama tarang tortib qo'yiladi, chambarak, gazlamani tortib reja qilgan tasvirni tikish jarayonida mato siljib ketmasligi uchun kerak bo'ladi. Chambaraklar asosan yog'ochdan yasaladi, u doira, kvadrat, to'gri to'rtburchak, shaklida bo'ladi. Chambaraklarni matoning kengligi, tasvirning hajmiga qarab tanlanadi.

Kashtachilikda ip va igna kashta tikiladigan matoning qalinligiga mos qilib tanlanadi. Baxmal kashtaning maxsus iignalari mavjud bo'lib, ular 20, 11, 10 va h.k raqamli bo'ladi. Chambarak matoga qarab tanlangani kabi, igna va ip ham matoga moslanadi, igna uzunligi, kashta iplari tasvirning yaqqolroq namoyon bo'lishiga yordam beradi (4-rasm), Ip qalinligi igna o'lchoviga qarab tanlanadi va ipni uzmagan holda ignadan o'tkaziladi, igna matoga chizilgan chizma bo'ylab sanchiladi, ip izlarini qoladi va shu tarzda davom etiladi.

Kashta tikilayotganda buyum qulay joyga o'rnatiladi, yirik buyumlar, so'zana, palak, choyshab va boshqalar bir nechta taxtaga ajratilib, kashta tikilgach, qaytib birlashtirib tikiladi. Tayyor bo'lgan buyum chambarakdan bo'shatiladi, keraksiz iplardan tozalanadi. Gazlamaga ishlov beriladi, ya'ni qirg'oqlari tikiladi. Xulosa shuki umumta'lim maktab o'quvchilariga texnologiya mashg'ulotlarida xalq hunarmaddchiliklagini, milliy qadriyatlarimizni, san'atni qadrlash, o'zbek amaliy bezak san'atida o'zbekonalikni targ'ib qilish, liboslarimiz va sarpolarimizda milliy bezaklardan foydalanishni o'rgatish bilan birga, baxmal kashta turini mukammal o'rganish uchun xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'.Toxirov va boshqalar. Texnologiya. Umumiyo o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilari uchun darslik. Toshkent. 2019 yil
2. Z.Sattorova va boshqalar. Texnologiya. Umumiyo o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf o'quvchilari uchun darslik. Toshkent. 2019 yil
3. A.M.Matkarmov. Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash. O'quv qo'llanma. «Usmon Nosir media» Namangan – 2022



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLLARGA INGILIZ TILINI O'RGATISH  
METODLARI.

Mirhaydarova Zulfizar

Farg'onan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** So'nggi bir necha yil ichida chet tilini o'rganish o'z-o'zini rivojlantirishning bir usuli emas, balki zarurat bo'lib qoldi. Chet tili nafaqat maktablar va universitetlarda, balki ko'plab qo'shimcha maktabgacha ta'lif muassasalarida ham ta'lifning majburiy tarkibiy qismiga aylandi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lif, qiziqarli o'yinlar, aqliy faoliyat, amaliy mashg'ulotlar, multfilmlar, topishmoqlar topish, ko'rgazmali qurollardan foydalanish.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizda chet tillarini o'rganishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Chet tillarni o'rganishni yanada rivojlantirish maqsadida muhtaram prezidentimiz ko'plab qarorlar qabul qildilar, "Maktabgacha ta'lif tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori va shu bilan birga "Maktabgacha ta'lif tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" tasdiqlandi. Bu qarorlarda maktabgacha ta'lif tizimi tarmog'ini yanada rivojlantirish, bollarni o'qitishning zamonaviy hamda samarali metodikalaridan foydalanish va maktabgacha ta'lif muassasalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni muktab ta'limga tayyorlash kabi masalalar aks etgan. Bugungi kunda ta'lif sohasini yanada rivojlantirish hukumatimiz diqqat e'tiborida turgan dolzarb sohalardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bilamizki, bolalar qiziquvchan, shu sababli kichik yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda asosan o'yin, rasmlar, qo'shiq va she'rlardan, multfillardan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Chunki ulardag'i asosiy tushuncha miyasida rasmi holda tasvirlanadi. Bu esa o'z navbatida bizdan barcha o'rgatiladigan narsalarni shunga ko'ra tasvirlashni talab etadi. Maktabgacha ta'lifda hamda boshlang'ich sinflarda ta'lif olayotgan bolalarning psixikasi qizqish va yoqtirish kategoriyasiga asoslangan. Yosh bolalar tabiatan yorqin va chiroyli narsalarga juda ham qiziqishadi va ko'p e'tibor berishadi. Shuning uchun ustoz va murabbiylar ko'proq o'yin metodlaridan foydalanishi samarali usul hisoblanadi.

Chet tilni o'rganish uchun erta yosh afzalroq bo'lishining yana bir sababi bor. Bola qancha yosh bo'lsa, shuncha kamroq bo'ladi. So'z boyligi yilda mahalliy til, ammo shu bilan birga uning nutqiga bo'lgan ehtiyojlari ham kam: kichik bolada aloqa sohalari katta yoshdagilarga qaraganda kamroq, u hali murakkab aloqa muammolarini hal qilishi shart emas. Bu shuni anglatadiki, u chet tilini o'zlashtirganda, ona va chet



tillaridagi imkoniyatlar orasidagi bunday katta farqni sezmaydi va uning muvaffaqiyat hissi kattaroq bolalarnikiga qaraganda yorqinroq bo'ladi. Bolalarni o'qitish - bu maktab o'quvchilari va kattalarga qaraganda mutlaqo boshqacha uslubiy yondashuvni talab qiladigan juda qiyin masala. Agar kattalar chet tilida gaplashsa, bu uning boshqalarga o'rgatishi mumkin degani emas. Uslubiy jihatdan nochor darslarga duch kelganda, bolalar uzoq vaqt davomida chet tilidan nafratlanishlari va o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchlarini yo'qotishlari mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan faqat tajribali mutaxassislar ishlashi kerak.

Maktabgacha yoshda, ingliz tilini o'qitishda, bolalar asta-sekin kommunikativ kompetentsiya asoslarini rivojlantiradilar, bu ingliz tilini o'rganishning dastlabki bosqichida quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- fonetik nuqtai nazardan to'g'ri takrorlash qobiliyati inglizcha so'zlar o'qituvchi, ona tili yoki ma'ruzachining orqasida, ya'ni eshitish diqqatini, fonetik eshitish va to'g'ri talaffuzni bosqichma-bosqich shakllantirish;
- inglizcha so'z boyligini o'zlashtirish, birlashtirish va faollashtirish;
- ma'lum miqdordagi sodda grammatik tuzilmalarni o'zlashtirish, izchil bayon tuzish.

Biz yashayotgan hozirgi zamonaviy hayotimizda nafaqat maktab, litsey, kollej o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalariga, balki maktabgacha ta'lif muassasalari tarbiyalanuvchilari va turli sohada ishlovchi xodimlarga ham chet tilini, xususan, ingliz tilini o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Sababi iqtisodiy, fan va madaniy jihatdan rivojlangan davlatlarning tillarini o'rganish jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omilidir. Chet tillar o'qitish metodikasining atoqli namoyandalaridan Garvard universiteti professori Uilga M. Rivers fikricha, savodli bo'lish — o'qish va yozuvni bilish, degan ma'noni anglatadi.[1] Wilga M. Rivers. Teaching Foreign-Language Skills. 2nd ed. — Chicago and London: The University of Chicago Press, 1981, p]. Til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liqdir. Olimlar va psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Shuni e'tiborga olish kerakki, 6–7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik mavzulani o'rganishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki bosqichdayoq qiziqishini so'ndirib qo'yish mumkin. Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va mas'uliyatlari vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning keljakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib



xizmat qilishi mumkin. Til o‘rganish kishilik jamiyatida bag‘oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo‘lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o‘rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillami bilish, ayniqsa, ko‘p tillilik (poliglossiya) ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 - yil 30 - sentabrdagi "Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g’risida " gi PQ - 3955 - sonli qarori .
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil 8 - maydagi " O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’riida " gi PQ - 4312 - sonli qarori
- 3.Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent., 2012: – 4 -bet.
- 4.Wilga M. Rivers. Teaching Foreign-Language Skills. 2nd ed. —Chicago and London: The University of Chicago Press, 1981, p.291.
- 5.Д. Д. Джалалов, Г. И. Стравчинская. Книга для учителя к учебнику английского языка для VI класса узбекской школы. — Ташкент: Укитувчи, 1973 (va keyingi nashrlari). — 23—27-betlar.





## ZULFIYA SHE'RIYATIDA BADIY OLAM TALQINI

Nishonova O'g'iloy

### Farg'onan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shoira Zulfiyaning poetik timsol yaratish mahorati she'rlari tahlili orqali oydinlashtiriladi. Zulfiya she'rlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, she'rlarining ruhi va ohangini, mazmuni va yo'nalishini, avj pardasini, maqsad, g'oya va ideallarini umuminsoniy fikr va tuyg'ular belgilaydi.

**Kalit so'zlar:** qahramon tabiat, obrazlar olami, poetik timsol, she'rlar ruhi va ohangi, sevgi va hijron.

Zulfiya ijodi, u yaratgan poetik asarlar hozirgi o'zbek she'riyatida muayyan ahamiyatga molikdir. Shoira Zulfiya ijodida xotin-qizlar mavzusining ko'p jihatlari teran yoritilishi, sevgi va hijron motivlarining haqqoniy badiiy tadqiq etilishi, tinchlik, xalqlar do'stligi g'oyalarining ancha tasirchan tarannum etilishi tahsinga sazovor. Ma'lumki, Zulfiya tomonidan yaratilgan asarlarida realistik tasvir tamoyillari kuchayganligi hamda poetik obrazlar olami kengayganligini ko'rsatadi. O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolaridan biri san'atkorning o'ziga xos, betakror badiiy olamini o'rganish bo'lib, bu masalaning teran atroflicha tadqiq qilinishi yozuvchining individual mahoratini ko'rsatishga, uning adabiyotimiz taraqqiyotidagi o'rmini belgilashga xizmat qiladi. Zulfiyaning poetik fikrlash tarzini jiddiy o'rganish, uning asarlaridagi obraz va obrazlilikning tabiatni, xarakterini yana ham to'laroq ochish o'zbek she'riyatidagi katta bir turkum asarlar mohiyatini tushunishga imkon beradi.

E'tibor berilsa, XX asr o'zbek poeziyasida jahon she'riy maktablarining o'rni va ta'siri beqiyos. Bular adabiy aloqalarning mustahkamlanishida yorqin namoyon bo'lgan. Shoira go'zal hayotning muayyan tomonini badiiy tadqiq qilar ekan, u asosiy e'tiborini inson qalbida kechayotgan ziddiyatlar, tuyg'ular tovlanishini ifodalashga qaratadi. U inson ruhiy olamini rang-barang ko'rinish vaziyatlarda badiiy tadqiq etib, shu orqali uning yaratuvchilik, bunyodkorlik hamda borliqdagi barcha sodir bo'lgan, bo'layotgan voqealarga mas'uliyat hissini oshirishga intiladi. Shu jihatlari bilan shoira Zulfiya H.Olimjon she'rlaridagi ba'zi poetik ifodalarni lirik tasvir yo'nalishiga singdirib yuboradi: Kecha jimjit: ko'p go'zal kecha, Qaraysanu suqing kiradi. Yonadi gul, jilmayar g'uncha, Ellar g'ir-g'ir esib turadi. Tabiat go'zalliklaridan behad chuqur hayajonga tushush, o'z tuyg'ularini tabiatdagi tovlanishlar surati orqali berish Zulfiya ijodiga xos xususiyatlardan biridir. Shoiraning hayot haqidagi falsafiy fikrlari lirik kechinma yo'nalishi hamda tabiat tasviri bilan hamohang teranlashib, tiniqlashib boradi. Fikr bilan tuyg'u uyg'unligi inson umrining abadiylikka daxldorligi mohiyatini ochadi: Hijroning qalbimda, sozing qo'limda, Hayotni kuylayman, chekinar alamyu



Tunlar tushumdasan, kunduz yodimda, Men hayot ekanman, hayotsan sen ham. Zulfiya mahoratidagi bunday o‘ziga xoslik uning tasvir ob’ektini yangicha badiiy tadqiq etishi, u haqida yangicha fikrlashga intilishi natijasidir. Shuning uchun ham Zulfiya an’anaviy obrazlar qa’ridan yangi-yangi ma’nolar izdaydi. Shoira Zulfiya ijodining poetik olami va estetik qarashlari ham mazkur jarayonning bir halqasini tashkil etadi. Negaki, ijodkor o‘z davrining komil farzandi. O‘zi yashab turgan ijodiy muhit suvratidan estetik qarashlari shakllanadi. Ustozlari boshlab bergen salmoqli ishlar, keyingi avlod nazaridan izsiz o’tmaydi.

Shoira Zulfiya “Salom tansiq bahor” she’rida bahor mavzusiga bag‘ishlangan she’rida o‘z lirik qahramonining ma’naviy dunyosini tabiat manzaralari tasviri poetik timsollar orqali kengroq yoritib bera olgan: Yana ko‘k tubida sayraydi qushlar, Yana erda ko‘hna yam-yashid ko‘rpa. Yana tandan ketdi mudrashu tushlar, Yana yoshday dilda o‘ylar ming turfa. Gar ibora qadim, qofiya siyqa, Ajdod o‘lmasligin haqiqati bu. Bahor deding – birdan olam antiqa, Va senda eng yolqin, tiniq bu tuyg‘u<sup>5</sup>. Inson qalbi va tabiat tovlanishlarining ma’nosи nozik kuzatishlar va teran falsafiy umumlashmalar uchun katta imkoniyat yaratadi. Bahor timsolida shoira lirik qahramon tabiat husnini, hayot go‘zalligini, tinchlik, osoyishtalikni, insonlarning quvonchini, orzuqtilishlarini ko‘radi. Ayni chog‘da bahor insonning qalb manzaralarini ko‘rish va kuzatish uchun ham vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, shoira Zulfiya ijodida ayolga extirom, onaga muhabbat mavzusi alohida o‘ringa ega. Zulfiya ijodining turli davrlarida bu mavzuga qayta-qayta murojaat etgan. Natijada shoiraning “Ona”, “Ona ko‘ksi”, “Mening mehribon onaginam”, “Ona ko‘ksi” singari she’rlari vujudga kelgan.

### Shoiraning:

Onam! sening issiq, aziz joningni,  
Zarradek chog‘imdan boshlab bilaman.  
O‘zim zarra-yu, lekin qoningni,  
Yangilab jismingdan o‘zni o‘zganman.  
Sen gul juvon hali mendan bexabar,  
Bulutday go‘daklar tortdi havasing.  
Endi men sen desam qaynoq, muattar,  
Hovrin his qilaman iliq nafasing... 6

Ona va farzand muhabbatini, ayollikning botiniy va zohiriy qiyofasini ochib beruvchi lirik kechinmalar shoira ijodida talaygina.

**Xulosa.** Shoira Zulfiya ham badiiy matn tarkibini (she’rni) satrma-satr mantiqiy tahrirlaydi. Bular poetik obrazning yanada tiniqlashuviga, maromiga etkazilib tasvirlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu rakursdan qaraganda, shoira



lirikasining mavzu-mundarijasini shartli ravishda quyidagi olti tamoyil asosida o'rghanish maqsadga muvofiq:

1. Muhabbat mavzusidagi she'rlar;
2. Vatan mavzusidagi she'rlar;
3. Tabiat va inson munosabatlariga aks ettirilgan she'rlar;
4. Aralash mavzulardagi she'rlar;
5. O'lim mavzusidagi she'rlar;
6. Publitsistik mavzudagi she'rlar.

Shulardan ikkinchi, to'rtinchi va oltinchi tamoyillarda shoira estetik olami, badiiy tafakkuri real mohiyat kasb etgan. Tuyg'ularning toshqin suvrati, alam va hijron, yolg'izlik va mahzunlik kayfiyati poetik obraz darajasiga ko'tarilganida mangulik va yo'qlik chegarasiga aniqlik kiritiladi. SHuningdek, ta'sirdorlik, musiqiylik muhabbat manzumalarida ham o'ziga xos betakrorlikni yuzaga chiqaradi. Buni "Adabiy o'ylar" kitobida ham komil ishonch bilan tahlillaydi: "Har bir she'rimni yozayotganimda, uning o'tli tuyg'ulari bilan yashayotganimda, "Men shoirman", deb o'ylayman. Biror joyda chop etilgandan so'ng esa "Qachon shoir bo'larkinman?" degan xayol dilimdan kechadi. Chunki men chop etilgan she'rlarimda qalbimdag'i quvonch, dard, hayajonlarning suratini ko'rganday bo'laman, har gal ularga nimadir etmayotganday, nimasidir asliga o'xshamayotganday tuyulaveradi..." . Haqiqatan ham, shoira Zulfiyaning yuqoridaq talqinlarida yosh ijodkorga ibratli mulohazalar ilgari suriladi. O'z qalbidagi orzu-umidlarini ro'y-rost ishonch bilan aytish uchun ijodkordan juda katta jasorat talab qilinadi. O'z iste'dodining qudratli va zaif tomonlarini vaqtida payqay olish ham har kimning ilkidan keladigan ish emas, albatta.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov N.Zulfiya. Ma'rifiy biografik asar. – T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
2. Umurova G. (2014). SHoira Zulfiyaning badiiy olami. Monografiya. - Toshkent, "Navro'z", 156 b.
3. Umurova G. (2018). Zulfiya lirkasida tuyg'ular tadriji // Xorijiy filologiya. – Samarqand, 4(4), B.83-88.
4. Umurova G. (2017). Zulfiya badiiy mahoratining ba'zi qirralari //O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 5(5), B.85-90.
5. Zulfiya. Adabiy o'ylar. – Toshkent: "Fan", 1985



TURLI TIZIMDAGI TILLARDA LINGVOKULTUROLIK BIRLIKLER  
TADQIQI.

Muhammadjonova Muslimaxon

Farg‘ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** Lingvomadaniyning qiziqish doirasiga ramziy ma’noga ega bo’lgan va madaniy ma’lumotlarni aks ettiruvchi har qanday til birliklari (frazeologik birliklar, metaforalar, maqollar va boshqalar) kiradi. Til madaniyatlarining milliy o‘ziga xosligini o‘rganish samaradorligi uchun ularga butun lingvomadaniy makonni shartli ravishda “ma’nolar nurlari” - tushunchalarga ajratuvchi kontseptsiya sohasi prizmasi orqali qarash mumkin. kontseptsiya nazariyasi, lingvomadaniy doirasida faoliyat ko’rsatib, voqelikni etnik-madaniy idrok etish xususiyatlarini aniqlash uchun ko’p darajali til birliklarini birlashtirishga imkon beradi. Ushbu maqolaning dolzarbliyi va yangiligi lingvokulturologiyaning bir qator asosiy toifalarini va ularning asosiy xususiyatlarini taqdim etish va tahlil qilishga urinish bilan belgilanadi.

**Kalit so‘zlar:** lingvomadaniy birlik, xalq mentaliteti, madaniyat fenomeni, madaniy omil, madaniy qadriyat, qiyosiy lingvomadaniyat, kognitiv lingvistika, etnolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik

Bizga ma’lumki tilni o‘rganish uzoq muddat davom etadigan jarayon hisoblanadi va bundan tashqari tilni mukammal o‘rganish ikki yoki undan ortiq tillarni bevosita tahlil qilib o‘rganish orqali amalga oshadi. Tillarni qiyosiy tahlil qilish, ularni chuqr o‘rganish yangi tahlil obyektlarini ochadi. Tilshunoslikning asosiy obyekti bu – til. Darhaqiqat, umumiyl jihatdan oladigan bo’lsak, til vositasida axborot almashinushi, o’zaro hamkorlik, kommunikatsiya yuzaga keladi. Ilm-fan, texnikaning gurkirab rivojlanishi va ilmiy-texnik axborotning kengayishi munosabati bilan tilshunoslik va tarjimaning amaliy ahamiyati ham oshib bormoqda. Albatta shuni ta’kidlab o’tishimiz lozimki, bugungi kunda ham tilshunosligimiz qanchalik rivojlangan bo’lmashin, o’zbek tili, ingliz tili nazariy va amaliy grammatikasi, ingliz va o’zbek tillari qiyosiy grammatikalarining yetishmasligi kabilar inobatga olinib, ularga bo’lgan ehtiyoj bugungi kunda tilshunos olimlar oldiga mavjud muammolarning yechimini topishdek muhim vazifalarni qo’ymoqda, Xorijiy tillarni, jumladan ingliz tilini har tomonlama chuqr o‘rganish, ayniqlsa, bu tilni o’zbek tili bilan qiyosiy tavsiflash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Tillarni qiyosiy o‘rganish orqali yangi tilshunoslik yo’nalishlari ochilmoqda. Bundan tashqari barcha tillarda gap qurilmasining an’anaviy sintaktik tahlili bugungi kunda tilshunoslikning eskirgan tadqiqot yo’nalishi sifatida qaralmoqda.



Madaniy tilshunoslik XX asrning 90-yillarida shakllangan yosh, jadal rivojlanayotgan tilshunoslik fanidir. Yangi fanning o'rganish sohasi dunyoning lingvistik va konseptual rasmlari, shuningdek, milliy til madaniyatlari g'oyalarida o'z ifodasini topgan til-madaniyaga aylandi. Inson madaniy muhitga ramziy tarzda singib ketadi, lisoniy material esa madaniyatning haqiqiy posboni sifatida e'tirof etiladi. Madaniyatlararo muloqot muammosini milliy ongning muloqoti muammosi sifatida zamonaviy talqin qilish V. fon Gumboldtning klassik g'oyasiga borib taqaladi: «Turli tillar bir xil narsaning har xil belgilari emas, balki turli xil qarashlardir. Undan, ...har bir tilning o'ziga xos dunyoqarashi bor». Madaniyat orqali til lingvomadaniyatlarni o'z tashuvchilari ongiga olib keladi; bu vektor (til ^ madaniyat ^ ong) lingvokulturologiya va antropologik tilshunoslikning boshqa sohalari (kognitiv lingvistika, etnolingvistika, lingvomadaniyatshunoslilik va boshqalar) o'rtasidagi tub farq sifatida ko'riladi. Lingvomadaniyatda qanday madaniy ekanligi ko'rib chiqadigan bo'lsak, ma'nolar tilda "tarqalgan", ya'ni madaniy birliklarning leksiklashuv usullari. Lingvomadaniyatning asosiy ob'ekti til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarning ayrim turlari sifatida lingvomadaniyatlar deb qaralishi kerak. Tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqqan holda, lingvomadaniyatni milliy tilda yaratilgan va etnomadaniyat va o'z-o'zini anglashni modellashtiruvchi matnli asarlar yig'indisi sifatida ko'rish mumkin. Boshqa tomondan, lingvomadaniyatni tilda ob'ektivlashtirilgan va "o'qilishi mumkin bo'lgan" hodisalar va madaniyat mahsulotlari to'plami sifatida tushunish mumkin. Lingvomadaniy tahlil yo butun lingvomadaniyat sifatida, yoki uning bir parchasi - semantik izolyatsiyaga ega bo'lgan ma'lum bir lingvomadaniy tipdagi alohida lingvomadaniy soha sifatida amalga oshiriladi. Lingvomadaniyatning bevosita predmeti lingvomadaniyatning bir qismi yoki lingvomadaniy soha bo'lishi mumkin. Lingvomadaniyatning qiziqish doirasiga ramziy ma'noga ega bo'lgan va madaniy ma'lumotlarni aks ettiruvchi har qanday til birliklari (frazeologik birliklar, metaforalar, maqollar va boshqalar) kiradi. Til madaniyatlarining milliy o'ziga xosligini o'rganish samaradorligi uchun ularga butun lingvomadaniy makonni shartli ravishda "ma'nolar nurlari" - tushunchalarga ajratuvchi kontseptsiya sohasi prizmasi orqali qarash mumkin.

Lingvomadaniy birliklar dastlab bitta semiotik tizimga - tilga tegishli bo'lmasligi, balki madaniyatning turli bo'limlarida: afsonalar, marosimlar, marosimlar, xurofotlar, stereotiplar, nutq xatti-harakatlarida va hokazolarda mujassam bo'lishi juda muhimdir. terminologik tizim, bu uning ikkita tarkibiy fanlari - tilshunoslik va madaniyatshunoslilik yig'indisi natijasi bo'lmaydi. Shuni e'tirof etish kerakki, tilshunoslarning terminologiya holati haqidagi umumiylashvishi lingvokulturologiyani ham chetlab o'tmadi: uning kategoriyaviy apparatini tartibga solish va evolyutsiya



qilish hali tugallanmagan. Asosiy tushunchalar ro'yxati va ularning sinonimiyasining nisbiy noaniqligining sababi, bizning fikrimizcha, qisman tadqiqot predmetining noaniqligidadir, chunki, yuqorida aytib o'tilganidek. lingvokulturoglarning diqqat-e'tibori ob'ekti - madaniy jihatdan belgilangan lingvistik birliklar. Shu munosabat bilan shuni ta'kidlash kerakki, til birliklarining madaniy belgilarini belgilash mezonlarini, afsuski, aniqlash qiyin, chunki deyarli har qanday til birligi madaniy ahamiyatga ega ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, uni amalga oshirishning turli usullari mavjud. Va shunga qaramay, leksemalarning semantik mazmuni va ularning kontekst aloqalarini tahlil qilib, madaniy ma'nolar haqida maksimal ma'lumot olishimiz mumkin.

Turli madaniyat vakillari o'rtasida samarali muloqotni ta'minlash uchun til to'sig'ini bartaraf etish etarli emas. Milliy o'ziga xos rangga ega bo'lgan madaniyat tarkibiy qismlariga kamida quyidagilar kiradi: an'analar (yoki madaniyatning barqaror elementlari), shuningdek urf-odatlar (madaniyatning "ijtimoiy-me'yoriy" sohasidagi an'analar sifatida belgilanadi) va marosimlar (bajarish). Ushbu tizimdagi dominant bilan ongsiz ravishda tanishish funksiysi tartibga solish talablari); an'analar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan kundalik madaniyat, buning natijasida uni ko'pincha an'anaviy-kundalik madaniyat deb atashadi; kundalik xatti-harakatlar (ma'lum bir madaniyat vakillarining odatlari, ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan muloqot normalari), shuningdek, u bilan bog'liq bo'lgan mimik va pantomimik (kinesik) kodlar, ma'lum bir lingvomadaniy hamjamiyatning tashuvchilari tomonidan qo'llaniladi; Atrofdagi dunyoni idrok etishning o'ziga xos xususiyatlarini, ma'lum bir madaniyat vakillarining tafakkurining milliy xususiyatlarini aks ettiruvchi "dunyoning milliy rasmlari"; muayyan etnik guruhning madaniy an'analarini aks ettiruvchi badiiy madaniyat. Milliy til va madaniyat sohibining ham o'ziga xos xususiyatlari bor. Madaniyatlararo muloqotda kommunikantlarning milliy xarakterining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak. ularning emotsiional qiyofasining haykalchasi, tafakkurning milliy-o'ziga xos xususiyatlari». Ilmiy paradigmalarning o'zgarishi kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, etnopsixolingvistika, lingvokulturologiya kabi yangi tilshunoslik fanlarining rivojlanishi bilan bog'liq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mahmudov N. - Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti.-Toshkent, 2012.-№5.-B. 3-16.
2. Ahmedova Odinaxon Abdullajon qizi. "Lingvokulturologiya tilning madaniy fenomeni sifatida". Xorijiy filologiya til • adabiyot • ta'lim ilmiy-uslubiy jurnalı. 2019. -102-104.



3. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya: semanticheskiy, pragmatischeskiy i lingvokulturologicheskiy aspekti. - M.: Shkola "Yaziki russkoy kulturi", 1196- S.222.
4. Карибаева Банура Единицы изучения в лингвокультурологии
5. Антипов Г.А., Донских О.А., Морковина И.Ю., Сорокин Ю.А. Текст как явление культуры. - Новосибирск, 1989. - 196 с.
6. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - М.: Языки русской культуры, 1996. - 228



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA CHET TILIGA BO'LGAN  
QIZIQISHNI O'YINLAR YORDAMIDA O'SТИRISH.

G'ulomjonova Ma'sumaxon G'ayratjon qizi

Farg'onan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish usullari yozilgan bo'lib, hozirda ingliz tili dunyo tili bo'lib bormoqda. Shu bois uni maktabgacha ya'ni bog'cha yoshidan boshlash kerak. Maqola shu haqida ma'lumot beradi.

**Kalit so'zlar:** chet tili, so'zlar, atmosfera, qoida, qo'shiq, multfilm, aqliy, metodika, nutq, o'yinlar, qiziqarli tarqatma materiallar.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizda chet tillarini o'rganishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Chet tillarni o'rganishni yanada rivojlantirish maqsadida muhtaram prezidentimiz ko'plab qarorlar qabul qildilar, "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori va shu bilan birga "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" tasdiqlandi. Bu qarorlarda maktabgacha ta'lim tizimi tarmog'ini yanada rivojlantirish, bolalarni o'qitishning zamonaviy hamda samarali metodikalaridan foydalanish va maktabgacha ta'lim muassasalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash kabi masalalar aks etgan. Bugungi kunda ta'lim sohasini yanada rivojlantirish hukumatimiz diqqat e'tiborida turgan dolzarb sohalardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi.

So'nggi bir necha yil ichida chet tilini o'rganish o'z-o'zini rivojlantirishning bir usuli emas, balki zarurat bo'lib qoldi. Chet tili nafaqat maktablar va universitetlarda, balki ko'plab qo'shimcha maktabgacha ta'lim muassasalarida ham ta'limning majburiy tarkibiy qismiga aylandi. Jamiyatda chet tiliga bo'lgan talab, bir tomonidan, shuningdek, ota-onalar tomonidan til nafaqat zamonaviy insonni tarbiyalashning omili, balki uning jamiyatdagи ijtimoiy va moddiy farovonligining asosi ekanligini tushunishi, boshqa tomonidan, bu lahza chet tilini erta o'rganishni, ayniqsa, mashhur va dolzarb qilish. Agar 20 yil oldin tilni bilish faqat ba'zi sohalar ishlarida talab qilinadigan bo'lsa, endi kamida bittasini o'zlashtirish kerak edi. Chet tilini o'qitishning asosiy muammosi talabaning yoshi. Ma'lumki, bolalar o'rganish uchun qulayroqdir. Yaqin vaqtgacha o'qitish metodikasi bolalarga qaratilgan edi. Endi ota-onalar chet tilini o'rganishni iloji boricha erta boshlashga intilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tiliga o'rgatishning asosiy maqsadlari:

- bolalarda chet tilida boshlang'ich muloqot qobiliyatlarini shakllantirish;



- o'z maqsadlariga erishish, hayotiy aloqa sharoitida fikr va hissiyotlarini ifoda etish uchun chet tilidan foydalanish qobiliyati;
- chet tillarini yanada o'rganishga ijobiy munosabat yaratish;
- boshqa mamlakatlar hayoti va madaniyatiga qiziqishni uyg'otish. Maktabgacha yoshi, ayniqsa, chet tilini o'rganishni boshlash uchun juda qulaydir. Bu yoshdagagi bolalar til hodisalariga nisbatan sezgirligi bilan ajralib turadi, Ular o'zlarining nutq tajribalarini, tilning "sirlarini" tushunishga qiziqishadi.

Bolalarga e'tibor bilan ularni qiziqishlarini aniqlovchi testlar, rasmiy testlar har xil savollar bilan aniqlab olishimiz zarur. Har bir bola bilan gaplashib, qiziqishlarini aniqlab bo'lgach ularga mos qo'shiqlar, o'yinlar, diqqatni jalb qiluvchi qiziqarli va rangli, multik qahramonlardan iborat tarqatma materiallar bilan dars boshlanadi. Birinchi navbatda, bolalar bilan salomlashiladi va mavzuni tushuntirishdan oldin mavzuga oid bolalar bilan kichik suhbatlar olib boriladi, ularni fikrini eshitib, mavzuga oid qo'shiqlar va o'yinlar bilan boshlanadi. Chunki bolalarda mavzuga oid tushuncha paydo qilish va darsni tushunishlari oson va qiziqarli bo'ladi. Sekin astalik bilan qiziqarli tarqatmalarni tarqatib olinadi. Uni ham o'yin orqali tarqatish lozim. Misol uchun, bolalarni sevimli rangi yoki yoqtirgan multik qahramonlarini so'rab tarqatish ham mumkin. Tarqatma materiallarni tarqatib bo'lgach, ularni ko'rib nimalarni tasavvur qilishganini so'rab, sekin-asta mavzuni tushuntiriladi. Kichik yoshdagagi bolalarni diqqati tez bo'linishi mumkin. Tez zerikib qolishmasliklari uchun har xil o'yinlar bilan qiziqtiramiz. Zerikib qolmasliklari uchun o'yinlar turlari:

"Ko'zgu" o'yini - tanlashdan maqsad bolalarni kuzatuvchanligini, diqqatini rivojlantirish.

"Xatosini top" nomli o'yin ham bor. Bu o'yinni tanlashdan maqsad- bola darsni tushunganini aniqlab olish. Misol uchun, bugungi mavzu-sonlarni inglizchada aytishni o'rgatish. Rasmga sonlarni har xil joylashtiriladi va bolalarga ko'rsatiladi va xatosini topishlarini so'raladi. Bolalarga ketma- ketlikda o'rgatilgan bo'lsa, ular ham shu tartibda qaytarishlari kerak. Mavzuni tushunganliklarini qilgan xatolaridan bilib olishimiz mumkin.

Keyingi qiziqarli o'yinlardan biri bu - mavzuyimizda sonlarni o'rgatayotgan bo'lsak, sonlar yozilgan rasmni ko'rsatib, bolalardan qaysi son ekanligini so'raymiz. Bilmagan bolalar o'yindan chiqib yodlagan she'rini yodlab berishadi.

"Ovozli ertak" jarayonida bolalar o'qituvchi bilan birgalikda rasmlarni ko'rib chiqishadi va shu bilan birga so'zlarni talaffuz qilishadi. "Multfilmlar ingliz tilida" - ingliz tilini o'qitishda eng yaxshi yordamchilardan biri. Bolalar multfilmlarni yaxshi ko'radilar va ularni ketma-ket tomosha qilishdan zavqlanadilar. Shuning uchun ingliz



tilidagi multfilmlar bir vaqtning o'zida bolalarga chet tilini o'rgatishning ko'plab muammolarini hal qilishga yordam beradi. • Mavzuga oid muhit; O'qituvchi mavzusiga qarab o'sha muhitni yaratib bera olsa, bolalar tilni yaxshi o'rganishadi. Masalan, travelling, birthday, in the kitchen va boshqalar. Travelling (sayohat) mavzusida o'qituvchi sayohat uyuştirishi, sayohatga qanday vositalar orqali (foot, bicycle, automobile, train, boat, airplane) borish mumkinligi, qayerlarga sayohat qilish (Tashkent, Samarkand, Bukhara, England, USA) muhimligi haqida ma'lumot beradi. Bu usul o'quvchilarning so'z boyligini, til imkoniyatlarini kuchaytiradi, dunyoqarashini o'stiradi. Qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'lмаган harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari, shunchaki, yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin. Aqliy va jismoniy harakatlar bilan bo'g'liq bo'lgan o'yinlar. Multfilmlar; Bolalar til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

Sinf muhitini yaxshilash uchun qo'shiq va harakatli o'yinlardan foydalanish. Moslashuvchan sinf atmosferasini yaratish, ba'zida har qanday ta'lim usulidan ko'ra muhimroqdir. Sinfda dars boshida inglizcha yoqimli qo'shiq bilan o'qituvchi boshchiligidagi barcha bolalar birgalikda qo'shiq kuyladilar va uning ohangiga mos ravishda biroz raqsga tushadilar. Bu o'z-ozidan ularning tanalarini chiniqtirib, yanada tetik bo'lishga va qo'shiqni so'zlarini tezroq yod olishga yordam beradi. Inglizcha muhit, muhimi, yaxshi o'quv atmosferasiga tabiiy ravishda kirishga imkon beradi. Bolalarning o'zini-o'zi boshqarish qobiliyatı sust bo'lib, butun mashg'ulot davomida e'tiborini jamlashi va egallab olishi qiyin. Shuning uchun, o'qituvchi bolalar tinglashni yaxshi ko'radigan qo'shiqlarni, she'rlarni yoki tilni chiniqtirish uchun tez aytishlarni, yoki bo'lmamas bolalar yaxshi ko'radigan animatsion multfilmni taqdim etishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanim dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi darkor. Chunonchi, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobi ham ko'plab xorijiy tillarni mukammal bilgan, bu tillarda bemalol gaplasha olgan hamda shu tillarda ijod qilgan. Bunday imkoniyat allomaning dunyo ilm-fanini o'rganishga, buyuk ishlarni amalga oshirishiga turki bo'lgan. Zero, Navoiy bobomiz aytganlaridek, «Til bilgan - el biladi».



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Astafieva M.D. Ingliz tilini o'rganayotgan bolalar uchun ta'til. - M.: Mozaikasintez, 2009 y.
2. Galskova N.D. Nikitenko Z.N. Chet tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti. boshlang'ich maktab: uslubiy qo'llanma.-M.: Airis-press, 2004.
3. Guseva L.P. Biz o'ynaymiz, o'qitamiz, o'zlashtiramiz - biz ingliz tilini bilishni xohlaymiz. - Rostov n / a: Feniks, 2009 y.
4. Zemchenkova T.V. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ingliz tili. - M.: VAKO, 2008 yil.
5. Ivanova M.V. Bolalar uchun ingliz tili. - M.: AST: Astrel, 2009 y.
6. Trofimova G.S. Chet tillarni o'qitishning pedagogik asoslari (Subaktika didaktikasi). - Izhevsk: Udmurt universiteti nashriyoti, 1999 y.



**ERKIN VOHIDOVNING "NIDO" DOSTONIDA DAVR MUAMMOSI.**

**Avazbekova Dilafruz**

**Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri, publitsist, atoqli olim Erkin Vohidovning ijodining o'ziga xos jihatlari, shoirning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni va "Nido" dostoni tahlili xususida fikr-mulohazalar bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston Qahramoni, millat ruhi, so'z jozibasi, falsafiy qarashlar, samimiylilik, badiiy jasorat, yuksak ma'naviyat, ma'naviy boylik, intim kechinmalar, ulkan xizmati, xalq tili, ijodiy kashfiyotlar, badiiy haqiqatlar.

O'zbekiston xalq shoiri, publitsist, atoqli olim Erkin Vohidovning betakror ijodi XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. O'zbek adabiyoti va madaniyati shoir nomi bilan chambarchas bog'landi. Shoir kamalakdek serjilo, purviqor, purhikmat ijodi bilan xalqimiz qalbiga kirib bordi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil, 25-avgustdagagi Farmoniga binoan millatimiz ma'naviyatining yuksalishida o'ziga xos o'rinn tutgan, O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, islohotlarni chuqurlashtirish, yurtimiz ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti rivojiga qo'shgan salmoqli hissasi, davlatimiz va xalqimiz oldidagi ulkan xizmatlari hamda qahramonona mehnatlari uchun bir nechta yurtdoshlarimiz qatori Erkin Vohidovning ham "O'zbekiston Qahramoni" unvoniga sazovor bo'lgani shoir muxlislarining ko'ngliga mislsiz quvonch baxsh etadi. Xalq o'zi sevgan qahramonlar haqida bilishni, ularni ardoqlab, faxr bilan yodga olishni xush ko'rishadi. Ularning nomlari asrlar o'tsada millat farzandlari qalbida abadiy yashayveradi.

Dostonni muallif Ikkinchchi jahon urushida halok bo'lgan otasiga bag'ishlagan. Xususan, asarda Vohidov otasi yana uch askar bilan dushman hududiga razvedkaga borib, halok bo'lgani haqida so'z yuritadi. Tanqidchilar va o'quvchilar tomonidan yuqori baholangan ushbu doston Vohidovga shuhrat olib keldi. Doston ko'p sonli o'zbek tilidagi adabiyot darsliklaridan o'rinn olgan.

"Nido" dostoni 1964-yilda yozilgan. 1965-yilda "Nido" she'riy to'plami chop etilgan. Dostonga urush va tinchlik masalasi asos qilib olingan. E.Vohidovning ushu liro-epik dostonida harbiy vatanparvarlik, otalar jasorati g'oyasi ilgari surilgan. "Nido" dostoni Ikkinchchi jahon urushi va u olib kelgan kulfatlar, u yetkazgan jarohatlar haqidadir.

Urush,

Noming o'chsin jahonda,

Sen tufayli xonadonda ota nomli buyuk shodlik kam.



Doston avtobiografik xarakterga ega. Asar yigirma yil avval urushda halok bo'lган otasini xotirlayotgan farzandning iztiroblari bilan boshlanadi:

Otajon!

Men axir qutlug' bu so'zni  
Yigirma yil olmadim tilga,  
Yigirma yil saqladim dilda,  
Armonli o'g'lingiz tinglaydi sizni,  
So'ylang eshitaman.

Urush tufayli shoirga bolalik gashti nasib etmagan. Dostondagi barcha voqaea hodisalar qalbi ona sutidan shaffof go'dakning tilidan hikoya qilinadi.

“Ota degan bir shodlikni kam” qilib qo'ydi. Shuning uchun urush lavhalari zamirida bu asar dardli. Shoirning yutug'i shundaki, u dostonda shaxsiy dardni umudardi darajasiga ko'tara olgan.

Nido dostoni o'zbek adabiyotini urushdagi otasidan kelgn xatni o'qib savod chiqargan qahramoni obrazi bilan boyitdi. Unda asosan uch obraz faol ishtirok etadi. Ota, bola, ona asarning bosh qahramoni shoirning o'zi. Urushdagi otasini ikkala ko'zi teng sog'inganini bolalarcha aytayotgan lirik qahramonning ruhiy tasviri”

Rost aytaman,  
Sizni juda sog'indim.  
Sog'indim ikkala ko'zim bilan teng,  
Kelib qolarmishsiz ertami indin,  
Kutaman  
Dadajon albatta keling.

Erkin Vohidov ijodida so'zning turfa tovlanishlari va jozibasi namoyon bo'ladi, shoir uning olmosdek rango-rang jilolari orqali xalq qalbiga kirib boradi. O'zbekiston xalq shoiri A. Oripov shoir ijodini shunday e'tirof etadi: “Mana, bir necha o'n yillardirki, biz dilbar bir she'riyatning muattar havosidan bahramand bo'lib kelayotirmiz. Bu Erkin Vohidov she'riyatidir. Ona tilimizning ipakdek mayin, kamalakdek rang-barang shamoyili g'oyat nozik lutf, beozor qochirimlar, goh hazin, goh samimi tabassum uyg'otuvchi tashbehlar, o'tkir xulosalar-bular bari ulkan shoirimizning qalamiga mansub betakror fazilatlardir. Xalqimiz keyingi davrlar mobaynida bosib o'tgan va o'tayotgan goh mashaqqatli, goh armonli, goh tug'yonli, goh iftixorli yo'llarning manzara va ohanglari, sadolari Erkin Vohidov she'riyatida to'la mujassamdir.

Erkin Vohidov ijodiga xos bo'lган eng muhim jihat shundaki, unda zamondoshlarining ziddiyatga to'la, sertashvish, mashaqqatli hayoti haqidagi haqiqat



mujassam etilgan. U inson deb atalmish jumboqning intim kechinmalari-kechmishlarini teran anglaydi, ularni falsafiy qarashlari bilan boyitadi, kashfiyotlar qiladi. Va bularning barini yuksak e'tirof, chuqur samimiyat bilan ifoda etadiki, beixtiyor inson ko'z o'ngida haqiqiy hayot jonlanadi. Erkin Vohidov ijodida bolalikka, yoshlikka bag'ishlangan dilgir she'rlar ko'p. Kuzatishlarimiz ko'rsatadiki, ijodkorning ijodiy merosidagi dostonlarda ham bolalik yoki bolalik bilan bog'liq tasvirlarga alohida o'rinn ajratilgan: Xayolning tumanli pardasi aro Yillar ko'z oldimda charx urayotir, Qishloq ko'chasidan zanjiday qaro Olov bolaligim yugurayotir... ("Nido" dostonidan) Shoир ushbu parchada urush tufayli otasidan, quvnoq bolaligidan judo bo'lган qahramon iztiroblarini aks ettirar ekan, "zanjiday qaro", "olv bolalik" ifodasini o'ziga xos tarzda qo'llaydiki, yo'qotilgan bolalikning azob-uqubatlari, sog'inch-qayg'ulari ko'lami o'quvchi qalbiga ham ko'chadi.

Ota va farzandning g'oyibona muloqotlari tasvirida qalb tubida tuguncha bo'lib yotgan dardlar zarrama zarra satrlarga ko'chadi:

Vujudim tilka  
Yuragimni yoqar o'tli iztirob,  
Ammo ko'zlarimda  
Bir tomchi yosh yo'q.

Ota diydoriga to'ymagan bolaning – lirik qahramonning his-hayajoni, qalbini silkitgan iztiroblar dardi, "Nido" dostoni ahamiyatini yanada kuchaytirgan.

Erkin Vohidov - xalqchil shoир. Xalq dardini o'z dardidek bilib, "Nido" dostoni orqali ko'rsata bilgan. Lirik qahramon so'zlari otasining qabri oldidagi qalb nidosi, qasamyod kabi taassurot qoldiradi:

Umrimni fido etay.  
U jon bergen vatangga.  
El mendan rozi bo'lsin,  
O'xashbsan deb otangga.

Bolanin monologi - qalb tarzida ifodalanishi, bola ruhiga mos ifdaning berilishi dostonni o'qimishli qilgan. Bundan tashqari dostonda izohtalab so'zlar yo'q.

Xulosa .Erkin Vohidov hech bir she'rini shunchaki yozmaydi, balki ularning har birida hayotning muhim masalalarini, inson bilan bog'liq haqiqatning yangi-yangi qirralarini kashf etadi. Uning o'ziga xos milliylik, samimiylit balqib turgan ijodiy kashfiyotlari tilni betakror birliklar, tasviriy ifodalar bilan boyitishga, xalq ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Uning ijodiga xos tiniqlik, ohanrabolik, falsafiylik va mukammallikdan xalq ruhi ufurib turadi. Shoирning olmosdek serjilo ijod mahsullari bundan keyin ham yoshlarimiz-millatimiz ma'naviyatini yuksaltirish uchun





o'zining munosib bahosiga ega muhim manbalardan biri sifatida boqiylikka muhrlanib golaveradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1.Vohidov E. "Tarjimai holim" maqolasi. Toshkent."Yoshlik" jurnali. 10-son. 1992.
- 2.Vohidov E. "Qalb sadoqati" .5-jild. Toshkent. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2018.
- 3.Vohidov E. "Dostonlar". Toshkent.G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1976.
- 4.Vohidov E. "Muhabbat". Toshkent.G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1976.
- 5.Shukur Qurbon. Toshkent. "Ustoz saboqlari". "Sharq" nashriyoti. 2016.



## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARDA O'QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI.

Mohinur Mahmudxonova

Farg'onan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinflarda yuqori bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun o'quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasiga o'quvchilarning motivlari sohasini o'rganish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivatsiyasini shakllantirishning psixologik omillari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'quvchi faoliyati, o'quv motivatsiyasi, tafakkur, xotira, intellekt, mantiq.

Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang'ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta'lim mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik mакtab yoshi davrida bolada mustaqil ta'lim olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda — bilimlarni olish bilan birgalikda qo'shimcha manbalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o'qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi. Ijtimoiy motivlar bиринчи sinfga kelgan bolaning differensial bo'lмаган, umumiy tushunishdan o'qish va o'рганишning zarurligi sabablarini anglashda, "o'zi uchun" o'qish mazmunini anglab yetishda ijtimoiy motivlarni amaliy xarakter kasb etishiga sababchi bo'ladi. Motivlar asosida o'quvchining o'quv mustaqilligini shakllanishi rivojlantiruvchi ta'lim shartlariga bog'liqdir:

- faoliyat maqsadi. Nima qilinayotganligi va nima uchun qilinayotgan bola uchun tushunarli bo'lishi kerak. – o'quvchi faoliyatida motivlar katta ahamiyatga ega. Motivlar qo'yilgan maqsadga erishish uchun harakat qilishga yo'naltiradi. – faoliyat mazmuni. Pedagog tomonidan beriladigan bilimlarni emas, balki o'quvchining o'zi tomonidan mustaqil izlaydigan va egallaydigan bilimlarni taqdim etish. Turli aqliy harakatlarni talab etuvchi topshiriqlar o'quvchilar bilimlarining rivojlanshiga olib keladi. – o'quvchi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat tarkibiga kiruvchi harakatlarning ahamiyati katta. Harakatlar turlicha bo'lishi mumkin. Oddiy harakatlar (qandaydir bir harakatlarni takrorlash), ijodiy harakatlar, amaliy va aqliy harakatlar. O'quvchi murakkab topshiriqni o'zi mustaqil rejalshtirib bajarishi yoki pedagogning ko'rsatmasiga ko'ra bajarishi mumkin, bunda asosan, o'quvchidan mavzuni diqqat bilan eshitishni va uni aniq bajarishni talab etadi. Lekin murakkab topshiriqlarni mustaqil bajarish, undan mustaqil harakat qilishni, topshiriqni bajarishni yo'llari va uslublarini mustaqil topishni talab etadi.



Pedagog olimlar tomonidan olib borilgan qator didaktik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'limgarayoni samaradorligini oshiradigan o'qitish omillari ichida o'quv-biluv faoliyatiga motivlashtirish omili birinchi o'rinda turar ekan, ya'ni ta'limgarayoni samaradorligi 92% o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirishga bog'liq ekan. Inson tabiatini ozgina bo'lsada tushunadigan kishi buning beziz emasligini e'tirof etadi. Motivlar didaktik jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Harakatlantiruvchi motivlarni o'rganish, to'g'ri qo'llash va uni to'g'ri yo'naltira olish pedagogik faoliyat mazmunining asosiy mohiyatini belgilaydi. Motivlashtirish – (lotincha moveo – harakatlantiraman, siljitanman degan ma'nolarni anglatadi) bu o'quvchilarni samarali o'quv-biluv faoliyatiga, o'quv materiali mazmunini faol o'zlashtirishga yo'naltiradigan jarayonlar, metodlar, vositalarning umumiyligini nomidir. Obrazli qilib aytganda, motivlashtirish tizginlarini o'qituvchi ham, o'quvchilar ham o'z qo'llarida tutib turadilar. O'qitish faoliyati nuqtai nazaridan qarasak, ta'limgarayoni motivlashtirish, o'qish faoliyati nuqtai nazaridan qarasak, o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirish haqida gapirish mumkin. Motivlashtirish shaxsning ruhiy holati va munosabatlarining o'zgarish jarayoni sifatida motivlarga asoslanadi. Motiv deganda shaxsni u yoki bu xattiharakatni amalga oshirishga majbur qiladigan muayyan sabab, turtki tushuniladi.

Shuningdek, motiv deganda o'quvchining o'z faoliyati perdmetiga munosabatini ham tushunish mumkin. Motivlar ehtiyoj va qiziqishlar, intilish va hissiyotlar, tayanch tushuncha va ideallar shaklida amal qilishi mumkin. Shuning uchun ham motivlar juda murakkab tuzilma bo'lib, alternativlar, tanlov va qarorlar tahlil qilinadigan, baholanadigan dinamik tizimdir. Motivlashtirishni o'rganish didaktika va pedagogik psixologiyaning markaziy muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu borada muayyan yutuqlar qo'lga kiritilgan, ammo muammoning to'la yechimiga hali erishilgani yo'q. Motivlarning o'zgaruvchanligi, harakatchanligi, xilma-xilligi tufayli ularni muayyan tarkibiy tuzilmasini belgilash, boshqarishning aniq usul va vositalarini belgilash qiyin bo'lib hisoblanadi.

Xulosa. Ta'limgarayonda o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirishda o'qituvchi juda muhim o'rinni egallaydi. Chunki u ta'limgarayoni tashkil etuvchi va boshqaruvchi subyekt sifatida o'quvchilarning o'quvbiluv faoliyatini ham bevosita boshqarib boradi. Ehtiyojlar, motivlar, stimullar – bir dalaning hosilidir. Ta'limgarayonda o'quvchilarni stimullahtirish ularda o'quv-biluv motivlarining boshqa motivlardan ko'ra kuchliroq bo'lishiga xizmat qiladi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G'oziyev, E. (2010). Umumiy psixologiya. Yangi asr avlodi.
2. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU
3. Маркова А. К. Формирование мотивации учения в школьном возрасте: Пособие для учителя. — М.: Просвещение, 1983. — С. 96.
4. Матюхина М. В. Мотивация учения младших школьников. — М.: Педагогика, 1984. — С.144.
5. Щукина Г. И. Познавательный интерес в учебной деятельности школьника. — М.: «Знание», 1972. — С. 32.



BOLALARDA ILMIY-TEXNIK, IJODIY QOBILYATLARINI  
RIVOJLANTIRISH.  
Sharipova Xakimaxon

Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** Mustaqillik yillarda respublikamizda ta`lim tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohatlar va bu borada yaratilayotgan imkoniyatlar nihoyatda kengayib bugungi kunda davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo`nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Jumladan uzlusiz ta`limning dastlabki bo`g`ini hisoblangan mактабгача та`lim sohasining ayni paytdagi rivojlanishi buning yorqin isbotidir.

**Kalit so'zlar:** ijodiy fikrlash, ijodiy qobiliyatlar, kognitiv qiziqishlar, tasavvur, faoliyat, o'yin.

Ijodkorlik yangi o'rganish mavzusi emas. Biroq, ilgari jamiyatda odamlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida ehtiyoj yo'q edi. Iste'dodlar o'z-o'zidan paydo bo'ldi, adabiyot va san'at durdonalari, ilmiy kashfiyotlar, ixtiolar yaratildi va shu bilan rivojlanayotgan insoniyat madaniyati ehtiyojlarini qondirdi. Bizning davrimizda vaziyat tubdan o'zgardi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida hayot rang-barang va murakkablashib bormoqda. Bu esa odamdan qoliplashgan odatiy harakatlarni emas, balki harakatchanlikni, fikrlashning moslashuvchanligini, tez yo'naltirilganligini va yangi sharoitlarga moslashishini, katta va kichik muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni talab qiladi. Zamonaviy dunyoda insonning ijodiy qobiliyatları uning intellektining eng muhim qismi sifatida tan olinishi kerak. Insoniyat tomonidan to'plangan madaniy qadriyatlar odamlarning ijodiy faoliyat natijasidir. Kelajakda insoniyat jamiyatining qay darajada rivojlanishini yosh avlodning ijodiy salohiyati belgilab beradi.

Maktabgacha ta`lim muassasalarda yaratilgan shart sharoitlar, ushbu tizim uchun zarur bo`lgan zamonaviy texnologiyalar, didaktik materiallar va o`yinchoqlar bilan muntazam ta`minlanib borishining davlat nazoratida bo`lishi kishini quvontiradi. Maqsad esa bitta bolalarni barkamol tarzda voyaga yetkazish ularni maktab ta`limiga tayyorlash samaradorligini oshirishdir. Maktabgacha yosh - bu o'zini yorqin ifoda etish, ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish, bolaning ijodkorligini rivojlantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Bugungi kunda MTT tarbiyachilarining eng ustuvor vazifalaridan biri "Ijodkor bolani" tarbiyalashdir. Bu jarayon qanchalik erta boshlansa samarasi shunchalik barvaqt namoyon bo'ladi va bolaning butun hayotiga ijobjiy ta'sir qiladi. Ijodkorlik yangi tadqiqot predmeti emas. Biroq, ilgari jamiyatda odamlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida ehtiyoj yo'q edi. Iste'dodlar o'z-o'zidan paydo bo'ldi, adabiyot va san'at durdonalari, ilmiy kashfiyotlar, ixtiolar yaratildi va shu



bilan rivojlanayotgan insoniyat madaniyati ehtiyojlarini qondirdi. Bizning davrimizda vaziyat tubdan o'zgardi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida hayot tobora rang-barang va murakkablashib bormoqda. Bu esa odamdan qolipashgan odatiy harakatlarni emas, balki harakatchanlikni, fikrlashning moslashuvchanligini, tez yo'naltirilganligini va yangi sharoitlarga moslashishini, katta va kichik muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni talab qiladi. Zamonaviy dunyoda insonning ijodiy qobiliyatlari uning intellektining eng muhim qismi sifatida tan olinishi kerak. Insoniyat tomonidan to'plangan madaniy qadriyatlar odamlarning ijodiy faoliyati natijasidir. Kelajakda insoniyat jamiyatining qay darajada rivojlanishini yosh avlodning ijodiy salohiyati belgilab beradi. Tarbiyachi pedagoglar taqlid qilish ijodkorlikni shakllantirishning asosiy mexanizmi ekanligini unutmasligi kerak. Bu shuni anglatadiki, bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlanirish uchun unga yaqin odamlar orasida bola o'zini tanitadigan ijodiy shaxs bo'lishi kerak. Bola uchun ijodiy xulq-atvor namunasi sifatida nafaqat ota-onalar (yoki ota-onalardan biri), balki boshqa kattalar ham (o'qituvchilar, oila do'stlari va boshqalar) harakat qilishlari mumkin. Agar bolalar uchun ota-onalar ko'proq ijodiy xususiyatlarga ega bo'lgan "ideal qahramon" bo'lsa, ayniqsa samarali bo'ladi. Aslini olganda "Ijodkorlik" - bu har xil turdag'i ijodiy faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydigan shaxsning individual fazilatları.

Qobiliyatlarni shakllantirish haqida gapirganda, bolalarning ijodiy qibiliyatlarini qaysi yoshda rivojlanirish kerakligi masalasiga to'xtlib o'tish kerak. Psixologlar turli xil atamalarni chaqirishadi. Ijodiy qobiliyatlarni juda erta yoshdan boshlab rivojlanirish kerak degan faraz mavjud. Bu gipoteza fiziologiyada o'z tasdig'ini topdi. Bolaning miyasi ayniqsa tez o'sadi va hayotining birinchi yillarida "pishadi". Bu kamolot, ya'ni miya hujayralari sonining o'sishi va ular orasidagi anatomik bog'lanishlar mavjud tuzilmalar ishining xilma-xilligi va intensivligiga ham, yangilarining shakllanishiga atrof-muhit tomonidan qanchalik rag'bathantirilishiga bog'liq. Bu "pishish" davri tashqi sharoitlarga nisbatan eng yuqori sezuvchanlik va plastika, rivojlanish uchun eng yuqori va keng imkoniyatlar davri hisoblanadi. Bu inson qobiliyatları rivojlanishining boshlanishi uchun qulay davr. Ammo bola faqat ushbu kamolotning "lahzasi" uchun rag'bat va sharoitlar mavjud bo'lgan qobiliyatlarni rivojlanira boshlaydi. Sharoitlar qanchalik qulay bo'lsa, ular optimal sharoitlarga qanchalik yaqin bo'lsa, rivojlanish shunchalik muvaffaqiyatli boshlanadi. Agar miyaning etukligi va uning faoliyatining boshlanishi vaqtga to'g'ri kelsa va sharoitlar qulay bo'lsa, unda rivojlanish osonlik bilan - eng yuqori tezlashuv bilan davom etadi. Rivojlanish o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqishi mumkin va bola qobiliyatli, iste'dodli va yorqin bo'lishi mumkin.



Xulosa. Hozirgi globallashuv davrida innovatsyon texnika va texnologiyalar rivojlangan davrda bolalarning fikrlash doirasi hamda ularning ijodiy qobiliyatlari ham kengayib bormoqda. Bolalarning ijodiy qibiliyatlari va fikrlashlarini rivojlantiruvchi bir qator yangi dasturlar joriy etilmoqda. Jumladan: Mental arifmetika san'at va aql idrokni rivojlantiruvchi dasturdir. Ushbu dastur yordamida bolalar nafaqat o'qishda muavaffaqiyatga erishadilar, balki hayot motivatsiyasiga ega bo'lib, ijodiy qobiliyatlari kengaymoqda. Mnemonika usuli ham tezkor xotira va ijodiy fikrlash tezligini rivojlantiruvchi dasturdir. Zamonaviy ota-onalar va o'qituvchilar o'zlariga birinchi navbatda bolani ijodiy rivojlantirish vazifasini qo'ydilar. Bunday qobiliyatlarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Shu sababli, ko'pincha o'quv dasturlarida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun TRIZ dan foydalanish va shu jarayonga asoslangan mashg`ulotlarni tashkil qilish muhim bir jarayon bo`lib hisoblanmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. PQ-3261 09.09.2017 Maktabgacha ta'lismiz tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaror.
2. "Maktabgacha pedagogika" F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova, M.N. A'zamova. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T. 2019
3. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv assosida ta'lismiz jarayonini rejalashtirish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T.2020
4. O'yin orqali ta'lismiz olish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T.2020
5. S.X. Jalilova, S.M. Aripova "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi" Toshkent 2017
6. Z. Nishanova, G. Alimova "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" Toshkent 2006





## O'ZBEK TILIGA JARGON SO'ZLARNING O'ZLASHUVI Anvarova Madinaxon

Farg'onan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** Rus va jahon adabiyotini o'rjanayotgan har bir talaba adabiy tilga xos bo'limgan nutq burilishlariga duch keladi. Ushbu iboralarning klassik ta'rifi nima,ular o'zbek tilida qanday qo'llaniladi, ularning paydo bo'lish tarixi va zamondoshlarimiz muloqotidagi o'rni qanday degan savol tug'iladi.Ushbu maqolada aynan ushbu savollarga javob olasiz.

**Kalit so'zlar:** Jargon, professional jargon, adabiy til, lahja, asotsial elementlar.

Jargon (fr. jargon — safsata) — biror ijtimoiy guruhning o'ziga xos muloqotida uchraydigan so'zlar va atamalarni ifodalaydigan tushuncha. Jargon muayyan ijtimoiy muhitda yuzaga keladi, turli sheva hamda lahjalardan farq qiladi. Ko'p hollarda, jargon inson ma'naviyatidagi salbiy qusurlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Uni kuchli rivojlangan va aniq terminlarga ega biror kasb tili bilan aralashirmslik lozim. Jargon barqaror bo'lmaydi, u ham til, ham uslubiy jihatdan turli-tuman va tezda o'zgaruvchan xususiyatga ega. Yoshlar orasida "ketdim" o'rniga "sirpandim", "pul" o'rnida "soqqa"; san'atkorlar orasida "xizmat uchun haq olmaslik" o'rnida "tom suvoq", "pul" o'rnida "yakan" va shu kabi jargonlar uchraydi. Jargon bazida badiiy ijodda asar qahramoni xususiyati, tabiatini ochib berish uchun xizmat qiladi. Jargonlar turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar vakillarining bir-birlari bilan aloqa qilishida yoki turli xalq vakillari yig'iladigan joylar (masalan, chegara, portlar)da ham paydo bo'ladi. Jargonlar qaysi ijtimoiy guruh orasida yuzaga kelgan bo'lsa, deyarli faqat shu guruh vakillari uchun tushunarli bo'ladi, shu toifadagilarning vaziyat, sharoit taqozosiga ko'ra boshqalardan yashirin tutiladigan maqsadlariga xizmat qiladi.Jargonda keng tarqalgan inqiloblar shartli so'zlashuv so'zi va muayyan ijtimoiy guruhlarda ishlatiladigan ibora. Bundan tashqari, ulardan paydo bo'lishi, rivojlanishi, o'zgarishi va chekinishi nutq aylanishi jamiyatning aniq ajratilgan qismida sodir bo'ladi.

Jargon - bu adabiy tilning faqat ma'lum bir guruhdagi so'zlashuvchi odamlarga tushunarli shaklda takrorlanishi. Bu ob'ektlar, harakatlар va ta'riflarning klassik ta'riflari uchun normativ bo'limgan, tan olinmagan sinonimlardir. Jamiyatning har bir ijtimoiy bo'linmasining jarangli so'zlari jargon deb ataladigan, tushunilmaganlar tushuna olmaydigan muloqot tilini tashkil qiladi.

**Kelib chiqishi va farqlari**

"Jargon" so'zi V. Dahl ("Tirik buyuk rus tilining izohli lug'ati") ga ko'ra, frantsuz jargonidan keladi. Uning adabiy til me'yorlaridan farqlari:

- Maxsus lug'at va frazeologiya.



- Yorqin rangli, ifodali burilishlar.
- Devoriy shakllardan maksimal foydalanish.
- O'z fonetik tizimlarining yo'qligi.
- Grammatika qoidalariga rioya qilmaslik.

Bugungi kunda jargon nafaqat og'zaki muloqot, balki samarali vosita badiiy ifoda. Hozirgi zamon adabiyotida bu so'zlar atayin metaforalar, sinonimlar, epitetlar bilan birga mazmunni kuchaytirish, o'ziga xos rang berish maqsadida qo'llanadi.

Ijtimoiy jargonlar keng tarqalgan so'z va iboralar bo'lib, ular birinchi marta 18-asrda "salon" deb ataladigan zodagonlar doiralarida paydo bo'lgan. Fransuzlarning hamma narsani sevuvchilar va muxlislari ko'pincha bu tilning buzilgan so'zlarini ishlatischgan. Masalan: "zavq" "plaisir" deb atalgan.

Jargonning asl maqsadi uzatilgan ma'lumotni sir saqlash, "biz" va "ular" ni kodlash va tan olishning bir turi edi. "Yashirin til"ning bu funksiyasi gangster muhitida asotsial elementlarning nutqi sifatida saqlanib qoladi va "o'g'rilar jarangi" deb ataladi. Masalan, pichoq - bu "qalam", qamoqxona - "teatr", qo'ng'iroq - "raqamlarni terish".

Jargonning boshqa turlari - maktab, talaba, sport, professional - bu xususiyatni amalda yo'qotdi. Biroq, yoshlar nutqida u hali ham jamiyatdagi "begona odamlarni" aniqlash funktsiyasini bajaradi. Ko'pincha o'smirlar uchun jargon - bu o'zini o'zi tasdiqlash usuli, ularning "kattalar" soniga mansubligini ko'rsatish va ma'lum bir kompaniyaga qabul qilish sharti.

Maxsus jaranglardan foydalanish suhbat mavzusi bilan chegaralanadi: suhbat mavzusi, qoida tariqasida, tor doiradagi odamlarning o'ziga xos manfaatlarini ifodalaydi. Lahjadan jargonning o'ziga xos xususiyati shundaki, uni ishlatishning asosiy ulushi norasmiy muloqotga to'g'ri keladi.

### Jargonlarning xilma-xilligi

Ayni paytda jargonning yagona, aniq bo'linishi mavjud emas. Faqat uchta sohani aniq tasniflash mumkin: professional, yoshlar va jinoiy jaranglar. Biroq, jamiyatning alohida guruhlariga xos bo'lgan jargonlardan naqshlarni aniqlash va shartli ravishda lug'atni ajratib ko'rsatish mumkin. Quyidagi jargon turlari eng keng tarqalgan va keng lug'atga ega:

Professional jargonlar - bu ma'lum bir professional muhitda maxsus atamalar va tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladigan lug'atni qisqartirish yoki birlashtirish orqali soddalashtirilgan so'zlar. Ushbu so'zlar texnik ta'riflarning ko'pchiligi uzoq va talaffuz qilish qiyin bo'lganligi yoki ularning ma'nolari zamonaviy rasmiy tilda umuman yo'qligi sababli paydo bo'ldi. Jargon so'zları deyarli barcha professional uyushmalarda mavjud. Ularning so'z shakllanishi hech kimga bo'y sunmaydi maxsus



qoidalar jargon uchun. Biroq, jargon aloqa va aloqa uchun qulay vosita bo'lib, aniq funktsiyaga ega.

Jargon: dasturchilar va Internet foydalanuvchilari tomonidan ishlataladigan misollar

Bilmaydiganlar uchun kompyuter jarangi juda o'ziga xos va uni idrok etish qiyin. Mana bir nechta misollar:

- "Vinda" - operatsion tizim derazalar;
- "o'tin" - haydovchilar;
- "Ish" - ishlash;
- "muvaffaqiyatsiz" - ishlashni to'xtatdi;
- "servak" - server;
- "clave" - klaviatura;
- "progs" - kompyuter dasturlari;
- "xaker" - dasturlarni buzuvchi;
- "foydalanuvchi" - foydalanuvchi.

O'g'rilar jargon - jargon

Jinoiy jargon juda keng tarqalgan va o'ziga xosdir. Misollar:

- "malyava" - harf;
- "quvur" - mobil telefon;
- "ksiva" - pasport yoki shaxsiy guvohnoma;
- "xo'roz" - mahkum, mahkumlar tomonidan "pastga tushirilgan";

Ingliz leksikologiyasida uchta sinonim atama mavjud: cant, jargon, jargon. Bugungi kunga qadar ular o'rtasida aniq ajratish o'rnatilmagan, ammo ulardan foydalanish sohalari ko'rsatilgan. Shunday qilib, cant muayyan ijtimoiy guruhlarning shartli lug'atini, masalan, o'g'rilar jargoni yoki maktab jarangini bildiradi. Jargon lug'atlaridagi belgi aniq texnik atamalarni belgilashda mavjud, ya'ni u professional jargonning ruscha kichik turlariga mos keladi. Shuningdek, jargon, cant va jargon so'zlashuv iboralari va qo'pol so'zlarni bildiradi. Ular nafaqat o'ziga xos foydalanish muhiti, balki barcha mavjud adabiy me'yorlarning grammatikasi va fonetikasining buzilishi bilan ham ajralib turadi.

Ingliz tilida jargonlar jargon va jargon bo'lib, ular alohida so'zlar, iboralar va nutq burilishlarini o'z ichiga oladi. Ular butun ijtimoiy guruhlarning ta'siri ostida ham, alohida shaxslar tufayli ham paydo bo'ladi. Ingliz jargonlari ko'pincha xarakterlarning xususiyatlarini etkazishda badiiy uslubdagi asarlarda mavjud. Odatda muallif qo'llanilgan jarangli so'zlarga izoh beradi. Dastlab faqat so'zlashuv vositalari bo'lgan ko'plab so'zlar endi klassik adabiyotda qo'llanish huquqini qo'lga kiritdi. Zamonaviy



ingliz tilida jargon turli kasb vakillarining muloqotida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ularni talabalik sohasida, sport sohasida, harbiylar orasida tez-tez uchratasiz. Shuni ta'kidlash kerakki, jargonning mavjudligi, ularning kundalik muloqotda asossiz ishlatilishi tilni to'sib qo'yadi. Dialektlar va jarangli iboralar ko'plab tilshunoslar va tarjimonlarga tanish bo'lgan tushunchalardir. Garchi ular haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirsa va ilmiy maqolalar Ular juda ko'p, ammo bugungi kunda ushbu leksik birliklarning tarjimasini qanday qilib to'g'ri va adekvat etkazish haqida ma'lumotlarning etishmasligi mavjud. Rus tilidagi analoglarni tanlashda muhim nuqta: jargon ma'lum ijtimoiy qatlamlarga xos ekanligini va ma'lum bir ma'noga ega ekanligini unutmang. Shuning uchun asl manbaga xos bo'lgan his-tuyg'ularni yoki tushunchalarni etkazish uchun ularni talqin qilishning bunday usulini topish muhimdir. Zamonaviy til jargon jamiyatning barcha sohalarida keng tarqaldi, vositalari ommaviy axborot vositalari, filmlar va hatto adabiyotlar. Ulardan foydalanishni taqiqlash befoyda va samarasiz, lekin o'z nutqiga to'g'ri munosabatni shakllantirish muhim va zarurdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B.To'ychiboyev. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. - T.: «O'qituvchi», 1996, 7-b.
2. V.V.Reshetov. Sh.Shoabdirahmonov. O'zbek dialcklogivasi. - T.: «O'qiluvchi». I97X. 4 2 - b.
3. Nematov H., Rasulov R. O'zbek lili sistem leksikologiyasi. - T.: «O'qiluvchi», 1995, I I 1 - 1 2 3 - b.
4. Qo'chqo'rtoev I. So'zlarning leksik-semantik to'dalari haqida. //ToshDU ilmiy asarlari, 359- chiqishi. - T.: 1969.



## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA LUG'AT BOYLIGINI RASMLAR YORDAMIDA O'STIRISH.

Ismoilova Dildora

Farg'onan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bu o'quvchilarning har tomonlama kreativligini oshirishdir. Shu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativligini oshirishda asosiy ustuvor usullardan ongli o'qitish, nutq madaniyatini o'stirish, yozma va og'zaki nutq mashqlarini uyg'un holatda olib borishdir. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarda lug'at boyligini oshirishda turli xil samarali usullar haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Lug'at boyligi, so'z, tushuncha, imloviy lug'at, ibora, tasviriy ifoda, atrof muhit.

Bolalarining so'z boyligini oshirish ularning fikrini o'stirish bilan bog'lab olib borilishi lozim.O'qituvchi bolalar nutqini va fikrini atrof hayot,oilaviy turmush,maktab jamoasi hayoti,mamlakatimizning ijtimoiy hayotidagi voqeа va hodisalar,o'zbek xalqining mehnati, jonli va jonsiz tabiat bilan tanishtirish asosida o'stirib boradi.O'qituvchi o'quvchilarga ular ko'rgan narsalarning nomini aytib ,kuzatgan hodisalarini so'z bilan tushuntirib,ifodalab beradi.Shunday qilib ,nutqda bolalarining bilish faoliyatlari oshadi va mustahkamlanadi.

O'z navbatida lug`atlar bilan ishslash ham kreativlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki lug`atlar bilan ishslash o'quvchilarda kuzatuvchanlik qobiliyatini yuzaga chiqaradi, ularning nutq madaniyatini yuksaltiradi, fikrlash va dunyoqarashini kengaytiradi, so'z boyligini orttiradi, o'quvchilarda savodli yozuv malakasini takomillashtiradi. Tildagi jamiki so`zlar, ularning tarixi, izohi, imlosi kabi muhim masalalar bilan lug`atshunoslik o'rrganadi. Lug`atlar qadimdan yaratilib kelingan. Masalan, Mahmud Qoshg'ariy tomonidan XI asrda yaratilgan "Devoni lug`atit-turk" , XVI asrda Usmonli turk tilida yaratilgan "Abushqa" lug`atlari tarixda bizga ma'lum.

Boshlang'ich ta'limda lug`at ustida ishslashning umumiyligi yo`l- yo`riqlari, yo`nalishlari, manbalari haqida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo`lsa-da, ularni hali qoniqarli ahvolda deb bo`lmaydi. Lug`atlar ustida ishslash uchun maxsus darslar ajratilmaydi. O'quvchilar barcha predmetlarni o'rganishda, asosan, ona tili va o'qish darslik materiallarini o'rganish bilan bog`liq holda olib boradi. Ona tili hamda o'qish darslarida lug`atustida ishslash o'quvchilar nutqini o'stirishga, yozma savodxonligini shakllantirishga, so'z boyligini boyitishga nutq madaniyatini yuksaltirishga



qaratilganligi sababli bu ish 1-sinf danoq boshlanadi va butun o`quv jarayonida davom ettiriladi.

O`qituvchi maxsus usullar yordamida bolalarni faqat lozim bo`lgan so`zlarning ma`nosini tushunibgina qolmay, balki o`z nutqlarida ko`proq foydalanishlariga, ularda so`zga qiziqish va diqqatning o'sishiga erishadi.

Lug`at ishi turli metod va usullar bilan amalga oshiriladi. Jumladan, bolalarni voqelik bilan tanishtirishning ikki yo`li mavjud:

a) tashqi olamni sezgi organlari bilan bevosita idrok qilish: bolalar buyumlarni ko`zdan kechiradilar; ushlab, tinglab ko`radilar; o`ynaydilar;

b) bolalar kishilarning mehnat, mamlakatimiz, tabiat hayoti haqidagi hikoyalarini, o`qib berilgan kitoblarini tinglash; suratlar, diafilmlarni ko`rish orqali tevarak-atrof haqida ma`lumot oladilar.

Katta va mакtabga tayyorlov gruppalaridagi bolalar o`zaro muloqotda o`z fikrlarini u yoki bu darajada bayon qiladilar. Endi mashg`ulot jarayonida ularning gap-so`zlarini kuzatsak, ko`pincha buning aksini ko`ramiz. Ular o`qituvchi taklif etgan rasm yordamida biror gap, hikoya yoki oddiy ertaklar tuzishga qiynaladilar. Bu bolalarning so`z boyliklari yetishmasligi bilan izohlanadi. Rasmlar asosida nutqni rivojlantirishda bolalarni ko`proq mantiqiy fikrashga o`rgatib borish lozim. Masalan, bolalarga „stul” rasmi yoki uning o`zi ko`rsatib, undan nima maqsadda foydalanish mumkinligi so`raladi. Bola qiynalib bo`lsa-da „stul” o`tirish uchun kerakligini aytadi. Tarbiyachi „stulning nechta oyog`I bor? ” deb so`raydi. Bola uning to`rtta oyog`i borligini aytadi. „Nega to`rtta, uchta emas? ” deb so`ralganda esa, u agar u „oyog`i uchta bo`lsa, stul yiqilib tushadi, o`tirib bo`lmaydi “ deb tushuntiradi.

Ko`pincha gul sotiladigan do`konlarda yaltiroq, tiniq shaldiryoq qog`ozga gulni o`rab beradi. Ana shu qog`ozda syujetli rasmlar hosil qilish orqali ayrim hayotiy voqealarni bolalarga ko`rsatish mumkin. Buning uchun 32x45 sm o`lchamdagagi karton qog`ozi olinib, sirtiga shaldiryoq qog`oz qoplanadi va chetlari orqali 1,5 sm o`lchamda qaytarilib yelimlanadi. Bunda shaldiryoq qog`oz oldindan 35x46,5 sm o`lchamda qirqilib tayyorlab qo`yiladi. Shuni unutmaslik kerakki, rasm solish oson bo`lishi uchun xaltachalarning tepe qismidan bir tomoni yelimlanmaydi, ya`ni qog`ozning uchta tomoni orqasiga qaytarilib yelimlanadi va bir tomoni ochiq qoldiriladi. Kartonga shaldiryoq qog`ozni yopishtirganda qog`oz va karton orasida ozgina joy qolishi uchun ular orasiga bir qavat qog`oz solib so`ng yelimlanadi va biror og`ir predmet ostiga bostirib qo`yiladi. Ma`lum vaqt o`tgach, qo`yilgan karton qog`ozi olib tashlanadi va manzarali karton qog`ozi yoki biror bir





illustratsiya xaltachaga solib qo'yiladi. Rasm xaltachaga bemalol joylashadigan bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, dars davomida lug`atlar bilan ishslash, o`quvchilarga so`z ma`nosini tushintirish o`quvchilarining lug`at boyligini orttiradi, dunyqarashini kengaytirib, ularning kreativligini rivojlantiradi. Lug'at ustida ishslash ona tili darslarida ham, o'qish darslarida ham reja asosida izchil olib borish zarur. Boshlang'ich sinflar uchun izohli, imlo lug'atlarining yaratilmaganligi lug'at ustida olib boriladigan ishlarni to'g'ri uyushtirishda ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Agar lugat ishi qat'iy reja asosida izchil amalga oshirilsa, o`quvchilardan ortiqcha mehnat talab qilmaydi. Bunga erishish uchun qunt, e'tibor, qat'iyatlik va sabot bilan ishslash zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karima Qosimova, Safo Matchnov, Xolida G`ulomova, Sharofat Yo`ldasheva, Sharofjon Sariyev "Lug`at ustida ishslash metodikasi"
2. "O`zbek tili fanidan lug`atlar ustida shlash orqali talabalarning so`z boyligini oshirish" metodik ko`rsatmasi. Toshkent-2005
3. O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000- yil



DARS MASHGULOTARIDA INTERFAOL METODLARDAN  
FOYDALANISH.  
O'ktamova Durdona

Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** Darslarni interfaol metodlarda tashkil etishning afzalliklari. O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi. Mazkur maqolda ta'lismtarbiya jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida interfaol metodlardan foydalanishning afzalliklari xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** interfaol metodlar, ta'lismtarbiya jarayoni, pedagogik texnologiya, didaktika, o'qitish mazmuni

Hozirgi vaqtida ta'lismjarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lism oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lism oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lismtarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lism metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdag'i ta'lism muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lism metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lismtarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslarini hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lism metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilonaga tashkil qilinishi, ta'lism beruvchi tomonidan ta'lism oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lism jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lism oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.





O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lismi maqsadi, ta'lismi oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limga davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda – ta'lismi oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lismi jarayonining markazida ta'lismi oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lismi beruvchi ta'lismi oluvchini faol ishtiroy etishga chorlaydi. Ta'lismi oluvchi butun jarayon davomida ishtiroy etadi. Ta'lismi oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lismi samarasi yuqoriqroqbo'lgan o'qish-o'rghanish;
- ta'lismi oluvchining yuqori darajada rag'batlanrilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lismi jarayoni ta'lismi oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lismi oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rghanilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lismi amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rghanish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri echimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Interfaol usullardagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni o'zaro faollikda hal etishga, o'z fikrini erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar echimini topishga, hamkorlik, hamjixatlikda ish yuritishga, fikrni mantiqan yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Interfaol metodlarda ish yuritish, ananaviy usullardan voz kechish degani emas. Balki ta'lismi mazmunini o'zaro faollikda hal eta olish demakdir. Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni talim jarayoniga tatbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarining o'quv jarayoniga qo'llanilishi tushuniladi. Interfaollik bu o'zaro ikki kishi faolligi, yani o'quv – biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'quvchi – o'qituvchining o'zaro muloqoti asosida kechadi. Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, tasirchanlik, u o'quvchi va o'qituvchi muloqotlarida sodir bo'ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi



o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir. U o'zining intelektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etadi, va o'quv sifati va samaradorligini oshiradi. Interfaollik asosida o'tgan darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o'quvchi chetda qolmaydi, yani ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq – oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilarning har bir bildirgan fikrlari, u to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qatiy nazar, tanqid qilinmaydi. O'quvchilar hamkorlik, hamijodkorlikda ishslashda mavzu mazmunini bilish va o'zlashtirishda o'zlarining shaxsiy xissalarini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro bilimlar, g'oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bunday holatlar o'zaro samimiylikni taminlaydi, yangi bilimlarni olish, o'zlashtirishga havas ortadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1."Interfaol ta'lism metodlari" Shayakubov Sh. K., Ayupov. R
- 2.www.arxiv.uz
- 3.www.referat.uz



## O'TKIR XOSHIMOVNING „DUNYONING ISHLARI“ ASARIDA ONA SIYMOsi.

Jo'raqulova Shoxzoda

Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** Mazkur maqola taniqli yozuvchi O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarini tahlil qilish bilan bir qatorda, unda yoritilgan dolzarb mavzularni yangicha turda baholashga qaratilgan. Maqolada muallifning asosiy e'tibori O'tkir Hoshimov tomonidan yaratilgan ona obrazining sharq ayoli matonati-yu muruvvatini nechog'li aks etgani tahlil etilgan. Ishdagi umumlashma xulosalar asarning ma'naviy-axloqiy qimmatini yoritishga xizmat qilgan.

**Kalit so'zlar:** axloq, ona, sharq ayoli, zamon, qissa, hikoya ,ona siymosi.

Salkam qirq yil muqaddam yozilgan O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi ushbu ta'kidning dalili sifatida keltirilishi mumkin. O'zining adabiy janriga ko'ra, qisqa hayotiy qissalarning jamlanmasi, ko'p hollarda insholar yig'indisiga qiyoslanishiga qaramasdan, ushbu "doston" o'z ichiga nafaqat muallifning onasi haqidagi fikr-mulohazalari va ichki kechinmalari, balki zamonning, uning atrofidagi insonlarning ichki va tashqi ko'rinishlariga bag'ishlangan.

Qissadagi "Ona" obrazi, muallifning faqatgina o'tgan voqealarni tasvirlash bilan chegaralanib qolgan yoki o'z onasi timsolida ideal ona obrazini tadbiq etishga harakat qilgan, deb ta'kidlash o'quvchining asarni to'liq o'qib tushunchaga ega bo'la olmaganidan dalolat beradi. Muallifning onasi o'z harakatlari, qarashlari, fikrmulohazalari bilan aynan sharq ayoli obrazini to'liq tasvirlaganini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Ona siymosi dunyodagi barcha xalqlar uchun muqaddas va mo'tabardir. Ularni birlashtirib turuvchi mushtarak fazilatlar bisyor, albatta. Lekin, ayni vaqtida, har bir xalqqa, millatga mansub ona siymosi o'z fe'l-atvori, tabiat, ichki va tashqi dunyosi, hatto, portreti bilan muayyan darajada farqlanib turadi. Ona butun bir xalq, butun bir millatning o'ziga xosligi, shakllanishi, namoyon bo'lishida alohida o'rin tutuvchi siymodir, va, ayni vaqtida har bir inson kabi jamiyat, muhit, sharoitning vakili sifatida o'ziga xos bir invidumdir. «Odamning qalbida qanday olijanob tuygular mavjud bo'lsa, ularning barchasi avvalo onadandir»

O'zbek adabiyotida ona obrazining go'zal va betakror namunalarini yaratgan yozuvchilardan biri O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovdir. Adib asarlarida Ona obrazi shu qadar mustahkam va muhim o'rin tutadi, ularsiz hatto yozuvchining yaxlit ijodini tasavvur qilish qiyin. Ona insonga hayot beradi, yuvib-taraydi, tarbiyalaydi. Ona uchun eng to'tiyo narsa, o'g'ilmi-qizmi, uning farzandi. Ona o'z



farzandi uchun hamma narsaga, hatto jonini qurbon qilishga ham tayyor. Shuning uchun bo'lsa kerak, ona haqida behisob she'rlar to'qilgan, dostonlar yozilgan, kattakatta asarlar bitilgan. Kichik maqollardan tortib, muborak hadislarimizgacha ona madh etiladi, e'zozlanadi. Shu jihatdan —Dunyoning ishlari qissasi xarakterlidir. Albatta, bu asardan ta'sirlanmay bo'lmaydi. Bu asarni hissiyotsiz o'qish mumkin emas. "Dunyoning ishlari" asarini ONAgan qo'yilgan abadiy yuksak ehtirom ramzi deyish mumkin. Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida hammamiz uchun eng aziz odam — onam siymosi bor. Muallifning bu qissasini o'qigach, hayotga bo'lgan munosabatingiz keskin o'zgaradi. Bu asarda o'zbek xarakteri, o'zbek ayoli shunday chiqoyli ochib berilganki, xullas yuz marta eshitgandan, bir marta o'qigan yaxshi. —Dunyoning ishlari insonlarga ko'p foydasi tegadigan asar.

Zamonning tartib-taomillari, ateistik targ'ibotning jamiyatning barcha jabhalariga qaratilganiga qaramasdan, insoniylik, insof singari yuksak xislatlarni saqlab qolish va uni o'z farzandlarining tarbiyasida qo'llashi aynan sharq ayolining fazilatlaridan biridir. Misol tariqasida, qissaning "Ikki afsona" hikoyasida muallif onasining barvaqt turib, ko'cha supurib ishlaganini eslab o'tadi. Unda vaqt o'tgani sari akasining onasiga shu ishni qilmasligi haqidagi so'zlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Insonning halol mehnat qilib, peshona teri bilan hayot kechirishi dindan xabardorlik sifatida onaning har qanday halol mehnatning aybi yo'qligi haqidagi so'zlar bilan ta'riflanadi. Ushbu holatning alohida e'tiborga sazovor jihat shundaki, onaning halol luqma bilan farzandlarining qornini to'q, ustini but tutishi, o'zidagi halovatning mavjudligi, uning o'z mehnati bilan (eng oddiy ish bo'lsa-da) g'ururlanishi va insofidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, ijtimoiy-psixologik jihatdan onalik tuyg'usi insonning boshqa hayotiy talablari (yashash, ovqatlanish va boshqa) bilan bir qatorda barobar turuvchi xislatdir. Muallifning "Gilam paypoq" hikoyasida, onaning deyarli yalangoyoq holatida bolasining umri, uning sog'lig'i uchun o'zining sog'lig'idan voz kechishga, kerak bo'lsa, uning o'rniga o'zi ajalga tik qarashga tayyorligidan buni yaqqol ko'rish mumkin. Tibbiyot nuqtai nazaridan qaralganda, og'ir homiladorlik holatlari yoki tug'ruq vaqtida onaning va bolaning hayotiga xavf bo'lgan holatlarda, deyarli barcha shifokorlar bolaning umridan voz kechgan holda onani qutqarishga bel bog'lashadi. Ushbu mantiqqa asosan, ona yana bola ko'rishi mumkin, ammo bola onani qaytara olmaydi. Lekin, muallif hikoyasining mantig'i hech bir narsa ona hissiyotidan ustun emasligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, qissadagi hikoyalarga zamon va atrof-muhitning mantiqiy mahsuli sifatida qarash xatolikka yo'l qo'yishga sabab bo'lishi mumkin. Zamonning



muallif onasiga bo‘lgan munosabati, muhabbatining turkisi bo‘lmagan bo‘lib, qissaning asosiy ichki ma’nosi sifatida nafaqat muallif onasining xislat va fazilatlari balki, atrofdagi insonlarning fazilatlarini ta’riflash, ularning ichki ko‘nikmalari orqali o‘zining xatolarini ko‘rsatishga bag‘ishlanganligi haqiqatning bir tomonidir. Asardagi hikoyalar turli voqealar bayoniga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, ularda ona— Hakima aya obrazi tutashtiruvchi ip bo‘lib o‘tadi, voqealar rivoji bevosita yoki bilvosita tarzda ona taqdiriga borib taqaladi. Yozuvchining o‘zi ham bu fikrni tasdiqlaydi: —Bu qissa kattakichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz odam onam siyomsi bor.... Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihatli bilan onaga bog‘langan.

Xulosa qilib aytganda, qissada ona qiyofasi keng va to‘laqonli tavsiflanadi. Bu tavsiflanish jarayonida adibning adabiy mahorati va individual uslubi ko‘zga tashlanadi. Darhaqiqat, ona haqida kimlar nima demagan. Dunyoda biror bir shoir yoki adib bo‘lmasinki, ona haqida qo‘sish qimagan, kuylamagan bo‘lsa. Ona bor, olam bor; ona bor, odam bor; ona bor, Vatan bor, deyishadi. Chindan ham ona kabi tabarruk va aziz, ona kabi muqaddas va mehridaryo, ona kabi mard va jasur, ona kabi xokisor va kechirimli inson olamda topilmasa kerak. Shundan bo‘lsa ajab emaski, ona mavzusi O’tkir Hoshimov uchun navqiron, abadiy tugallanmas ilhom manbaidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Gandhi, I. (2018). Indira Gandhi hayoti va siyosiy faoliyati. Hindiston Milliy kongresi oldidagi nutqi. – Moskva
2. Ahmad, S. Dunyoning ishlari qissasi haqida [elektron kitob] // <http://kutubxonachi.uz/documents/asar/adabiyot/o-zbek/pdf/o-tkirhoshimov/dunyoning-ishlari-qissa/#gsc.tab=0>
3. Vagner, V. (2005). Qiyosiy psixologiya biologik asoslari. – Aql va idrok.
4. Aryes, F. (2019). Go‘dak va eski tartib davridagi oilaviy hayot. Hayot bosqichlari bo‘limi. – Nyu York: Fency.
5. Umumiy siyosatshunoslik lug‘ati. (2018). – Moskva.



## ЕР ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНЛАРИДА ЕР ҲИСОБИНИ ЮРИТИШНИНГ АҲАМИЯТИ

**К.М.Хожиев-“Ўздаверлойиха” давлат илмий-лойиҳалаш институти  
“Методология” бўлими бошлиғи.**

**Аннотация.** Мақолада аналитик таҳлил ва монографик тадқиқот усулларига суюнган ҳолда мамлакатимизда олиб борилаётган ислоҳатларнинг тўлақонли амалга оширилишида ер майдонларининг миқдорий ҳисобини юритишнинг аҳамияти, шунингдек, маъмурий-худудий бирликлар бўйича ер ҳисобини тўғри ва тўлиқ юритишда йўл қўйилаётган хато-камчиликлар кўрсатиб берилган, хусусан, уларни бартараф этган ҳолда тузилаётган ер балансининг ҳаққонийлиги ва шаффоғлигини таъминлашда туманларнинг маъмурий чегараси доирасида туманга бўйсунувчи шаҳар, шаҳарча, қишлоқ (овул)лар худудларини белгиланган тартибда тўлиқ шакллантирган ҳолда ўтказиладиган ер ресурслари хатлови натижаларини асос сифатида қабул қилиниши бўйича амалий таклиф ва тавсиялар берилган.

**Калит сўзлар:** ислоҳат, қишлоқ хўжалиги, маъмурий-худудий бирлик, шаҳарча, қишлоқ, овул, ердан фойдаланувчи, ер баланси, ер ҳисоби, координаталар тизими, ер ресурслари хатлови, ер фонди тоифалари, ер турлари, электрон рақамли харита, экин ерлар, томорқа ерлар.

**Кириш.** Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, ер муносабатларини тартибга солиш, республикамиз ер ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини ва ерларнинг, айниқса, суғориладиган ерларнинг унумдорлигини ошириш ва талонтарожлигининг олдини олиш мақсадида тегишли қонунларнинг қабул қилиниши, хусусан, ер тўғрисидаги қонунчиликка тегишли ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш орқали ер ислоҳотини жадаллаштириш албатта ҳукуматимиз олдига қўйилган мухим вазифаларидан бири ҳисобланади.

Қишлоқ хўжалигига асосий ишлаб чиқариш воситаси ҳисобланган ер ресурсларидан фойдаланиш тизимини илмий-назарий асосларини такомиллаштириш ва уларни амалиётга самарали татбиқ этиш, хусусан, ер участкаларини ажратишнинг барча учун teng, шаффоф ва бозор тамойилларига асосланган тартибини жорий этиш, ерга оид мулкий ва ҳуқуқий муносабатларда барқарорликни таъминлаш, ерларни муҳофаза қилиш, ер эгаларининг мулкий ҳуқуқларини кафолатлаш, шунингдек, ернинг иқтисодий қийматини белгилаш орқали уни фуқаролик ҳуқуқий муносабатлар объекти сифатида эркин муомалага



киритиши объектив заруратга айланмоқда. Олиб борилаётган ер ислоҳатларини самарали амалга оширишда амалдаги маъмурий-худудий бирликларнинг чегаралари бўйича тузилган ер балансининг ер фонди тоифалари, ер турлари ва ердан фойдаланувчилари (барча хуқуқлар бўйича) кесимида ҳаққонийлиги ҳам алоҳида аҳамият касб этади.

Шу билан бирга, Республика аҳолисининг йилдан-йилга ўсиб бораётганлиги, уларни озиқ-овқат маҳсулотларига, шунингдек, ижтимоий турмуш даражасини доимий равишда ошириб боришга бўлган талабини кучайтиради. Айниқса бугунги кундаги таҳликали дунёда бўлаётган нотинчлик орқасидан аҳолининг озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган талаби янада кучайиши негизида соҳада ислоҳотларни жадаллаштириш, шунингдек, ер майдонларидан, жумладан қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан оқилона ва самарали фойдаланишни ташкил этиш ва уларни муҳофаза қилиш, хусусан, ер майдонларининг аниқ миқдорий ҳисобини шакллантириш заруриятини туғдиради.

**Тадқиқот методологияси.** Республика изнинг мавжуд 44 млн. 892,4 минг гектар умумий ер майдонлари доирасида [10] ер ҳисобини тўғри, тўлик ва шаффоф ҳолда юритиш берилган ерлардан мақсадига қўра оқилона ва самарали фойдаланиш ҳамда уларни муҳофаза қилиш соҳасида олиб борилаётган ислоҳатларни амалга оширишда муҳим аҳамият касб этиши сабабли ҳам бугунги кунда бу муаммони кун тартибининг асосий масалаларидан бири сифатида кўтарилаётганлиги бежиз эмас, негаки, туман(шаҳар)лар чегараларининг бутунжаҳон координаталар тизимига (WGS-84) [7] боғланмаганлиги худудларда чегаралар билан боғлиқ ер муносабатларини тартибга солиш борасида, жумладан ер участкаларини ажратиш ва хусусийлаштириш масалаларида, ер билан боғлиқ соҳаларни режалаштиришда, ер ресурсларининг хатловини ўтказища ва уларнинг мониторингини юритища, ерларни баҳолашда, шунингдек, туман (шаҳар)ларда юритилаётган ер балансининг умумий натижаларида айрим хато ва камчиликларни келтириб чиқармоқда. Айниқса, Республика бўйича маъмурий-худудий бирликларнинг қуий туркумини ташкил этувчи туманга бўйсунувчи шаҳар, шаҳарча, қишлоқ ва овуллар ҳудудларининг [1] шакллантирилмаганлиги, жумладан, амалиётда туманга бўйсунувчи шаҳар, шаҳарча, қишлоқ ва овуллар ҳудуди бўйича амалда ер ҳисоби юритилмаётганлиги мазкур бирликлар бўйича маълумотлар базаси шакллантирилишида сунъий тўсиқларни вужудга келтирмоқда.



Шу билан бирга, юридик ва жисмоний шахсларнинг хуқуқ ўрнатувчи хужжатларида кўрсатилган майдон билан амалда фойдаланилаётгани ўртасида фарқларни бартараф этишнинг хуқуқий ечими ҳанузгача очиқ турганлиги, хусусан, ер майдонларида ўтказилган хатлов натижаларига кўра [13] аниқланган ўзгаришларни ўз муддатларида ер балансига олишнинг хуқуқий асоси шакллантирилмаганлиги уларнинг миқдорий ҳисобини тўғри ва тўлиқ юритишга салбий таъсир кўрсатмоқда.

**Таҳлил ва натижалар.** Мамлакатнинг маъмурий-худудий бирликлари кесимида ер фондининг тоифалари ва турлари бўйича уларнинг миқдорий ҳисобини, жумладан, туманларнинг маъмурий чегарасидаги туманга бўйсунувчи шаҳар, шаҳарча, қишлоқ ва овуллар худуди бўйича мавжуд ерларнинг миқдор жиҳатдан аниқ ҳисобини юритиб боришда [3] соҳа мутахассисларига катта вазифалар юклатилганлигига қарамасдан, жойларда олиб борилган таҳлиллар шуни кўрсатадики, бугунги кунда маъмурий-худудий бирликлар бўйича ер ҳисобини юритишга доир муайян тизим яратилмаганлиги ер майдонларининг миқдорий ҳисобини тўғри ва тўлиқ юритиш билан боғлиқ бўлган норматив-хуқуқий масалаларни батафсилроқ кўриб чиқилиши керак бўлган жиҳатлардир.

Маълумки, ер ҳисобининг натижалари ҳар бир маъмурий туман (шаҳар) кесимида ишлаб чиқиладиган ер балансида ёритилади. Ер ҳисобини юритиш Кадастр агентлигининг Давлат кадастрлари палатаси худудий бўлинмаларига юклатилган бўлиб, унинг ҳар йилги якуний натижаси сифатидаги туман (шаҳар) ер баланси ҳар йили 1 январь ҳолатига тузилади [3] ҳамда туман (шаҳар)нинг маъмурий чегараси доирасида ер фондининг тоифалари ва ер турлари бўйича ердан фойдаланувчилар (барча хуқуқлар бўйича) кесимида юритиб борилади. Бундай ер балансини тузишда ҳар бир ердан фойдаланувчиларнинг ер майдонлари тўғрисидаги маълумотлардан фойдаланилади ва йил давомида уларда вужудга келган тегишли ўзгаришлар ҳисобга олиб борилади. Ер балансида ерларнинг миқдори ердан фойдаланувчи юридик ва жисмоний шахслар бўйича уларнинг ер участкаларига бўлган хуқуқлари давлат рўйхатидан ўтказилганлиги ёки ўтказилмаганлигидан қатъий назар [11] ҳисобга олиниши назарда тутилади.

Туман ва шаҳарларнинг умумий майдонига қайта аниқлик киритиш мақсадида биргина Бекобод туманининг умумий майдони амалдаги маъмурий-худудий чегараси бутунжаҳон координаталар тизимига (WGS-84) боғлаб замонавий асбоблар ёрдамида қайта ўрганиб (ўлчаб) чиқилганда ер балансига нисбатан 165 гектар фарқ мавжудлиги исботланган.



Шу билан бирга, 1:10000 масштабга келтирилган ортофотопланлардан фойдаланган ҳолда ерларни дешифровка қилиш орқали белгиланган тартибда яратилган электрон рақамли қишлоқ хўжалиги хариталарида Бекобод туманинг мавжуд ер майдонлари хатловдан ўтказилганда ер фонди тоифалари ва ер турларида ҳам ер балансига нисбатан фарқлар мавжудлиги аниқланган.

Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистон Республикаси маъмурий-худудий бирликларининг, жумладан, туманларнинг маъмурий чегараси доирасида туманга бўйсунувчи шаҳар, шаҳарчалар, қишлоқлар, овуллар худудларини амалдаги қонунчилик асосида бўлиниши ҳамда уларнинг чегараларига бутунжаҳон координаталар тизимидан фойдаланган ҳолда қайта аниқлик киритиш орқали мавжуд ер майдонларининг аниқ ҳисоб-китобини йўлга қўйиш, шунингдек, ердан фойдаланувчилар (барча хуқуқлар бўйича) томонидан фойдаланилаётган ер майдонларини хатловдан ўтказиш орқали ер фондининг барча тоифалари [2] тўғрисидаги ҳаққоний маълумотларга эга бўлиш, ер ҳисобини тўғри ва тўлиқ юритиш ер ислоҳоти жараёнларининг ҳаққонийлигини таъминлашда муҳим амалий аҳамият касб этади.

Бугунги кунда мавжуд туманларнинг маъмурий чегараси доирасида туманга бўйсунувчи шаҳар, шаҳарча, қишлоқ ва овуллар худудлари белгиланган тартибда тўлиқ шаклланмаганлиги мамлакатимизда олиб борилаётган ислоҳатларнинг тўлақонли амалга оширилишига салбий таъсирини кўрсатмоқда, шунингдек, маъмурий-худудий бирликлар бўйича ер ҳисобини юритишда муаммолар келтириб чиқармоқда.

Муаммоларнинг ечимини топиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 7 сентябрдаги “Ер ҳисоби ва давлат кадастрларини юритиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6061-сон ҳамда 2021 йил 8 июндаги “Ер муносабатларида тенглик ва шаффофликни таъминлаш, ерга бўлган хуқуқларни ишончли ҳимоя қилиш ва уларни бозор активига айлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6243-сон Фармонларида ер майдонларининг аниқ ҳисобини юритишни ташкил этиш ва таъминлаш борасида тегишли ваколатли органларга бир қатор вазифалар белгилаб берилган. Хусусан, 2021 йил 1 январдан бошлаб ер тури, контури, чегараси ва хуқуқ эгалари ҳақидаги барча маълумотлар Кадастр агентлигининг онлайн геопорталига киритилиши, у эса Миллий геоахборот тизимида интеграция қилиниши, ер баланси ва унинг ҳисботи, туман (шаҳар) ер кадастри дафтари фақат Миллий геоахборот тизимида юритилиши, Давлат кадастрлари ягона тизими Миллий геоахборот тизимида шакллантирилиши, тегишли давлат



кадастрлари маълумотлари Миллий геоахборот тизимиға фақат телекоммуникация тармоқлари орқали тўғридан-тўғри тақдим этиб борилиши белгилаб берилган.

Ер майдонларининг миқдорий ҳисобини юритиш бўйича мавжуд хужжатларни таҳлил қилиш ҳамда соҳадаги амалий тажрибалардан келиб чикқан ҳолда ер ҳисобини тўғри ва тўлиқ юритиш тизимини такомиллаштириш юзасидан қўйидаги **таклифларни** киритишни зарур деб ҳисоблаймиз:

1. Туман (шаҳар)ларнинг маъмурий чегараларини белгилаш ишларини белгиланган тартибда бутунжаҳон координаталар тизимиға(WGS-84) боғлаб амалга ошириш ишларини тўлиқ якунлаш ва аниқланган кўрсатгичларни туман (шаҳар)ларнинг ер балансига қабул қилинишини таъминловчи механизмини ишлаб чиқиб, амалиётга жорий этиш;

2. Туманларнинг маъмурий ҳудудини туманга бўйсунувчи шаҳар, шаҳарча, қишлоқ ва овулларга белгиланган тартибда бўлиннишини таъминлаш бўйича ташкилий чораларни амалга ошириш ҳамда туманга бўйсунувчи шаҳар, шаҳарча, қишлоқ ва овулларнинг тасдиқланган чегаралари бўйича уларнинг аниқ ҳудудларини шакллантириш;

3. Туман (шаҳар)лар бўйича ер ресурсларининг хатловини якунлаш ва хатлов натижаларини туманга бўйсунувчи шаҳар, шаҳарча, қишлоқ ва овуллар кесимида ер фондининг тоифалари, ер турлари, ердан фойдаланувчилари бўйича ер балансига қабул қилинишининг мақбул услубиётини ишлаб чиқиш;

**Хулоса:** Ер ҳисобини юритиш бўйича бугунги кундаги мавжуд норматив-хукуқий хужжатлар ва ер балансини ўрганиш, таҳлил қилиш бўйича олиб борилган тадқиқотлар асосида хулоса қилиш мумкинки, юқорида ишлаб чиқилган таклифларни ер майдонларининг миқдорий ҳисобини юритиш амалиётига жорий этиш бу йўналишда бажарилаётган ишлар сифатини тубдан оширишга, ер ҳисобини ҳаққоний ва шаффоғ тарзда юритишни йўлга қўйишга, ер майдонларидан, жумладан, қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан оқилона ва самарали фойдаланишни ташкил этишга ва уларни муҳофаза қилишга, шунингдек, ер ҳисобини юритиш тизимини такомиллаштириб боришга, рақамли ер кадастрини яратиш ва юритишга ўзининг ижобий таъсирини кўрсатади, шу билан бирга, мамлакатимизда олиб борилаётган ислоҳатларнинг тўлақонли амалга оширилишига хизмат қиласи.



**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.
2. Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси.
3. Ўзбекистон Республикасининг давлат ер кадастри тўғрисидаги қонуни.
4. Ўзбекистон Республикасининг маъмурий-худудий тузилиши тўғрисидаги қонуни.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 7 сентябрдаги “Ер хисоби ва давлат кадастрларини юритиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6061-сон Фармони.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 8 июндаги “Ер муносабатларида тенглик ва шаффоффликни таъминлаш, ерга бўлган ҳуқуқларни ишончли ҳимоя қилиш ва уларни бозор активига айлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6243-сон Фармони.
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 23 апрелдаги 299-сон қарори.
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 22 июндаги 389-сон қарори.
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 14 январдаги 22-сон қарори.
10. Ўзбекистон Республикаси ер ресурсларининг ҳолати тўғрисидаги Миллий хисобот. - Тошкент: Кадастр агентлиги, 2022.
11. Рахимов В.Р., Бабажанов А.Р. Давлат кадастри асослари. Тошкент, ТТУ 2012.
12. Бобожонов А.Р. “Ер кадастри” Тошкент, ТИМИ, 2011 й.
13. Ўзбекистон Республикасининг ер фонди. - Тошкент: Кадастр агентлиги, 2022.



## SULFAT KISLOTA ISHLAB CHIQARISH VA SANOATDAGI O'RNI

Normeliyev Dalerbek Iskandar o'g'li

Termiz muhandislik texnalogiya inistuti 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sulfat kislota ishlab chiqarishning usullari va sanoatdagi ahamiyati haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** nitrat kislota, H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, SO<sub>4</sub>H<sub>2</sub>, aluminiy, zink, ferum, kontakt usuli, sulfat kislota, Kislota navi,

### Kirish.

Noorganik moddalar ishlab chiqarish nazariyasi va texnologik hisoblari il fanining mazmuni, predmeti va metodi. 2. Sulfat kislota ishlab chiqarish usullari, navlari va jihozlari. 3. O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar ilg'or yutuqlarining tahlili. Mustaqil O'zbekiston Respublikamiz xalq xo'jaligini ayniqsa uning qishloq xo'jaligini rivojlanishida kimyo sanoati shu vaqtga qadar yetakchi o'rirlardan birini egallab kelmoqda. Respublikamiz kimyo sanoatida noorganik moddalar-mineral o'g'itlar, tuzlar, kislotalar, bog'langan azot birikmlari va sulfat kislotasi ishlab chiqarish sgu davrgacha salmoqli o'rirlarni egallab keldi va kelajakda ham shunday bo'lib qolishiga shubha yo'qdir, chunki qishloq xo'jaligini uning asosiy ozuqasi mineral o'g'itlarsiz, kimyo sanoatining rivojini esa butun dunyoda bo'lgani kabi sulfat kislota rivojisiz va bog'langan azot birikmalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuni mammuniyat bilan ta'kidlash mumkinki, hozirgi vaqtida kishi boshiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarilayotgan sulfat kislota miqdori bo'yicha bizning Respublikamiz nafaqat MDH davlatlari orasida, balki butun dunyo bo'yicha bir necha yillardan beri yetakchi o'rirlardan birini egallab turibdi va bundan buyon ham shunday bo'lib qolishi uchun Respublikamizda sulfat kislotasining qisqa usuli bilan ishlab chiqarish sanoati rivojiga alohida ahamiyat berilmoqda.

### Asosiy qism

Ishlab chiqarish usullari. Sulfat kislota X asrdan boshlab olinib kelinmoqda. U temir kuporosini yoki achchiqtoshni qattiq qizdirish natijasida olingan. Hosil bo'lgan og'ir moysimon suyuqlik sulfat kislota kuporos moyi deb atalgan. 2FeSO<sub>4</sub> + 2H<sub>2</sub>O → 2FeO+ 2H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> XV asrda kimyogarlar oltingugurt va selitra aralashmasini yoqib, sulfat kislota olish mumkinligmi aniqlaganlar. Shu usulda 300 yildan ko'proq vaqt mobaynida sulfat kislota oz miqdorda shisha qolbalar va retortalarda faqat laboratoriyalardagina olingan. XVIII asr o'rtalarida sulfat kislotaga chidamli material-qo'rg'oshin topilgach sulfat kislota qo'rg'oshin idishlar-kamerlarda sanoat miqyosida



olina boshlangan. Bunday usul kamerali usul deb ataldi. Bu kameralarda oltingugurt va selitra aralashmasi yoqilgan. Bunda hosil bo'lgan sulfat angidrid kameraga qo'yilgan suv yoki kislota eritmasidayutiladi. Keyinchalik selitra o'rniga nitrat kislota, kameralar.

Sulfat kislota - bu o'simlik va kimyo sohalarida keng tarqalgan anorganik kimyoviy modda. Sulfat kislota ishlab chiqarish uchun bir qancha usullar mavjud, ammo eng ko'p ishlatiladigan usullar quyidagilardir:

Kontakt usuli - bu usulda sulfur dyumini suv bilan alohida etarli suv bilan alohida saqlanadi. Keyin, sulfur dyumini kuchli suvda zanjirlovchi shovqin (agitator) orqali yaxlitlanadi. Shunday qilib olingan kichik to'g'ri silindrli boshqa bir tankga solinadi, bu yerda sanoatdagi ko'p qismi sulfat kislota ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Oleum usuli - bu usulda, sulfur dyuminiga chigirtma (oleum) qo'shiladi va quyidagi kimyoviy reaktsiyalar o'tkaziladi:



Bu usul sulfat kislotasini yuqori sifatli, hamda konsentratsiyasi yuqori bo'lgan kislotaga aylanishini beradi.

Sulfat kislota sanoatdagi o'rni esa kimyo sanoatida keng tarqalgan bo'lib, unikatta miqdorda ishlatiladi. Sulfat kislota quyidagi sohalarida keng tarqalgan:

Bug'doy ichimliklari ishlab chiqarishida;

Mollari ko'z yuvishda sterilizatsiya qilishda;

Akkumulyatorlarda ishlatiladigan elektrolit sifatida;

Polimer materiallar ishlab chiqarishda;

Texnologiyaviy jarayonlarda oksidatsiya va reduksiyani o'tkazish uchun.

Sulfat kislota juda etarli va kuchli kislotadir. Uning ishlab chiqarishida ishlatilgan usullar xavfsizlik va bexatrлиgi ta'minlash uchun amalga oshirilishi kerak.

Sulfat kislota, kimyoviy formulasiga  $H_2SO_4$  yoki  $SO_4H_2$  deb yozilgan, eng muhim inorganik kislotalardan biri hisoblanadi. Uning molekul massasi 98 g/molga teng. Bu kislota, suv bilan ta'minlangan va o'simliklar uchun mahsus oqsillarni ko'paytirish uchun, tekstil, boshqa kimyo sanoati sohalari va boshqa ko'plab sohalarda keng qo'llaniladi.

Sulfat kislota, aluminiy, zink, ferum, shuningdek, jigar, yuz va shirin suvni tayyorlashda ham ishlatiladi. Kimyoviy sintez, katalizatorlar, organik kimyoviy vositalar va boshqa ko'plab sohalarda ham sulfat kislota ishlatiladi.

Sulfat kislota iste'molining katta miqdorlari suv sanoati, neft kimyo sanoati, metallurgiya sanoati, qurilish materiallari sanoati, keramika, tashqi yoritish, oziq-ovqat sanoati, kimyo saboqlar, aralash va boshqa sohalarda ishlatiladi.



Sulfat kislota, shiddatli korroziya xossalarga ega bo'lgan hamda mukammal namlik qobiliyatiga ega bo'lgan kislotalardan biri hisoblanadi. Ammo undan foydalanimishda ehtiyotkorlik va tushuntirish zarurati mavjud, chunki u quyosh yorug'ligida bo'lishi mumkin bo'lgan kimyoviy reaksiyalarga olib kelishi mumkin.

Sulfat kislota, bizning hayotimizning ko'p sohalarida iste'mol qilinishi sababli, o'ziga xos o'rniqa ega bo'lgan kimyoviy vositalardan biridir. Sanoatda u ishlab chiqarilishi, iste'molining kengaytirilishi va turli sohalarda ishlatalishi sababli, iqtisodiyotda ham muhim o'rni bor.

Sulfat kislota ( $H_2SO_4$ ) – bu oddiy yoki kuchli sulyarli kislotalar asosida ishlab chiqariladigan birlinchi asosiy kimyoviy mahsulotlardan biridir. Bu kislota, 18 asr boshlaridan beri kundalik hayotda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan yirik sanoat mahsulotidir.

Sulfat kislota ishlab chiqarish uchun bir qancha yo'l mavjud. Masalan, kislatali gazlar va qurishga qarshi suvning birlashtirilishi orqali ishlab chiqariladi. Shuningdek, sulfurni suvli nozik gazning tarkibidagi muayyan temperaturada oksidatsiyalash yordamida ham sulfat kislota ishlab chiqarilishi mumkin.

Sulfat kislota, kundalik hayotda ko'plab sanoat sohalari uchun muhim bo'lib, konsentratsiyasi va sifati bilan keng ishlataladi. Misol uchun, uni akkumulyatorlarda elektrolit sifatida, anorganik kimyo, zargarlik, neft kimyoviyasi, yarim mukammal organik sintez, tekstil, metal ishlab chiqarish va boshqa ko'plab sanoat sohalarda keng qo'llanadi.

Sulfat kislota suv bilan jadal ishlataladi, shuning uchun uni ishlatalishda ko'p xavfsizlik talab qilinadi. Sulfat kislota ishlab chiqarish va uni sanoatda ishlatalish, ekologik holatga qaramay, ko'p zararli moddalarga chiqarish mumkinligini anglatadi. Shuning uchun, uni xavfsizlik va texnika qoidalari bilan xavfsiz ishlatalish kerak.

Sulfat kislota ishlab chiqarish va uni ishlatalish, kimyo sanoatidagi eng muhim ishlab chiqarish yo'llaridan biri bo'lib, u katta iqtisodiy, ma'muriy va ekologik oqibatlarga ega bo'lishi mumkin.

Sulfat kislota ( $H_2SO_4$ ) ko'plab sanoat sohalarda ishlataluvchi yomonlashtiruvchi kimyoviy modda hisoblanadi. Bunday kislota asosan bu bir nechta tizimlar orqali ishlab chiqarilishi mumkin.

Sulfat kislota ko'plab sohada ishlatalishi bilan bir qancha sohalarda ishlab chiqariladi, masalan:

Nafteks uskunalari: Sulfat kislota kerakli reaksiyalarni tashkil etish uchun kerakli bo'lgan alyuminiy, kaltsiy va boshqa metallar komponentlarini nafteks tayyorlashda qo'llaniladi.



Sun'iy oqsillar, plastiklar va polimerlar: Sulfat kislota polimer tayyorlash uchun ham ko'plab tizimlarda ishlataladi.

Sanoatga kerakli kimyoviy moddalar ishlab chiqarish: Sulfat kislota ko'p kimyoviy moddalar ishlab chiqarish uchun kerakli bo'lgan barcha tizimlarda ishlataladi.

Sulfat kislota sanoatdagi ahamiyatini va foydalanishini oshiradi, lekin uni xursand qiladigan jihatlari ham bor. Sulfat kislota juda qattiq va yomonlashtiruvchi hisoblanadi va bu tizimlarda xavfsiz ishlash kerak. Sulfat kislota bilan ishlashning tajribasiz odamlar uchun o'ta zerikarli ekanligi sabablari bilan xavfsizlik qoidalari ham mavjud.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Умиров Ф.Э. Получение дефолианта на основе хлоратов и органических соединений. // Монография Бухара изд. «Дурдона». 2019г. С.-139
2. Умиров Ф.Э., Худойбердиев Ф.И., Тухтаев С. The solubility in monoethanolamine – 3 -oxyhiridazone-6 – water and sodium trikarbamidochlorate-3 – oxyhiridazone – 6 – water // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Voi.5 Issus 3 march, 2018 Copyright to IJARSET www.ijarset.com 5315-5319
3. Умиров Ф.Э., Закиров Б.С., Номозова Г.Р. Research of Process of Obtainig Chlorate Magneseim Defoliant Containing Surface-Active Substances //International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Voi. Issus 4, April 2019 Copyright to IJARSET www.ijarset.com 9011-9015
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Sulfat\\_kislota](https://uz.wikipedia.org/wiki/Sulfat_kislota)





## O'ZBEK INGLIZ TILLARIDA HUSHMUOMALALIKNI IFODALOVCHI LEKSEMLAR.

Ahmedova Kamola

Farg'onan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hurmat kategoriyasining ingliz va o'zbek tilida lingvopoetik xususiyatlari muhokama etilgan. So'nggi o'n yilliklarda tilshunoslikda hurmat kategoriysi va uning antroposentrik jihatlarini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. U alohida til va madaniy hamjamiyat doirasidagi bitta til materialida, shuningdek, turli til va madaniy jamoalardagi bir nechta tillar materialida o'rganiladi, bu esa ushbu sohada madaniyatlararo muloqotni qiyosiy o'rganish imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** xushmuomalalik, hurmat kategoriysi, axloqiy sifat, kommunikativ kategoriya, hurmat, lingvopoetika, tilshunoslik, fonopoetika, leksopoetika, sintaktik poetika, badiiy nutq, badiiy asar.

Zamonaviy muloqot sharoitida nutq turining yuqori darajada tarqalishi nutq birliklarini o'rganishning dolzarbligini belgilaydi. Bugungi kunda ko'plab tadqiqotchilar ilgari tilshunoslik fanining chekkasida bo'lgan hodisalarga e'tibor qarata boshladilar: nutqiy akt, so'zlovchining maqsadi, nutqiy ta'sir, kommunikatorlarning o'zaro ta'siri muammolari, nutq holatining xususiyatlari, kommunikativ muvaffaqiyatsizliklar sabablari, kommunikativ strategiyalar va yozma va so'zlashuv nutqining taktikasi. Nazariy yondashuv asosida so'zlovchining pragmatik munosabatlarini, shuningdek, kommunikatorlarning psixologik va xulq-atvor ta'sirlarini birlashtirib o'rganish nutqiy faoliyat hamda so'zlovchi va tinglovchi o'rtaсидаги nutqning o'zaro ta'sirining xususiyatlari haqida eng to'liq tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Xushmuomalalik, hurmat kategoriyasiga oid juda ko'p nazariyalar mavjud. Ulardan ba'zilarini keyinroq eslatib o'tamiz, lekin avval hurmat nima ekanligini aniqlaymiz. Shuningdek, u madaniyatlararo muloqot kontekstida qanday amalga oshirilayotganini ko'rib chiqamiz. Ko'pchilik insonlar xushmuomalalikni aniq tasavvur qila olamiz deb o'ylashadi. Ammo xushmuomalalikni aniqlash birinchi qarashda ko'rindigan darajada oson emas. Turli odamlar muloyim hatti-harakatlarni boshqacha tasvirlashadi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi hurmat kategoriysi taqqoslab, ulardagi xushmuomalalik tushunchasining ta'riflarini ko'rib chiqamiz. «Словарь по этике» lug'ati xushmuomalalikni quyidagicha belgilaydi: «Hurmat – odamlarning kundalik xulq-atvor normasi, suhbatdosh bilan muomala qilishning odatiy usuliga aylangan odamni tavsiflovchi axloqiy sifat» (Словарь по этике, 1975: 46). Bu ta'rifdan kelib chiqadiki, hurmat xushmuomalalikning ko'rinishidir. Xushmuomalalik – bu unga



muhtoj bo'lgan kishiga xizmat qilishga tayyorlik, noziklik va muloyimlik. Va, albatta, nutqning o'z vaqtida va to'g'ri namoyon bo'lishi, nutq odobi – xushmuomalalikning ajralmas elementidir. Odob ensiklopediyasida biz xushmuomalalikning shunday ta'rifini ko'ramiz: "... bu harakatlar majmui bo'lib, mazmuni va ko'rinishi axloqiy tamoyillarga muqobillashadi" (Словарь по этике, 1975: 39). Insonlarning muloyim munosabati har doim odamlar tomonidan yuqori baholangan. Turli tillarda ushbu sifatni tasniflovchi bir qator so'zlar mavjud: xushmuomala, xushfe'l, xushtabiat, odobli, tarbiyali, xushta'b, mulozamat, xushsuxan, e'tibor, e'zoz, ehtirom, takalluf, izzat, izzatikrom, to'g'ri. Ushbu sinonimik qatorda dominant so'z xushmuomala, uning lug'aviy ma'nosi "Muomalasi, gap-so'zlari, xatti-harakati yoqimli; xushfe'l. Xushmuomalalik borasida N.I. Formanova (Формановская, 1989) va T.V. Larinaning monografiyasida (Ларина, 2003) tavsif berilgan. T.V. Larinaning yozishicha, "xushmuomalalik milliy o'ziga xos kommunikativ kategoriya sifatida tushuniladi, uning mazmuni uyg'un, mojarolarsiz muloqot va interaktiv muloqotda ijtimoiy qabul qilingan me'yordarga rioya qilishga qaratilgan kommunikativ hatti-harakatlarning (lisoniy va nolisoniy) урфа аylangan strategiyalar tizimi (o'rnatish, saqlash va shaxslararo aloqani tugatish)" (Ларина, 2003: 28). Shuningdek, u xushmuomalalik tushunchasi turli madaniyatlarda turlicha ekanligini ta'kidlaydi. Har bir madaniyatning lisoniy xushmuomalalik tushunchasi o'z mazmuniga ega (Ларина, 2003: 24). N.I. Formanovskayaning qayd qilishicha, xushmuomalalik – bu shaxslarning madaniy kategoriyasini belgilovchi tushuncha bo'lib, lisoniy voqylanishga ega va u, albatta, tilshunoslikda o'rganilishi lozim (Формановская, 1989: 77). Ingliz tili lug'atida ham xushmuomalalikning turli ifodalarini kuzatish mumkin: politeness, courtesy, civility, comity, urbanity, courtliness, decency, suavity, affability, mannerliness (Oxford Dictionary, 2010). Ularning barchasi xushmuomalalik, xushfe'l, xushtabiat, odobli sifatida tarjima qilinadi. Asosiy tushuncha – lug'atda belgilangan xushmuomalalik – "suhbatdoshlarning his-tuyg'ulari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, insonning vaziyatga mos, to'g'ri tarzda o'zini tutishi yoki gapirishi" demakdir (Longman dictionary of contemporary English, 2009).

Agar ismini bilmasa, janob yoki xonim deb murojaat etish hurmat m'nosini ifodalaydi. Bundan tashqari ingliz xalqi madaniyatida hurmat qadrlanadigan muhim tushuncha bo'lib xizmat qiladi. Izzat va ehtiromdan tashqari, hurmat axloqiy qadriyat sifatida qaraladi, mahalliy aholini o'z madaniyati to'g'risida o'rgatadi. Ushbu axloqiy qadriyat jamiyatdagi ishtirokga ta'sir ko'rsatadigan va shaxslarning rivojlanishi va o'z madaniyati jamiyatiga qo'shilishida yordam beradigan jarayon sifatida qaraladi. Hurmatning qadr-qimmati bolalik davrida o'rgatiladi, chunki mahalliy bolalarni o'z



jamoalariga qatnashishi va ularni o'rganish jarayoni madaniyatning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Graham J., Haidt J., Koleva S., Motyl M., Iyer R., Wojcik S. Axloqiy asoslar nazariyasi: axloqiy plyuralizmning pragmatik asoslari. 2013.
2. Richardson D. S, Spivey M. J., Edelman S., Neapol A. D. Til fazoviy: aniq va mavhum fe'llarning tasviriy sxemalari uchun eksperimental dalillar. 2001.
3. Zulfiyeva Y.-lar affiksining so'z tarkibidagi qo'llanish xususiyatlari// O'zbek tili va adabiyoti. –T.: 1972. 5 –son.
4. Zikrillayev G'.Fe'lning shaxs,son va hurmat kategoriyalari sistemasi.- Toshkent:Fan,1990 -163b.
5. Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk (Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov). T. I-II-III. –T.: Fan, 1960-1963. I. –B. 326.



BOLALARGA INGILIZ TILIDA OT(NOUN )SO'Z TURKUMINI  
O'RGATISHNING PEDAGOGIK VA INNOVATION USULLARI

Valiyeva Dilshoda

Farg'onan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik yoshdagi o'quvchilar hamda bolalar uchun ingliz tilidagi ot so'z turkumi ustida ishlashning samarali usullari haqidagi pedagogik va nazariy malumotlar hamda amaliy qo'llash uchun ishlatiladigan manbalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** otlar, sanaladigan otlar, sanalmaydigan otlar, ish varoqlari, qo'shiqlar, joy nomlari, hayvonlar, narsa nomlari, yosh va individual xususiyatlari, kuylash, mashg'ulotlar, lug'at

Biz bilamizki barcha tillarda lug'atning eng katta qismini ot so'z turkumi tashkil etadi: shu jumladan ingliz tilida ham so'zlarning eng katta sinfi ushbu turkum so'zlaridan iboratdir. Ingliz tilida ot so'z turkumi noun (ot) deb yuritiladi Dastlab misol tariqasida ot so'z turkumini ingliz tilidagi quyidagi so'zlar orqali ifodalashimiz mumkin: a thing - narsa nomlari (book - kitob), a person - shaxslar (Umida - Umida ismi), an animal - hayvonlar, insects - hashorotlar (a dog - it , fly - pashsha), a place - joy nomlari (Tashkent - Toshkent shahri ), fikr yoki harakatga tegishli bo'lgan so'zlar jamlanmasi.

Ingliz tilida ot kim? nima ? so'rog'iga javob bo'ladi va gapda ko'pincha ega vazifasida keladi. Otlar 2 guruhg'a bo'linadi:

Sanaladigan otlar (Countable nouns)birlik va ko'plik shakllariga ega bo'ladi birlik yoki ko'plikda kelishiga qarab birlik yoki ko'plik shaklidagi fe'l bilan keladi birlik shaklida kelganda oldida a, an, yoki one kabi aniqlovchilar bo'lishi mumkin ko'plik shaklida kelganda oldida many yoki few aniqlovchilar bo'lishi mumkin ko'plik shaklida kelganda oldida many yoki few aniqlovchilar bo'lishi mumkinfaqat ko'plik shaklida kelganda oldidan some aniqlovchisi ishlatilishi mumkin.Faqat ko'plik shaklida oldidan number of kelishi mumkin

Sanalmaydigan otlar (Uncountable nouns),faqat bir shaklga ega birlik shaklidagi fe'llar bilan keladi oldidan a, an yoki one so'zları aniqlovchi sifatida kelmaydi oldidan aniqlovchi sifatida much ishlatilishi mumkin oldidan aniqlovchi sifatida some kelishi mumkin oldidan amount of qo'llanishi mumkin

Muayyan turdag'i otlar odatda doim sanaldigan bo'ladi. Masalan:

People(odamlar): a boy(bola); a girl(qiz); a man (kishi)

Animals(hayvonlar) : a cat(mushuk); a dog(it); a horse(ot)

Plants(o'simliklar) : a cactus(kaktus); a tree(daraxt); a flower(gul)

Insects(hasharotlar) : an ant(chumoli); a butterfly(kapalak); a bee(ari)va boshqalar.

Sanalmaydigan otlar:





Food(oziq-ovqat): Bread(non); cake(tort); chocolate(shokolad)

Material(material): copper(mis); iron(temir); paper(qog'oz) Liquid(suyuqlig): water(suv); oil(neft); milk(sut) va boshqa narsalar.

Otlar 2 ta katta guruhga bo'linadi: °countable nouns (sanaladigan otlar) °uncountable nouns (sanalmaydigan otlar) °Countable nouns (sanaldigan otlar) - sanab bo'ladijan, birlik yoki ko'plik shakllarda kela oladigan otlar kiradi. Bunda ot birlik shaklda kelsa, uning oldidan a/an yoki one so'zlarini qo'yamiz. Agar ko'plik shaklda kelsa, so'z oldidan many yoki few kabi ko'plikni ifodalovchi so'zlar kelishi mumkin. Misol uchun: a book - kitob , an elephant - fil bu so'zlar countable singular nouns (sanaladigan birlikdagi otlarga kiradi.) many books - ko'p kitoblar, few apples - bir nechta olmalar countable plural nouns (sanaladigan ko'plikdagi otlarga kiradi.) °Uncountable nouns (sanalmaydigan otlar) - sanab bo'lmaydigan, faqatgina ma'lum o'lchov birliklari bilan o'lchanadigan otlar kiradi. Ushbu otlar oldidan some, a piece of, a bottle of kabi so'zlar keladi. Misol uchun: some money - biroz pul, a piece of cheese - pishloq bo'lagi. (sanalmaydigan otlarga kiradi.) Noun (ot)larning plural (ko'plik) hamda singular (birlik) shakllari turli qo'shimchalar hamda so'zdagi o'zgarishlar bilan farqlanadi. °Singular nouns (birlik) dagi otlar oldidan a / an artikllari yoki one so'zi kelib ularning bitta ekanligini bildiradi. Misol uchun: a girl - (bitta) qiz an octopus - (bitta) sakkizoyoq one book – (bitta) kitob ° Plural nouns (ko'plik) dagi otlarni esa quyidagi qo'shimchalar qo'shish bilan yasashimiz mumkin: - s, es, ies. Ushbu qo'shimchalar so'z oxirida qo'shilib ko'plik ma'nosini anglatadi. Misol uchun: a girl - girls an apple - apples puppy - puppies (- y bilan tugagan so'zlarga ies qo'shimchasi qo'shiladi, - y harfi esa tushirib qoldiriladi.) a potato - potatoes (-y bilan tugagan so'zlarga es qo'shimchasi qo'shiladi).

Dastlab bolalarning yosh va individual xususiyatlariiga e'tibor berishimiz biz berayotgan ma'lumotlarning bolalarga qanchalik samara berishini bilib olishimizga yordam beradi. Yoshi kichik o'quvchilarga rasmlar orqali tushuntirish eng samarali va isbotlangan usul hisoblanadi. Chunki kichik yoshdagagi bolalarning fotografik xotirasi juda yaxshi rivojlangan bo'lib, bu esa ular o'zlari ko'rgan ma'lumotlarini tez va uzoq muddat esda saqlab qolishlariga imkon yaratadi.

Biz suratlarni bolalar tanish bo'lgan narsalar rasmi tushirilganlaridan foydalanishimiz kerak. Yuqoridagi rasm aynan shunday. "What things are you looking? " - " Bolalar bu rasmida siz nimalarni ko'ryapsiz?", "What is described?" " Nimalar tasvirlangan?", "How do we ask what is the picture?" "Suratdagi narsalarga qanday so'roq beramiz?" kabi savollar bilan murojaat qilamiz. Bolalarga ushbu rasm juda ham tanish chunki bolalar hayvonot olamini, atrof muhitni, oila a'zolarini yaxshi biladilar



shu sababli yuqoridagi savollarimizga bolalar qiziqish bilan qarashadi hamda bemalol javob bera olishadi. Biz dastlab narsalarning o'zbekcha nomlarini so'ngra esa rasm asosida inglizcha nomlarini ayttirishimiz maqsadga muvofiq. Rasmlar juda sodda bo'lishi lozim hamda biz rasmdagi jonzotlar, joylar yoki narsalarni sanab bo'lish yoki bo'lmasligi haqida ham bolalar bilan fikr yuritishimiz kerak.

Xulosa: Noun (ot) ustida turli mashqlar bajarish mavzuni mustahkamlashga yordam beradi. Ayniqsa turli xildagi otlar keltirilgan raskraskalardan foydalanib, bolalarga ularni bo'yash topshirig'ini berishimiz mumkin. Ushbu oddiy mashg'ulot o'quvchilarga har xil turdag'i otlarni aniqlash va yozib olishga yordam beradi. Shuningdek oddiy tushunchalarni o'raganishdan misol uchun so'zlarni topish yoki bo'lmasa rasmlarni birlashtirish kabi worksheet lardan samarali foydalansak bolalarni dars mobaynida zerikib qolishlarini hamda mashg`ulotning samarasiz ketmasligini oldini olgan bo`lamiz.

## **REFERENCES**

1. Raymond Murpyh "ART FLEX" Publishing house 2017
2. Ingliz tili grammatikasi Muhammad G'aporov. Robiya Qosimova "Turon iqbol" Toshkent
3. [pinterest.themoffattgirls.com](http://pinterest.themoffattgirls.com)
4. [pinterest.madebyteachers.com](http://pinterest.madebyteachers.com)
5. Facebook.com <https://www.facebook.com/105424551296684/posts>



## O'ZBEK INGLIZ TILLARIDA HURMAT KATEGORIYASI.

Kamoldinova Odina

Farg'onan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hurmat kategoriyasining ingliz va o'zbek tilida lingvopoetik xususiyatlari muhokama etilgan. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida hurmat kategoriyasini tahlil etishda, ushbu tillarda mavjud, murakkab jarayon hisoblanmish hurmat kategoriyasining mavjud yoki mavjud emasligi, uning o'rni, tarjima hodisasi, shuningdek, muloqot obyekti ekanligini tahlil qilib o'rganish ifodalangan

**Kalit so'zlar:** hurmat, lingvopoetika, tilshunoslik, fonopoetika, leksopoetika, sintaktik poetika, badiiy nutq, badiiy asar.

Bugungi kunda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish konsepsiysi, fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanishga asoslanadi. Shu sababli mustaqillikning dastlabki yillaridayoq respublikamizda fan va ta'lim sohasidagi islohotlarga, yetuk kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Asrlar davomida shakllangan ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarimizga tayangan, bugungi kunda yangi istiqlol mafkurasi bilan oziqlantirilayotgan, shu bilan birga, bizni umumbashariy ulug' ma'naviyat sari yetaklayotgan milliy ongimiz, shuurimiz va dunyoqarashimiz o'zbek nutqi madaniyatini, ona tilimizning amaliy jihatlarini zamon talablariga mos holda o'rganish barchamiz uchun zarurdir. Biron tilning so'z tarkibi hali u tilning to'liq tarkibini belgilab bermaydi. O'zlashgan so'zlar mazkur tilda qurilish manbasi singari aks etadi. Tilda ikki yoki undan ortiq kishilarning afektiv baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashishidan iborat bo'lgan o'zaro ta'siri -muloqotni ifodalaydi. Muloqot odobi muammosini milliy xarakter, millatning o'ziga xos qadriyat, urf-odatlari, va an'analarini hisobga olmasdan turib, o'rganish mumkin emas. Chunki muloqot xulqi millat xarakterining uzviy bir qismi bo'lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqidir. Bunda hurmat kategoriyasining o'z o'rni bor.

J.Lakoffning ta'kidlashicha, muomala jarayonida ayollar yuqori darajadagi empatiya va o'z suhbatdoshiga nisbatan moslashib ketish kabi xislatlar bilan farqlanadi, o'z suhbatdoshining mulohazalarini diqqat bilan tinglab, muloqot jarayonida ustun bo'lishga harakat qilmaydi. Erkaklar esa suhbat chog'ida yana ham jizzakiroq, sharoitni nazorat qilishga intiladilar, o'zaro kelishishga harakat qilishadi, deb biladi. U shuni ham ta'kidlaydiki, ingliz tilida qayd etilgan xususiyatlarga qo'shimcha qilgan holda, ayollar tasdiq so'roq gapga tushuvchi intonasiya qo'llash o'rniga ko'tariluvchi intonasiyadan, semantik jihatdan chuqur ma'noga ega bo'limgan leksika, odatiy ayollar faoliyatini tasvirlaydigan maxsus o'zlashtirma so'zlardan, so'zlayotgan nutqni kuchli his-hayajon



ma'nolarni ifodalovchi til vositalari va modal yuklamalardan keng foydalanishadi. Erkaklar esa undov so'zlar qo'llamasliklari, stilistik bo'yoq darajasi kam va haqorat ma'nosi kelib chiqadigan jargonli leksikani juda ko'p ishlatishlarini ham qo'shib qo'yadi[6]. Muloqot uslubidagi farqlar ayollar va erkaklar orasidagi munosabatlarda paydo bo'ladigan muammolarni aniqlashtirmaydi. Ya'ni, munosabatlarda ruhiy muammolar, ya'ni sevgidagi yoki e'tibordagi omadsizlik, chin dillik, xudbinliklar ba'zan aks etadi. Va ular siyosiy va iqtisodiy tengsizliklarning natijasidir. Ammo aytib o'tilgan xususiyatlar asossiz ifodalanishi ham tez-tez uchrab turadi. Demak, ayol va erkak borliqni turlicha qabul qiladi va baholaydi. Nutqiy muomalaning gender o'zgaruvchanligi tilning turli sathlarida, ya'ni fonetik, leksik, grammatik, semantic sathlarda namoyon bo'ladi. Gender munosabatlar faqatgina kodlangan ko'rinishda ishlatilmay, balki nutq hodisasining mavzular majmui va xususiyatini yuzaga keltiradi.

Biroq bizning kuzatuvlarimiz natijasida quyidagi xulosaga keldik: erkaklar ijtimoiy mavqeい nuqtai nazaridan ayollardan ko'ra balandroq pog'onada ekanligini ko'rsatish o'rniga ayollarga nisbatan hurmati baland, suhbat davomida ayollar o'zini qulay his etish imkonini yaratib berishga intilishlari ma'lum bo'ldi. Shunday qilib, gender munosabatlar jamiyatdan ahamiyatga molik bo'lgan darajada o'zgarib borib, muayyan universal qolipga ega emasligi ma'lum bo'ldi. Xulosa qilib aytganda, gender tilshunosligida ayollar va erkaklar nutqining farqlari bo'yicha talaygina ma'lumotlar yig'ilgan bo'lib, ko'pgina tilshunoslari ishlarida ayollar erkaklarga qaraganda e'tiborga molik bo'lgan til shakllarini qo'llashi va ularning nutqi o'zgaruvchanligi (variativ) tadqiq qilingan. Erkaklarning nutqi til o'zgarishlariga og'zaki nutqni jalb qila turib faollik bilan ko'nikma hosil qiladi

Shuningdek, "Kelingizlar" so'zidagi -ingiz – hurmatni bildiradi, -lar esa ko'plikni ifodalaydi. Hozirgi o'zbek tilida siz aslida tinglovchi ko'pligidir. Biroq yoshi, martabasi ulug', hurmati bor kishilarga ham siz deb murojaat qilinadi. Tilimizda "sizlab gapir", "senlab gapir" degan iboralar ham bor. bo'lganda salbiy ohangda humatsizlikni, hatto mensimay so'zlashni ham bildiradi. Yuqoridagi misolda dadamlar, oyimlar deganda ko'plikni emas, ularga bo'lgan hurmatni ifodalangan. Nutq jarayonida hurmat shu qadar kuchliki, hatto hurmatga sazovor kishining ish-harakati va holatiga, unga tegishli narsalarga ham hurmatni bildiruvchi qo'shimcha qo'shib so'zlanadi. Masalan: Dadajon, ovqatingizni yeb oling gapini olaylik. Ovqat so'zi otaga tegishli, shuning uchun unga hurmatni bildiruvchi - ingiz qo'shimchasini qo'shib ovqatingiz deyiladi. Keyingi yeb oling- fe'li ham otaga qarashli, shuning uchun u ham hurmat shaklida. Ko'plik shakli hurmatni ifoda etganligini Mahmud Koshg'ariy ham ta'kidlagan edi. Uning yozishicha, turklar sen so'zini kichiklarga, xizmatchilarga



hamda so`zlovchidan daraja, martaba, yoshda quyi bo`lgan kishilarga nisbatan qo`llaganlar. O`zlaridan yuqori hurmatli kishilarni siz deganlar. O`g`uzlar esa, aksincha, kattalarga sen, kichiklarga siz deb qo`llaydilar. Ko`plikda ham shuni ishlatganlar Ingliz tilida hurmat quyidagicha ifodalanadi: Ism bilan murojaat qilayotganda, inglizlarning familiyasini tegishli nom bilan chaqirish hurmatni ifodalaydi. Agar ismini bilmasa, janob yoki xonim deb murojaat etish hurmat m`nosini ifodalaydi. Bundan tashqari ingliz xalqi madaniyatida hurmat qadrlanadigan muhim tushuncha bo`lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, o`zbek xalqi so`zlashuv xulqi, muomala madaniyati bilan ajralib turadi. Yuqorida ko`rib chiqqan asar tahlillaridan ko`rinib turibdiki, o`zbek xalqi ham kattalarga hurmat va kichiklarga izzatga juda katta ahamiyat berishadi. Ingliz xalq madaniyatida hurmat etiket qoidalari sifatida amalga oshiriladi. Hurmat kategoriyasi qonun-qoida sifatida qo`llaniladi. Hurmat kategoriyasi fikrni lo`nda, aniq va obrazli qilib ifodalashda nutqimiz uchun juda ham zarur bo`lgan vositalardan biri hisoblanadi. Binobarin, xalqning ko`p asrlik ijtimoiy tajribasida ming martalab tasdiqlanib kelgan ibratli fikrlar har kun, har soat nutqimizga mazmuniy go`zallik, o`ziga xos jilo baxsh etib kelmoqda. Ulg`ayib kelayotgan yosh avlodni shu ruhda tarbiyalaydi.

#### **ADABIYOTLAR RO`YXATI: (REFERENCES)**

1. Graham J., Haidt J., Koleva S., Motyl M., Iyer R., Wojcik S. Axloqiy asoslari nazariyasi: axloqiy plyuralizmning pragmatik asoslari. 2013.
2. Richardson D. S, Spivey M. J., Edelman S., Neapol A. D. Til fazoviy: aniq va mavhum fe'llarning tasviriy sxemalari uchun eksperimental dalillar.2001.
3. Zulfiyeva Y.-lar affiksining so`z tarkibidagi qo`llanish xususiyatlari// O`zbek tili va adabiyoti. –T.: 1972. 5 –son.
4. Zikrillayev G'.Fe'lning shaxs,son va hurmat kategoriyalari sistemasi.- Toshkent:Fan,1990 -163b.
5. Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk (Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov). T. I-II-III. –T.: Fan, 1960-1963. I. –B. 326.



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O'QITISH  
METODLARI.  
Sheraliyeva Omina

Farg'onan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi xorijiy tillarni boshlang'ich sinflarda va kommunikativ maqsadlarda o'qitilishiga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Ingliz tili boshlang'ich ta'limga o'quv predmeti sifatida kiritildi, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitish yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Ushbu maqolada boshlang'ich sind o'quvchilariga ingliz tilini o'qitish metodlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** didaktik, umummetodik, tamoyil, autentik material, multisensor, nutq namunasi, korrelasiya, yondashuv, verbalizatsiya, vizual, vositachi til

Ta'lim tarbiya jarayoni didaktik, psixologik, lingvistik, metodik va boshqa qonuniyatlarga amal qiladi. Ularning ayrimlari barcha fanlar uchun umumiyo bo'lishi mumkin. Bu qonuniyatlar ta'limning umum-didaktik tamoyili deyiladi. Boshqa qonuniyatlar esa ayrim fanlarni o'qitishga xos bo'lishi mumkin, masalan; ingliz tili o'qitish tamoyillari. Tamoyil tushunchasi didaktikada hali to'la hal etilmagan. Agar bir guruh tamoyillar ta'lim jarayonining qonuniyatlarini ifodalasa, ikkinchi guruh tamoyillar qaysidir nutq faoliyatining turiga xos bo'lgan qonuniyatlarni ifodalaydi, uchinchisi esa til materialining qaysidir bo'limiga xos bo'lgan tamoyillardir. Oxirgisi maxsus tamoyillar deyiladi<sup>2</sup>. Tamoyil (prinsip) termini «asos bo'ladigan yo'l-yo'riq, qonun-qoida» ma'nosini ifodalaydi. Ye.I.Passov fikricha, «tamoyil – o'qitish jarayoni atalmish binoning poydevoridir»<sup>3</sup>. Konsepsiya va tamoyillarning to'g'ri tanlanishi darsda tashkil etiladigan faoliyatning samaradorligini ta'minlaydi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ushbu faoliyatga qiziqishlarini orttiradi.

Xitoy ixtirochilaridan biri Masaru Ibuka mashhur "Ushdan keyin juda kech" kitobida yozganidek: "...bolaning miyasi cheksiz miqdordagi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin...". Yana shunga e'tibor qaratish kerakki, 6-7 yoshdagi bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushinib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning unchun ham ingliz tilini o'rganayotgan boshlang'ich sind o'quvchilariga tilni o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani charchatishi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishini susaytirip qo'yishi mumkin. Chunki boshlang'ich sindagi o'quvchilarga chet tilini o'rgatish qiyin shu bilan birga mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning unchun ham boshlang'ich sinflarga ingliz tilini mazmunli va qiziqrli o'rgatish uchun quyidagi innovatsion metodlardan foydalanish mumkin : Ko'rish orqali eslab qolish . Ma'lumki,



yosh bolalar eshitgan ma'lumotlaridan ko'ra, ko'proq ko'rgan predmetlarini eslab qoladi. Shunday ekan, darsni turli xil ko'rgazmali qurollar, plakatlar orqali, ko'zga ko'rindigan va kundalik hayotda ko'p ishlataladigan narsa, buyumlarga yozish orqali yangi so'zlarni o'rgatish va o'rgangan yangi so'zlari ishtirokida gaplar tuzish. Masalan, kitob (book), stol (table), doska (blackboard), ruchka (pen), oyna (window) va shu kabilarga yozish. Kundalik hayotda ko'p ishlataladigan bunday narsa-buyumlar ko'zga doimo tushib turishi va doimo qo'llanishi bois, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi. Qo'shiq va she'rlar orqali tushinish yoki eslab qolish qiyin bo'lgan so'zlarni musiqaga solib kuylash. Bunda yangi so'zlarni eslab qolish bilan birga, bolaning og'zaki nutqi ham rivojlanadi. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin. Bunda bolalar o'qituvchi bergen turli xil topshiriqlarni bajaradi. Natijada o'quvchilar orasida raqobat vujudga kelib, til o'rganishga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi. Zero, Xitoy mutafakkirlari aytganidek: "Insonning barcha qiziqishlari raqobat orqali vujudga keladi". Aralash texnika bu yerda biz ixtiyoriy ravishda turli xil texnikalarni birlashtira olamiz. Masalan, bunda bolalar o'yin o'ynashi, qo'shiqlar aytishi, rasm chizishi, turli xil harakatlar orqali yangi so'zlarni ko'rsatib berishi mumkin. Texnikaning afzalligi xilmallikkida. Bunda o'quvchi faqat bitta narsa orqali cheklanib qolmaydi. Multfilmlar orqali o'rgatish. Ma'lumki, bolalar turli xil multfilmlarni ko'rishga qiziqadi. Ingliz tilidagi multfilmlarni ko'rish jarayonida esa, multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilim qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlata yotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

Ilmiy manbalarda boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitish konsepsiyalari va bir necha o'nlab tamoyil (pritsip)larni olg'a surilgan. Masalan, Yevropa Ittifoqining Ta'lim va madaniyat tadqiqotlar dasturi doirasida 2005-2006 yillarda bajarilgan «Good Practice and Main Principles» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan ilmiy tadqiqotda boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitishning asosiy tamoyillari muhimlik mezoni asosida quyidagi tartibda umumlashtirilgan:

- 1) mazmunli kontekst va o'quvchi yoshiga mos mavzu tanlash (didaktik);
- 2) ingliz tili o'rganishga ijobiy yondashish(pedagogik);
- 3) xolistik o'rganish (metodologik);
- 4) ingliz tili amaliy mashg'ulotlarida o'quvchilarning yoshga oid psixologik va jismoniy yetuklik darajalarini to'liq inobatga olish (psixolingvistik);
- 5) o'quvchilarni o'zgalarga nisbatan bag'rikenglik va turli qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash (pedagogik);



Ingliz tili o'qitish amaliyotida taklif etilgan qoidalar va qarashlar lingvodidaktik (tillar ta'limshunosligi) tamoyillar maqomida umumlashtirilgan va ilmiy asoslangan. Masalan, J.Jalolov nomlanishi va mohiyatida tafovutlar bo'lishiga qaramay, quyidagi didaktik tamoyillarni umumlashtirgan: tarbiyaviy ta'lim, onglilik, faollik, ko'rgazmalilik, sistemalilik (izchillik), individual yondashish, (bilimlarni) puxta o'zlashtirish, o'quvchi kuchiga moslik kabilar. N.A.Gorlova boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitishning didaktik tamoyillarini quyidagicha umumlashtirgan: faollik, ko'rgazmalilik, o'quvchi salohiyatiga moslik, individual yondashish, sistemalilik.

Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishning psixolingvistik tamoyillari Til o'rganish aqliy faoliyat bo'lganligi tufayli uning psixologik asoslari mavjud. Aqliy faoliyat ruhshunoslikda ilmiy jihatdan tekshiriladi. Shu munosabat bilan ingliz tilio'oqitishning psixologik tamoyillarini tadqiq etish ehtiyoji tug'iladi. Ilmiy manbalarda ingliz tili o'qitishning ikkita psixologik tamoyillari ishlab chiqilgan. Psixologik tamoyillar «verbalizatsiya» (o'zga til amalda faqat og'zaki nutq orqali o'rganiladi) va «korrelatsiya» (ingliz tili materialining muayyan chegarasi aniqlanadi, birinchi galda nutq malakalarini hosil qilish uchun mo'ljallangan til birliklari majmuyi shakllanadi) nomlarini olgan. Ingliz tilio'oqitishning tilshunoslik asoslari birmuncha tadqiq etilganligiga qaramay, metodika fanida ingliz tili o'qitishning lingvistik tamoyillari masalasiga kam e'tibor qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdag'i bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalananib dars o'tish ularning keljakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi darkor.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Saydaliyev S.S. Chet tili o'qitish metodikasidan ocherklar. – N.: Namangan, 2004. – 78-b.
2. Пассов Е.И., Кузовлева Н.Е. Урок иностранного языка. – М.: Голоса-Пресс, 2010. – 640 с.
3. Jalolov J.J. Ingliz til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
4. Edelenbos P., Johnstone R., Kubenak A. The main pedagogical principles underlying the teaching of languages to very young learners. Final Report of the EAC 89/04, Lot 1 study. 2006. – 196 p.
5. Ellis R. Principles of Instructed Language Learning. – Asian EFL Journal, 2005. – P. 10-26. Electron resource: <http://www.asian-efl-journal-AsianEFLJournal.TheEFLProfessionals'WrittenForum>. Access date: 4.06.2017.



## TILLARNING SHAKILLANISHI VA TARAQQIY QILISHI.

Rayimjonova Saodat

Farg'onan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya** Til kishilar o'rtasidagi munosabatning eng muhim quroli bo'lib jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va umum insoniy manfaatlarni ifoda etadi. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi insoniyat jamiyati bilan mustahkam bog'liq. Til insoniyat tarixi qadar qadimiydir. Xalq qardosh qabilalar ittifoqi sifatida shakllangan murakkab tarixiy uyushmadir. Tillar juda kichik, ajratilgan guruhlarga xos bo'lib, ularning a'zolari hozirgi voqealarni juda yaxshi bilishadi, ular ma'lumot almashish uchun etarlicha qisqa va lo'nda so'z-jumlalarni topadilar, ularda fe'l o'zaklari predmet va holatlarni bildiruvchi affikslar bilan birlashadi. Ushbu maqolada tillarning shakillanishi va taraqqiy qilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Til, millat, o'zlikni anglash, so'z sehri, millat ruhi, ta'lim tizimi, onglik, evolyutsiya, kuzatuvalar,

**TIL** - insonlar orasidagi aloqa vositasi, jamiyat a'zolarining fikrni ifodalashi va o'zaro fikr almashishi uchun xizmat qiladigan vosita. Tilning tabiiy-ilmiy, diniy-dunyoviy talqinlari bor. Diniy talqinga ko'ra, Til ilohiy kuch tomonidan yaratilgan va hozirgi holicha insonga berilgan. Dunyoviy talqiniga ko'ra, Til hozirgi ko'rinishi darajasiga yetguncha juda uzoq evolyutsion jarayonlarni, ya'ni insonning o'zining shakllanishi va takomillashuvi jarayonlari bilan teng davrni bosib o'tgan. Ilm-fan inson Tiliining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganishi natijasida shunday xulosaga keldiki, Til aloqa vositasi, nutq sifatida, shubhasiz, faqat inson miyasining mahsulidir. Ayrim boshqa jonivorlar, masalan, shimpanze, to'tiqush, chug'urchiqlar ham insonga xos tovushlar chiqarib "gaplashadi", hatto, ayrim hollarda jumla va iboralarni takrorlaydi. Biroq, ular inson kabi gaplashishga

qodir emas. Og'zaki nutqqa o'rganish - insoniyatning evolyutsion taraqqiyotida hal qiluvchi qadam bo'ldi. Nutq qobiliyati unga inson sivilizatsiyasi asoslarini qurish imkoniyatini yaratdi. Dastlabki inson jamoalari og'zaki nutqni birgalikda harakat qilish, mudofaa, umuman faoliyatning hamma turlarida hamjihatlik ko'rsatish, hamkorlik qilish, buyruqlarni ifodalash maqsadiga qaratganlar va bundan uzoq vaqt samarali foydalanganlar. U paytlardagi inson Tiliining so'z boyliklari ko'p miqdorda bo'lmasa-da, davr o'tishi bilan, ayniqsa, kishilar, jamoalar bir-birining Tilini boyitish imkoniyatlari tufayli u tobora boyib, takomillashib bordi. China-kam ommaviy nutq yuzaga keltiruvchi har bir kishining nutqiy tajribasi juda qisqa va o'tkinchi bo'lgan, ya'ni vafot etishi bilan uning tajribasi ham o'lgan. Bir kishining nutqi insoniyatning



umumiylishtarak nutqiy tajribasi sifatida avloddan-avlodga o'tib, avval og'zaki, keyinchalik yozma ko'rinishini kasb etguncha juda uzoq zamonalr o'tgan. Biroq, Til og'zaki va yozma nutq sifatida to'la shakllangach, u insonning ham jisman, ham ijtimoiy jihatdan juda tez taraqqiy etishini ta'minladi. Til tufayli insoniyatning ijtimoiy hayoti, uning naslining miqdoriy jihatdan o'sishi ham aql bovar qilmas darajada ilgarilab ketdi. Bir vaqtlar tropik o'rmonlarda oddiy tirikchilik uchun jon berib, jon olib yurgan odamzod nutq sharofati bilan zaminning yakkayu yagona egasiga aylandi. Miqdoriy jihatdan ham o'sdi. Ibtidoiy odamlarning dastlabki muomala vositalari va so'zlaridan tortib, Tilning bugungi darajasiga yetguncha insoniyat 3 mln. yildan kamroq masofani bosib o'tdi. Shakllanish, taraqqiy etish va takomillashish jarayonlarida Tillar, dastlab, ko'proq mushtaraklik va umumlashtiruvchilik vazifasini bajargan, ya'ni bugungi kunda turli Tillarda gaplashayotgan millat va elatlar, avvallari bir-birini tushunadigan bir Tilda gaplashgan, vaqt o'tishi bilan, turli-tuman ob'ektiv sabablar tufayli, ular bir-birlaridan uzoqlashib, Tillari o'zaro farqlanadigan shaklga kelgan. Tillarning bunday ajralish jarayoni (differensiatsiya) natijasida ko'pchilik uchun mushtarak aloqa vositasi bo'lgan bir Tildan keyinchalik bir necha Til yuzaga kelgan. Hozir Tilshunoslikda turkiy Tillar deb yuritilayotgan Tillar bir-biridan nafaqat uzoqlashish, ajralish xusyatiga, balki bir-biriga yaqinlashish, bir-birini boyitish xusyatiga ham egadir. Turli Tillarning bir-biriga ta'siri va o'zaro yaqinlashuvi natijasida yangi Tillar vujudga kelishi ham mumkin. Shu bilan birga, biron-bir xalqning fikr almashish vositasi bo'lishdan to'xtagan va unda gaplashuvchilarining yo'q bo'lib ketishi yoki boshqa tarixiy, ijtimoiy, madaniy sabablarga ko'ra, muomaladan chiqqan Tillar ham mavjud. Bunday Tillarni o'lik Tillar deyiladi. Masalan, shumer, lotin, qadimiy yunon, sanskrit shular jumlasidandir. Tilning kelib chiqishi va evolyutsiya bosqichlari haqida qadimiy misrliklar va xorazmliklar, yunonlar va hindlar, xitoyliklar va forslar turli xil ilmiy farazlarni ilgari surganlar.Ulardan ayrimlari, Til tovush Tili sifatida yuzaga kelgan desa, boshqalari Til dastlab imo-ishora Tili ko'rinishida bo'lgan deydi.Til odamlar orasida aloqa vositasi sifatida ehtiyoj tufayli tabiiy suratda vujudga kelgan (Aflatun), o'zaro aloqa qilish uchun Tilni odamlarning o'zlari yaratganlar(Demokrit), Til ilohiyot tortig'i("Injil","Qur'on") kabi qarashlar ham bo'lgan. Til ,shubhasiz, jamiyatda ijtimoiy mehnat, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelgan muayyan jamoa, odamlar guruhi yoki alohida shaxs faoliyatini muvofiqlashtirish vositasi bo'lib xizmat qilishi kerak. Fiziologik asosiga ko'ra, Til ikki signal tizimi vazifasida namoyon bo'lishini I.P.Pavlov kashf etdi va uni inson psixikasiga o'ziga xos qo'shimcha deb atadi.Til va tafakkur o'zaro ajralmas, chambarchas bog'liq hodisalardir. Lekin ularning



ikkovi bir narsa emas. Til tafakkurning ifoda shakli va yashash tarzi sifatida inson ongining shakllanishida ham muhim orin tutadi.

Til tizimining o'zini o'zi boshqarishi til rivojlanishiga ta'sir qiluvchi muhim ichki omillardan biridir. Turli darajadagi innovatsiyalarni idrok etish, toplash va o'zlashtirish uchun turli xil imkoniyatlar mavjud. Fonologik daraja nisbatan ochiq. Fonologik tizim birinchi bo'lib innovatsiyalarni faol ravishda to'pladi. Ildiz morfemasiga urg'uning biriktirilishi va keyinchalik bukilishning bo'shashishi eng muhim yangiliklardan edi. Fonologik o'zgarishlar ingliz va nemis tillari tizimlarida morfologik paradigmalarning qayta tuzilishiga olib keldi. Tashqi omillar nemis tili tizimiga qaraganda ingliz tili tizimining diaxronik rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Skandinaviya vikinglari va normanlarning tillari bilan o'zaro bog'liqlik va keyingi aloqalar til o'zgarishining tez sur'atlariga olib keldi. Til tizimining o'z-o'zini ta'minlash haqiqatini tan olgan holda, tizimli rivojlanish sabablarini kuzatish va uning bosqichlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Ko'rsatilgan bosqichlarning tipologiyasini aniqlab, bir xil turdag'i tendentsiyalar aniqlanganda, ma'lum bir tillar guruhi uchun evolyutsianing universal bosqichlarini aniqlash mumkin. Ikki german tilining evolyutsion jarayonlarini qayta qurishda umumiyligi tendentsiyalar aniqlanadi, ammo tashqi va ichki omillarning o'zaro ta'siri tufayli til o'zgarishlarining aktuallashuv tezligi bir xil emas. Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Evolyutsion tendentsiyalarni o'rganish til tizimining sinxron va diaxronik darajada mavjudligining yangi qirralarini ochib beradi, bu esa ularni qiziqqtiradi. Yanada rivojlantirish diaxronik tilshunoslik. Til tizimi evolyutsiyasi bosqichlarining tipologik tadqiqotlar doirasiga kiritilishi til diaxroniyasi masalalarini nazariy jihatdan qayta ko'rib chiqishga ma'lum hissa qo'shadi. Bitiruv malakaviy ishda keltirilgan fikrlarni rivojlantirish tilshunoslikning boshqa sohalari materiallarida davom ettirilishi va turli lingvistik materiallar bilan tasdiqlanishi mumkin. Lingvistik tahlil jarayonida olingan natijalar diaxronik tushunchalarni tuzatish uchun ishlatilishi mumkin. To'plangan va miqdoriy jihatdan tizimlashtirilgan material umuman til tizimi evolyutsiyasining lingvistik va bashoratli xususiyatlari uchun muhimdir.

**Xulosa:**O'zbek tili – bu o'zbek xalqining taraqqiyot va madaniyati bosib o'tgan yo'l. Shu boisdan ham o'zbek tilini o'rganish va avaylash shunchaki bekorchilikda qilinadigan ish emas, balki u muhim zarurat taqozosidir. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning Bayrog'i, Gerbi, Madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi. Har bir tilning qudrati va afzaliyatları shu tilni yaratgan xalqning o'zi bilan birga yashasagina rivojlanib, o'sib boradi. O'z xalqidan va sarzaminidan uzilib qolgan til tabiiy kuchini,





boyligi va go‘zalligini yo‘qota boshlaydi. Demak, el borki, til bor. Eldan uzilmagan odam tildan ham ayrılmaydi. Ushbu xulosalarimiz Alisher Navoiyning “Tilga ixtiyorsizlik elga e’tiborsizlikdan kelib chiqadi”, degan fikrini yana bir bor tasdiq etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.oyina.uz sayti.
- 2 Shuhrat HOTAMOV, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya Harbiy-texnik instituti dotsenti “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2020-yil 23-oktabr, 182-son.
- 3 Badiiy publististik adabiyotlar “ TIL VA EL “ “ TIL VA ADABIYOT SIYOSATI”.
- 4 Milliy Ensiklopediya.
- 5 “Turkiston qayg‘usi” kitobidan



## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING CHET TILLARIDA LUG'AT BOYLIGINI OSHIRISH METODIKALARI

**Axmedova Gulira'no Raximjon qizi**

Farg'ona davlat universiteti, ingliz tili va dabiyoti fakulteti, xorijiy til va adabiyot yo'nalishi 2-bosqich, 21/85 guruh talabasi

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tillarini o'qitish metodikasi, uning tayanch yo'nalishlarini o'rGANISH, lug'at boyligi oshirishda yangi inovatsion texnologiyalar va ularning 7 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarda qo'llash texnikasi, asoslari va tamoyillari shuningdek, so'z boyligini oshirish ushbu davrda dolzarbliги haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** boshlangich sinf o'quvchisi, chet tili, metodika, lug'at, mimika, imo-ishora

### **METHODS OF INCREASING THE VOCABULARY OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN FOREIGN LANGUAGES**

**Axmedova Gulira'no raximjon qizi**

Student of Fergana State University, Faculty of English Language and Literature,  
Foreign Language and Literature, 2nd stage, group 21/85

### **ABSTRACT**

In this article, the methodology of teaching foreign languages to elementary school students in schools, the study of its main areas, new innovative technologies for increasing vocabulary and their application techniques to students from 7 to 11 years old. The basics and principles, as well as the relevance of increasing vocabulary in this period.

**Keywords:** elementary school student, foreign language, methodology, dictionary,

### **KIRISH**

So'z nutqimizning asosiy birligi, va uni tashkil etuvchi unsuri hisoblanadi. So'z va so'z birikmasi tildagi leksik jihatlarni tashkil etib, undagi aniq va mavhum tushunchalarni, hissiyotlarni bildiradi. Bundan tashqari, har bir nutqiy bayon, hoh u og'zaki yoki yozma bo'lsin o'quvchidan ma'lum grammatik ma'no, so'z va so'z brikmalarining moslashishini talab etadi. Shuning uchun ham tilni o'rGANISHDA uning leksikasi ya'ni lug'at tarkibini bilish muhim. Kishining ma'lum bir tilda so'z boyligi



qanchalik keng bo'lar ekan uning nutqi ham shunchalik ravon va keng bo'ladi. Shu sababli, chet tillarini o'qitishda boshlang'ich sinf o'quvchilarning so'z boyligi kelajakda anashu tilni mustahkam va tez o'zlashtirishlari uchun dastlabki qadam hisoblanadi. Ular kelajakda o'z fikrlarini aniq va ravshan yetkaza oladilar.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Hozirgi kunda yurdimiz maktablarida dunyo tillari bo'lgan rus, ingliz, fransuz, nemis tillari o'qilib kelinmoqda. Misol qilib ingliz tilini oladigan bo'lsak hozirgi kunda ushbu tilda O'zbekiston maktablaring deyarli 80% da ushbu til o'qitiladi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda har yili ingliz tiliga 1,000 dan ortiq yangi so'z qo'shiladi. Agar so'zlarning antonimlarni, sinonimlarini va so'zning ot (noun), fe'l (verb) shakllarini hisobga olsak yuqoridagi ko'rsatgich yanada oshib boradi. Maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining anashu so'zlarni yodlash jarayoni uchun yangi metodikalar kiritilishi hozurgi kun talabi hisoblanadi. Quyida bir necha so'z yodlash usullarini osonlashtiradigan metodikalar berilgan.

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga so'zlarni rasmlar orqali o'rgatish metodikasi.

Ushbu metodika hozirgi axborot texnologiyalari davrida keng qo'llansa bo'ladigan uslub hisoblanadi. Rang barang, ko'zga tashlanadigan rasmlar o'quvchining e'tiborini tortib, ularda qiziqish uyg'otadi. Shu orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida so'z yodlashga bo'lgan mativatsiya paydo bo'ladi. Shu orqali so'z yodlashni zerikarli mashg'uoltan zavqli, qiziqarli vazifaga aylantirish mumkin.

Boshqa tomondan olib qaralganda, ushbu metodika bolalarning kreativligini oshirish uchun ham hizmat qiladi. Ularga bitta rasm ko'rsatish orqali qo'shimcha so'zlarni ham yodlatish mumkin. Masalan, olma surati ko'rsatilishi bilan uning rangini, katta kichikligini va boshqa sifatlarini ham o'rgatish mumkin.

2. Realiya metodikasi.

Ushbu metodika o'quvchilarning real ko'rib turgan narsa nomlarini yodlashga qaratilgan texnika bo'lib, uni birinchi uslubdan farqi shundaki, o'quvchilar ko'zları bilan ko'rgan narsa nomlarini yod oladilar. Masalan, sinf xonasida bor bo'lgan narsalar, o'qituvchi tomonidan olib kelingan narsalar va shu kabi. Ushbu uslub bolalarda predmetni yaqqol nomoyon qilib, ularning tasavvurlarida so'zni paydo qiladi va ular so'zni oson eslab qoladilar. Ushbu metodikaning yana bir afzal tomoni shundaki, yodlangan so'z aktiv bo'lib xotirada uzoq muddatga saqlanadi.

3. So'zlarni harakatlar, mimika, imo-ishoralar orqali yodlatish metodikasi.

Ushbu metodika ham so'z yodlashning aktiv uslubi hisoblanib, fe'llarni, turli xil his-tuyg'ularni, imo ishoralarni o'quvchilarga oson yodlatishga xizmat qiladi. Masalan



dars mashg'ulotlarida o'qituvchi ma'lum harakatni o'quvchilarga ko'rsatib, bu so'zning ular o'rjanadigan tildagi tarjimasini aytadi. So'ng ulardan ushbu harakatni bajarishlarini so'raydi. Bolalar harakatlarni bajarishadi va so'zni takrorlaydilar.

Bilamizki, 7-11 yoshli bolalarda his-tuyg'ulami ifodalovchi so'zlarni yodlash qiyin jarayon. Chunki bu so'zlar mavhum bo'lib, an'anaviy dars mashg'ulotlarida so'zni yozib yodlatilgan. Hozirgi zamonaviy ta'limda esa yangi metodika mavjud. Ho'sh bu jarayon qanday tashkillanadi? Buning yechimi oddiy. O'qituvchi bollardan bugun qanday kayfiyatda ekanliklarini so'raydi va o'quvchilar javob beradi. Taxminiy javoblar quyidagicha: bugun hursandman, kayfiyatim yo'q, jahlim chiqqan, yaxshiman va hokzo. So'ngra o'qituvchi mimikalar bilan usbu hislarni ko'rsatib, ular o'rjanayotgan tildagi tarjimasini o'rgatadi, bolalar takrorlaydilar.

#### 4. Sinonimlar va anotonimlar orqali so'zlarni yodlash.

Ushbu uslub barcha yoshdagi til o'rjanuvchilar uchun so'z boyliklarini oshirishning eng samarali uslubi hisoblanadi. Chunki bir so'zni yodlash natijasida ularning ma'nodoshlarini va qarama-qarshi ma'nolarini yodla mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ham bundan mustasno emas. Ularga ham so'zlarning sinonimlari va antonimlari bilan birgalikda yodlatish so'zni tasavvur qilib yodlashga, tez esda qolishga hamda bir vaqtida bir necha so'zni o'rjanishga imkon beradi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu texnikalar so'z yodlashning aktiv usullari bo'lib bola bu jarayonda zerikmaydi va so'z yodlashga sevimli mashg'ulot sifatida qaraydi. Albatda so'z yodlash ikkinchi tilni o'rjanishda muhim. Chunki kelgusida o'quvchilarning gapirish ko'nikmasi ayni so'z boyliklarining ko'pligi bilan shakillananadi.

Yuqoridagi matodikalardan foydalanib Farg'ona shahar 17-sonli mактабда dars mashgulotlari olib borildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ushbu uslublar haqiqatda zamonaniy darslar uchun mos keladi. Hamda o'quvchilarning lug'at boyliklarini oshirishga hizmat qiladi.


Dars mashg'ulotlari davomida bolalarning 90% rasmda ko'rsatilgan rasmlarni eslab qolgan. O'quvchilardan ushbu metodika haqida so'ralganda ular so'zlarni qiziqish va ishtiyoq bilan o'rganganliklarini bildirganlar. Qo'lgan 10 foizi o'quvchi esa shunchaki rasmga qaragan, so'zni takrorlamagan.

2-metadikada 10 nafar o'quvchi qatnashgan bo'lib, ulardan 7 tasi ko'rsatilgan narsalarni nomini aytaolgan. 3 nafar o'quvchi esa so'zlarni eslay olmagan.

3-uslubda o'tkazilgan tatqiqot shuni ko'rsatadiki, sinfdagi bolalarning 80% harakatni nomi bilan aytalaydi. 11% harakatni o'zini bajargan, qolgan 9 foizi o'quvchilarga qarab bajarganliklarini bildirgan.



O'tkazilgan tatqiqotlarga ko'ra, o'quvchilar sinonimlar va antonimlar orqali so'z yodlaganlarida birmuncha qiyinchilikka duch kelishgan. Uyda takrorlash orqali so'zlarni eslab qolishgan. Ammo bu ularda ko'proq so'zni yodlashga imkon bergan.



## XULOSA

Xulosa qilib shuni takidlash joizki, ushbu davrda chet tilini bilish zarur omil hizoblanar ekan undagi so'zlarni yod olish muhim jarayon hisoblandi. Yuqorida sanab o'tilgan usullar bevosita so'zlarni 7 yoshdan 11 yoshga bo'lган bolalarda yodlashga qaratilgan texnikalardir. Natijalardan olib qoralgan eng oson, samarali usul-so'zlarni rasmlar orqali o'rgatish bo'ldi. Shunday ekan o'qituvchilar o'z dasrlarida ushbu metodikada foydalansalar bu o'quvchilar uchun foydali bo'lishi aniqlandi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Расулов Р. Умумий тилшунослик. –Тошкент. Фан, 2007. – Б. 255.
2. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. I т. Магруфова З.М. Тахрири остида – М.: Русский язык, 1981. 228-б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 1 жилд. Мадвалиев А. тахрири остида. –Т.: Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2006. 624-б.
4. Rasulov R. (2020). Kelajak – til sohiblariniki. Til va adabiyot ta'limi, 7(7), 63- 64.
5. Ботирова Ш.И. (2020). Об обучении студентов филологии основам анализа и литературным терминам. Преподавание языка и литературы, 7(7), 82-83.



6. Botirova, S. (2020). The Role of Artistic Psychology in the Metaphorical Harmony of Man And the Reality of Life. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 9(4), 16-20.
7. Mardonov, S., Khodjamkulov, U., Botirova, S., & Shermatova, U. (2020). The Need to Educate Young People with the Spirit of Patriotism in the Context of Globalization. *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 166-169.
8. Botirova Sh.I. (2020). For Students of Philology Teaching Literary Conditions of Learning Basic Analysis. *Science and Education*, 1(5), 110-113.
9. Botirova Sh.I. (2020). Problematic Aspects Related To the Use of Educational Technologies And Interactive Methods In The Classroom. *International Journal of Multidisciplinary Research*, 6(8), 539-541.
10. Botirova Sh.I. (2020). The Relationship Between Symbolically Figurative Interpretation And Psychology. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 9(9), 12-15.
11. Botirova Sh.I. (2018). Methodology And Technology of Social And Pedagogical Activity. *Теория и практика современной науки*, 1(31), 14-16.
12. Botirova Sh.I. (2018). The Role of Artistic Literature In The Spiritual Development of Youth. *Мировая наука*, 5(14), 26-28.



ERKAK VA AYOLLAR NUTQIDA HURMAT KATEGORIYASINING TURLI  
KO'RINISHLARI.  
Turdaliyeva Nilufar

Farg'onan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** Ayollar va erkaklar muloqot madaniyati o'ziga xos xususiyatga ega. Ular nutqining farqli xususiyatlari borasida tilshunoslikda bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ayrim xalqlarda ayollar nutqi alohida tadqiqot sifatida maydonga kelgan. Ushbu maqolada erkak va ayollar nutqida hurmat kategoriyasining turli ko'rinishlari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** murojaat so'zlar, murojaat shakllari, erkaklarga xos murojaat so'zlar, ayollarga xos murojaat so'zlar, semantika.

Erkaklar va ayollar nutqining o'ziga xos xususiyatlari haqida suhbatni boshlashdan oldin, gender tilshunosligi nima ekanligini tushunish va ushbu tadqiqot tarixiga biroz chuqurroq kirib borish kerak.

Ming yillardan beri bir turga mansub bo'lgan erkak va ayol bajaradigan vazifasi, jamiyatda tutgan o'rni jihatidan bir-biridan farqlanar ekan, tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham bu ikki jins o'zaro ajralib turadi. Xususan, lisoniy va nolisoniy birliklarning ularga nisbatan qo'llanishi hamda ularning lisoniy hamda nolisoniy birliklarni qo'llashlarida bu ikki jins vakillarida sezilarli farqlar kuzatiladi. Ko'pgina lisoniy va nolisoniy birliklar u yoki bu jinsga tegishli ekanligi bilan gender xoslanishga ega.

Yaqin vaqtargacha tilshunoslarni faqat odamlar guruhlari (psixolingvistika, etnolingvistika, sotsiolingvistika) o'rtasidagi farqlar bilan bog'liq bo'lgan tildagi farqlarni o'rganish o'ziga jaib qilgan. Ammo shu bilan birga, hech kim nutqning jinsga qarab farqlanishiga e'tibor bermadi. Nisbatan yaqinda tilshunoslarni erkak va ayol nutqining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor berishni boshladilar. Bu boradagi ilk mahalliy tadqiqotchilardan biri E.A. Zemskaya, M.V. Kitaygorodskaya va N.N. Rozanova.

Shunday qilib, atama jins gumanistik fanda jinsni (jinsiy) sof biologik tushunishdan farqli ravishda, jinsiy aloqani ijtimoiy tushuncha va hodisa sifatida belgilash uchun ishlatiladi. Jins tug'ilgandan beri beriladi, u tanlanmaydi. Gender - bu jinsiy farqlarning ijtimoiy tashkilotidir. Gender - bu jamiyatda ma'lum bir davrda jinsga mos keladigan xatti-harakatlarning madaniy xususiyati. Genderning yana bir ta'rif: gender - bu "erkak yoki ayolning o'rganilgan xususiyat, kutish va xatti-harakatining ijtimoiy-madaniy ko'rinishi. Gender jinsiy aloqaning ongli ma'nosidir."



Barcha xalqlarda erkak va ayol nutqining vakillari bor. Qizig'i shundaki, bunday fikrlar nafaqat tilshunoslarda, balki oddiy xalqda ham bor. Turli maqollar bunga guvohlik beradi: *uchta ayol - bozor va ettita - yarmarka; ayol tilda erkin, shayton esa ayolning Odam olmasida; ayol to'lovlari - g'oz yoshi; Siz ayolning Odam olmasini pirogga ham, mushukchaga ham ulab bo'lmaydi*; . Bu so'zlarning barchasi ayol nutqini salbiy baholaydi. Erkaklar nutqi norma, ayollarniki esa normadan chetga chiqish sifatida qabul qilinadi. Erkak va ayol nutqini baholashdagi farq shundaki, butun inson ongi "jinsidan qat'i nazar, erkaklik, mantiqiylik, oqilonalik va xolislik ustuvorligi bilan erkak mafkurasi g'oyalari va qadriyatları bilan to'liq to'yingan".

Shunday qilib, kommunikativ ravishda erkaklar va ayollarning xatti-harakatlarini (og'zaki va og'zaki bo'lImagan) hisobga olish kerak.

Ayollar va erkaklar muloqot madaniyati o'ziga xos xususiyatga ega. Ular nutqining farqli xususiyatlari borasida tilshunoslikda bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ayrim xalqlarda ayollar nutqi alohida tadqiqot sifatida maydonga kelgan. Bunday farqlanish muhim ahamiyat kasb etib, muloqot madaniyatida muhim o'rin tutadi. O'zbek tilshunosligida keyingi yillardagi tadqiqotlarda oz bo'lsa-da, bu haqda yoritib o'tilgan. Jumladan, S.Mo'minov, Sh. Iskandarovarning ilmiy tadqiqotlarida buni ko'rish mumkin. Muloqotning jins jihatidan xoslanishi muhim ahamiyat kasb etib, sotsiolingvistikating o'rganish muammolaridan biri sanaladi. Murojaat shakllarini jins jihatidan tahlil qilganda, erkak va ayol kishilarning nutqida qo'llaniladigan murojaat shakllari hamda erkak va ayol kishiga nisbatan qo'llaniladigan murojaat shakllari tarzida tahlil qilish lozim. Murojaat shakllari obyektning aniq yoki noaniqligiga ko'ra ikki turga ajratiladi:

- a) mavhum murojaat shakllari (ey, hoy, sen, siz);
- b) konkret murojaat shakllari. Murojaatning bu turida ism, laqab, taxallus, insonga xos bo'lgan belgi-xususiyat bildiruvchi leksik, insonni atovchi nominativ birliklar murojaat shakli vazifasini bajaradi.

Erkak kishiga nisbatan qo'llanuvchi nomlar orasida, ota semasini ifodalovchi leksik birliklar, ayniqla, alohida e'tirof etiladi. Otaga yaqin oila a'zolari tomonidan murojaat qilinganida, odatda, uni ismini aytib chaqirish hurmatsizlik hisoblanadi. Eriga otasi, dadasi, dadajonisi, bobojonisi, buvasi, bovasi deb murojaat qilishda "farzandlarining otasi", "hurmat", "yosh pog'onasining yuqori bosqichiga mansublik" va "qarindoshik", "yaqinlik" kabi semalar namoyon bo'ladi. Ma'no va tushunchasiz til mavjud bo'lmaydi. Kishilar o'z murojaat va munosabatlarida ana shu ma'noga asoslanadilar. Aks holda til o'z vazifasini bajara olmaydi, u o'zining asosiy vazifasini faqat ma'no va tushunchalar tufayli bajaradi, har qanday xabar, ma'lumot ma'no hamda



tushuncha asosida shakllanadi va yuzaga chiqadi. Inson va jamiyatning o'zi ham ma'no va tushunchalar, til va nutq tufayli mavjuddir. Agar "...jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiyligi va tushunarli til bo'lmasa, jamiyatdagi ishlab chiqarish to'xtaydi, jamiyat sifatida yashash tugaydi va u parchalanib ketadi" [Qurbanova M., 2014: 43]. Demak, insonning inson va jamiyatning shakllanish jarayonida ham tilning o'rni katta va shuning uchun ko'p olimlar "inson va jamiyat paydo bo'lishi jarayonidagi zaruriy komponentlardan biri til va nutqning shakllanishi bo'ldi" deb hisoblashadi. Murojaatning mazmunan har xil shakllanishi – quvonch, qo'rqinch, gina, iltifot, nafrat kabi ma'no ottenkalari qo'shilgan holda ifodalanishi – eng avvalo ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bog'liq. Til esa ana shu munosabatni qanday bo'lsa o'shanday, asliga mos holda ro'yobga chiqishi uchun vosita bo'ladi.

Agar erkak va ayol nutqiy xulq-atvorini ko'rib chiqishni umumlashtirsak, shuni ta'kidlash kerakki, har qanday so'zlovchi shaxsga ba'zi omillar ta'sir qiladi. Albatta, asosiy omil - so'zlovchining jinsi: "Ayollarda ko'proq fatik nutq harakatlariga ega; ular osonroq almashadilar, aloqa aktidagi rollarni "o'zgartiradilar". Erkaklar ko'proq o'zgaradi, ba'zi "psixologik karlik" ni ko'rsatadi - muhokama qilinayotgan mavzuga berilib, ular bilan bog'liq bo'limgan so'zlarga javob bermaydilar. Erkak nutqida terminologiya, nominatsiyalarning to'g'riligiga intilish, "kasb" omilining kuchli ta'siri, ayollarga qaraganda ko'proq, ifodali, ayniqsa stilistik jihatdan qisqartirilgan vositalardan foydalanish tendentsiyasi, nutqni ataylab qo'pollashtirish ham qayd etilgan. Mualliflarning fikriga ko'ra, so'kish erkaklar va ayollar tomonidan bir jinsli guruhlarda qo'llaniladi. Biroq, uni aralash guruhlarda talaffuz qilish odatiy hol emas. Mualliflar ayol nutqining tipik xususiyatlarini giperbolik ekspressivlik (dahshatli haqoratli) va "oh!", "ah!", "ah!" kabi so'z birikmalarining tez-tez ishlatilishini ta'kidlaydilar. Erkak va ayol nutqidagi assotsiativ maydonlar dunyo tasvirining turli qismlari bilan bog'liq: sport, ov, professional, harbiy soha (erkaklar uchun) va tabiat, hayvonlar, atrofdagi kundalik dunyo (ayollar uchun). Ayol nutqi hissiy jihatdan baholovchi lug'atning katta kontsentratsiyasini ochib beradi. Erkak nutqida stilistik jihatdan qisqartirilgan, haqoratli lug'at paydo bo'ladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Teliya V.N. Inson omili tilda: Ekspressivlikning til mexanizmlari - M.: Nauka, 1991. Pp. 32-33
2. I. Chikalovaning "Gender tadqiqotlari asoslari" kursi bo'yicha o'quvchi M.: MCGI, 2000 y.
3. Popova E.A. Erkaklar va ayollar nutqining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida // Rus nutqi. - 2007 yil, - 3-sont. - 40 dan 49 gacha.



## O'ZBEK ADABIY ASARLARIDA BADIY TIL O'RNI VA AHAMIYATI

Po'latjonova Odina

Farg'onan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiy asar tili va uslubi masalalari, badiy nutq uslubi, asar tiliga munosabat, badiy asarda syujetning yaratilishi, badiy ifoda vositalari, asar tarkibidagi so'zlar hamda iboralar tasviri haqida bayon qilingan. Shu bilan bir qatorda, badiy asar tilini ifodalashning o'ziga xos xususiyatlari hamda badiy matnda tashqi tuyg'u va tasvirning ifodalanishi namoyon etilgan. Badiy asar tlini o'rganishda muallif nutqi va personajlar nutqining o'zaro aloqadorligi badiy nutq uslubiyatining markaziy muammolari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** badiy asar tili, badiy nutq uslubi, janr va uslub, syujet

Badiy asar tiliga munosabat, uni badiy-uslubiy jihatdan o'rganish uzoq tarixga ega. Biroq unga jiddiy e'tibor XX asrning 30-yillarida ancha kuchaydi. Jahon va rus adabiyotshinosligida, keyinroq o'zbek adabiyotshunosligida bajarilgan ko'pgina tadqiqotlar buni tasdiqlaydi. Akademik V. Vinogradov: "Badiy adabiyot tilini tadqiq qilish tilshunoslik va adabiyotshunoslikka yaqin, biroq ularning har ikkisidan ajralib turuvchi maxsus filologik fanning tekshirish ob'yekti bo'lishi lozim", -deb ta'kidlaydi.

Badiy ijod so'z tanlashdan boshlanar ekan, har bir ijodkor uchun so'z mas'uliyatini g'oyat teran his qilish, oddiy so'zlarni ham mukammal badiy vositaga aylantirish, ular zimmasiga salmoqli ma'no yuklay olish nihoyatda zarur. Chunki, bunday so'z asarning qaysi qismida bo'lishiga qarab aniq badiy niyatni ifodalashga, so'zni polisemik (ko'p ma'noli) va stilistik (uslubiy) xususiyatini aks ettirishga, ma'lum vazifa bajarishga xizmat qiladi. Zero, so'z estetik ta'sir vositasi bo'lib, muallif tildagi ma'no rang-barangliklari, shakliy turfaliklardan teran anglay olishga intiladi. Bugungi kunda badiy asarni, uning poetik tilini o'rganishda falsafiy qonuniyatlar til tizimiga yana ham keng masshtabda olib kirilib, ularning negizida qator tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Badiy adabiyot tili umumxalq tili madaniyatida o'ziga xos hodisa sifatida yuzaga kelgan, badiylikka bo'ysundirilgan tildir. Har bir yozuvchining tili bir necha ming so'zdan tashkil topadi. U ana shu so'zlar boyligidan nutq uchun so'zlar tanlaydi, badiy obraz yaratishda u yoki bu badiy vositaga murojaat etadi. Shu ma'noda yozuvchining uslubi uning tilida o'z aksini topadi. Shuning uchun ham adabiy til yozuvchi uslubiga bog'liq holda o'rganiladi. Masalan, badiy asar tili yozuvchining nutq vositalarini tanlash tamoyili, obrazlar tizimi kabilar bilan bog'liq



bo‘ladi. Badiiy asar tilida faqat xalq nutq madaniyatining – jamiyat tili va uning individuallashtirilgan va umumlashtirilgan ifodasigina emas, balki xalq madaniyati uchun zarur bo‘lgan nutq shakllarining ifodasi ham o‘z aksini topadi. Badiiy tilning tarbiyaviy-estetik ahamiyati ham ana shundadir.

Umuman olganda, adabiy til taraqqiyotida mashhur, talantli yozuvchilarning alohida o‘rni bor. Badiiy asar tili va uslubi masalalari deb nomlangan tanlanma fanda ana shu muammolar xususida fikr yuritiladi, filolog talabalarga badiiy asar tili xususiyatlarini mustaqil tahlil qila olish ko’nikmalarini singdirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu tanlanma fan badiiy asarning g’oyaviy-estetik qiymatini belgilashda til vositalarining o‘rni va ularni o‘rganish usullari haqida talabalarga ixcham va asosli ma’lumotlar beradi. Shubhasiz, badiiy asarda kompozitsiya u yoki bu ijodiy ishning ketma-ketligini, mantiqiy davomiyligini tartibga keltiruvchi asosiy belgilardan biridir. Kompozitsiya lotin tilidan olingan bo’lib, compositio ijod, asar degan ma’noga ega. Kompozitsia har qanday badiiy asarning asosiy qismlaridan biri bo’lib, ijod mahsuliga yagona birlik va umumiyligliki taqdim etadi, uning elementlarini bir-biriga mos kelishini ta’minlaydi. Badiiy klassik adabiyotda eng ko’p tarqalgan kompozitsion tur bu rivojlanish (oshib borish, o’sish) kompozitsiasi hisoblanadi, u bir nechta murakkab jarayonlarni o‘z ichiga oladigan komponentlardan iboratdir. Syujet ( fransuzcha - sujet predmet, mazmun ) - adabiy asarda tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalovchi voqealar sistemasi, aniq voqealar tizmasida namoyon bo`ladigan harakatlar tarixidir. Badiiy asar tarkibida so’zlar hamda iboralar sehrli va maftunkor raqqosalarga o’xshaydi, degan edi mashhur rus yozuvchisi M.Prishvin. So’zlar va iboralardagi ana shunday xususiyatni to’g’ri anglash va ularning estetik qimmatini haqqoniy izohlash maqsadida “Badiiy asar tili va uslubi masalalari” tanlanma fani oliy o’quv yurtlari o’zbek filologiyasi fakulteti o’quv dasturiga kiritilgan.<sup>3</sup> Epistolyar adabiyotda so’z va gaplar obraz, manzara yaratishning o’ziga xos libosi, materialidir. Talantli yozuvchilarning qalami sehri ostida so’zlar hayotdagi narsa va hodisalarni inson ongida aniq tiklaydigan, gavdalantiradigan vositadir. Badiiy nutq faqat ko’chma ma’nodagi so’zlarning qo’llanilishidan iborat matn bo’lmay, majoziy vositalar badiiy nutqning o’ziga xos yordamchi vositasidir. Badiiy asarda leksik va frazeologik vositalarning obrazlar xatti-harakatini, ularning boshqa obrazlar bilan munosabatini ko’rsatishdagi roli hisoblanadi .

Atoqli adabiyotshunos O.Sharofiddinov asar tiliga e’tiborsizlikning xunuk oqibatlari haqida shunday xulosaga keladi: “Tilga bepisand munosabat uch jihatdan katta zarar keltirishi mumkin: birinchidan, oxir-pirovardida, umuman adabiy tilimizning rivojiga salbiy ta’sir ko’rsatadi; ikkinchidan, adabiyotimizning badiiy



saviyasiini tushirib yuboradi; uchinchidan, kitobxonning estetik didiga yomon ta'sir ko'rsatadi!”. So‘z – adabiy asarni vujudga keltiruvchi material. U o‘z holicha muayyan ma’noga ega bo‘lsa ham, boshqa so‘zlar bilan aloqasiz ijtimoiy-estetik ahamiyat kasb eta olmaydi. Shu bois so‘z tanlash va qo‘llash, uni ma’lum maqsadga qarata yo‘naltirish, asar muvaffaqiyatini ta’minlash ijodkor mahoratining muhim shartidir. So‘z asarning barcha unsurlari: sujet, kompozitsiya, obraz, til, badiiylikni yuzaga chiqaruvchi asosiy moddiy vosita bo‘lib, ijodkor iste’dodi va tasvir uslubining ko‘zgusi hamdir. Adabiy asardagi so‘z badiiy so‘zdir. Lekin har qanday so‘z ijodkor munosabatisiz badiiy bo‘la olmaydi. Badiiy obraz ham so‘z orqali yaratiladi.

Biror asarni o‘qish aniq va oson, boshqa uslublardan foydalanish faqat rang va haqiqiylikni yaratish uchun juda muhimdir. Ammo badiiy uslubda maqlolalar yozayotganda, tilni diqqat bilan kuzatib borishingiz kerak. O‘quvchining qahramonlarga yoki voqealarga munosabatini shakllantirish uchun muallif o‘z histuyg‘ularini yetkazadi. Bundan tashqari, uning munosabati ijobiy ham, salbiy ham bo‘lishi mumkin. Badiiy asar tilini ifodalashning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu rang-tasvirdir. Yozuvchi rangni atmosferani namoyish qilish, qahramonlarni tavsiflash uchun ishlatadi. Ohanglar palitrasи asarga chuqurroq kirib borishga, muallif tomonidan tasvirlangan voqealar rivoji va qahramonni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Tilshunos S.Karimov badiiy asar tiliga e’tibor qaratib “Til tasviriy vositalarining paydo bo‘lishi badiiy ijod namunalarini bir qadar go’zal, jarangdor, ta’sirli qilib bayon etish zaruriyatidan kelib chiqqan”, degan fikrni beziz aytmagan. Badiiy olam - bu muallif ko’rgan dunyo: uning hayratlanishi, afzal ko’rishi, rad etilishidir. Bu hissiyotga va kitob uslubining ko‘p qirrali bo‘lishiga olib keladi. Badiiy uslub - bu asar yaratish uchun qurilish materialidir. Fikrni to‘g’rni ifoda etish uchun kerakli so‘zlarni topib, syujet va qahramonlarni faqat muallifgina topishi mumkin. Faqatgina yozuvchi o‘quvchilarni o‘zi yaratgan maxsus olamga kirishga va qahramonlarga mehr uyg’otishga qodir.

**Xulosa:** Shunday qilib, yuqorida fikrlarning o‘zi ham ko’rsatib turibtiki, badiiy asar tiliga munosabat, uni jiddi o‘rganish yoki epistolyar texnikaning badiiy xususiyatlarini tahlil etish olimlarning doim e’tiborida bo‘lgan. Chunki badiiy adabiyotni, uning til xususiyatlarini o‘rganmay turib asar g’oyasi va mazmunini yaxlit holda chuqur idrok etish mumkin emas. Badiiy asar tilini o‘rganish va tahlil qilish rus va o‘zbek tilshunosligida, shu jumladan, jahon tilshunosligida qator tadqiqotlar amalga oshirilganligini ta’kidlash mumkin.



## **REFERENCES**

1. Виноградов В. О языке художественной литературы.-М.: Гостехиздат, 1957.-С.4
2. Yo'ldoshev B, Qurbanov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari. Samarqand. 2006. B.88.
3. Doniyorov X, Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. Toshkent: Fan. 1988. B.71.
4. Виноградов В. О теории художественной речи. –М., 1971. –С. 105-211.
5. Umurov H. Adabiyot qoidalari. Toshkent: O'qituvchi. 2002. B.5-8
6. Yo'ldoshev B, Bobojonov F, Pardayev Z. Badiiy asar tili masalalari. Navoiy: Navoiy DPI nashri. 2001. B.7-11.
7. Yo'ldoshev B, Bobojonov F, Pardayev Z. Badiiy asar tili masalalari. Navoiy: Navoiy DPI nashri. 2001. B.7-11
8. Виноградов В. Наука о языке художественной литературы и ее задачи. –М.: АН СССР, 1958. –С. 3-5.



## Dostoevskiyning "Telba" asarida ayollar tasviri

Xulkaroy Nosirova

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

### Annotatsiya

Ushbu tezisda rus adibi Feodor Mihaylovich Dostoyevskiyning "Telba" romanidagi ayol obrazlar portreti tahlil qilingan. Shuningdek, ayol qahramonlarga berilgan tasvirning o'quvchiga asarning bosh g'oyasini hamda har bir obrazdan chiqarishi kerak bo'lgan xulosani yetkazib berishdagi ahamiyati aytib o'tilgan. Buyuk yozuvchining ayollar portretini tasvirlashdagi mahorati haqida ham so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** roman, obraz, portret, badiiy go'ya, harakter.

Asarning bosh g'oyasini kitobxonaga yetkazish bilan bir qatorda uning ko'z oldida qahramonlarning suratini mahorat bilan chizish, aynan o'sha muhitni o'quvchi tasavvurida jonlantirish ham yozuvchining qay darajada mahoratli ekanligidan darak beradi.

Jahon klassikasining taniqli vakili Dostoyevskiyning dunyoning turfa burchaklaridagi kitobxonlarning qalbidan joy olgan asari "Telba" ham asar g'oyasining kuchliligi, ham badiiy tasvir jihatdan yuksakligi bilan mukammal asar hisoblanadi. Asardagi qahramonlar portreti deganda, qahramonning tashqi ko'rinishi, kiyim boshi, yuzi va ko'zlari ko'rsatayotgan ifoda, o'ziga xos harakatlari nazarda tutiladi.

Ushbu asarda ham adib qahramonlarini tavsiflashda bor mahoratini namoyish qilgan. Shuningdek, tavsifi berilgan har bir obrazning ichki dunyosi, hayot tarzi, o'ziga xos fe'l atvori uning qiyofasiga uzviy bog'liqdir.

Misol uchun ayol obrazlar orasida asosiysi hisoblanadigan Nastaysia Flippovnaning surati shunday chiziladi: "Suratdagi ayol chindan ham favqulodda go'zal edi. U haddan tashqari sodda va nafis tikilgan qora ipak ko'yak kiygandi; ko'rinishidan qoramtilroq bo'lgan sochlarini huddi uyda yurgandek odmigina qilib o'rgan edi; ko'zlari timqora, tubsiz, manglayida hayol o'ynaydi; yuz ifodalarida jo'shqinlik aks etadi, shu bilan birga kibrli ko'rindi; chehrasi nozikkina, balki, ehtimol, biroz oqarinqiragandir" [1.42]. Nastaysia Flippovna ota-onasiz, lekin boy insonning sharofati bilan to'kin hayotda ulg'aygan, yaxshi ta'lif olgan va bir tarjimonning iborasi bilan aytganda, "xo'rangan go'zallik timsoli". Peterburgga kelgach Nastaysia Flippovnadagi o'zgarishlar quyidagicha ifodalanadi: "Ilgarilari u allaqanday uyatchan, biroz dumbulroq, ba'zan sho'xligi va do'lvorligi bilan jozibador, ba'zan esa mayus va o'ychan, xurkak, hayrona, ko'zi yoshli va bezovta qiz edi, endi bulardan unda asar ham qolmagandi.



Yo‘q . U uning qarshisida favqulodda va mo‘jaz bir xilqat handon tashlab kular , achchiq zaharli kinoyalar bilan uzib - uzib olar ..." . [ 2.58 ] . Bu obrazga berilgan ta’rif orqali yosh va g‘oyat go‘zal ayolning osuda kechayotgan hayoti bирgina voqeа bilan mutlaq o‘zgarib ketishi va boshqa bir inson qilgan xato tufayli uzoq vaqt azob chekishi yoritilgan . Qahramonning portreti bizga aynan xulosaning o‘zini bermasa-da , qalbimizda chuqur iz qoldiradi , yani obrazlar hayotida sodir bo‘lgan voqealarni o‘qib , tasavvur qilib hamda ularning o‘g‘riqlarini sal bo‘lsa-da his etib o‘zimizni va atrofimizdagilarni yaxshiroq tushuna boshlaymiz . Mana shuning uchun ham obrazlarga berilgan ta’rif muhim hisoblanadi .

Bosh qahramon knyaz Mishkining tabiatini va ichki olamini ochib beradigan hamda har bir o‘quvchining oldida hurmat - ehtiromga loyiq inson ekanligini isbotlaydigan kichik bir voqeа , ya’ni knyaz Mishkin Shveysariyada davolangan vaqtarda , o‘zi istiqomat qilgan qishloqda yashovchi Mari ismli qiz hikoyasi ham garchi hajman kichik bo‘lsada , juda ta’sirli va esda qolarli syujetdir . Kambag‘al va kasalmand onasi bilan yashaydigan Mariga shunday tasvir beriladi : " Yoshi yigirmalarga borgan , o‘zi nozikkina , oriqqina edi ... ilgarilari ham o‘zi unchalar chiroyli emasdi ; faqat kózlari sokin , ma’sum , mehrli boqardi " [ 3.95 ] . Yozuvchi bu obraz orqali yaxshilab o‘ylab ko‘rilsa unchalik muhim bo‘limgan , ya’ni insonning hayotini fojeaga aylantirishga arzigulik bo‘limgan sabablar — umumiyl qoidalar odamlarni qanchalik bag‘ritosh va rahmiz kimsalarga aylantirishini ifodalagan . Misol sifatida Mariga berilgan boshqa bir ta’rifni olaylik : " Mari yerda kampirning oyog‘i tagida och , abgor , uvada bo‘lib yig‘lab yotardi . Galalashib odamlar kelgach , u o‘zini yoyilgan parokanda sochlari bilan pana qilib , yerga muk tushgancha yotaverdi . Hamma atrofdan unga yaramas gazandaga qaraganday tikilardi ; chollar gap - so‘z qilishib , so‘kishar , yoshlар esa xatto xiringlashar , xotinlar lablari lablariga tegmay qarg‘ashar , g‘iybat qilishar , xuddi bir o‘rgimchakni ko‘rganday aftalarini nafrat bilan burishtirar edilar " [ 4.96 ] . Romandagi aynan shu jumlalarni o‘qigach , nazarimda har bir kitobxon vaziyatga olomon ichida turib , shu olomonning bir qismi sifatida emas , balki inson sifatida qarashni boshlaydi . Marining holatiga berilgan bu tasvir va yana boshqa tasvirlar hammamizga yozuvchi bizga aytmoqchi bo‘lgan so‘zlarni yetkazib beradi .

Asosiy qahramonlar safiga kirmasada , juda yaxshi ta’rif berilgan obrazlarda biri Varvara shunday tasvirlangan : "Varvara Ardalionovna yigirma uchlarga kirgan , o‘rta bo‘yli , birmuncha qotmaroq , yuzi chiroyli bo‘lmasa ham , chiroyli xotinlardan ko‘ra jozibaliroq , istarasi issiq bir qiz edi . U quyib qo‘yganday onasiga o‘xshar , hatto kiyimi ham onasinikidan farq qilmas , yasan-tusanga xushi yo‘qligi ko‘rinib turardi . Uning



ko‘kimitir ko‘zlari ba’zan juda sho‘x va erka boqa olardi , lekin ko‘p mahal va , ayniqsa keyingi paytlarda bu kózlar behad o‘ychan va jiddiy bo‘lib qolgandi . Uning yuzidan ham qat’iyatli , ahdi qattiq ekanligi ko‘rinib turar , lekin u qat’iyatda onasidan ham g‘ayratliroq va tadbirkorroq bo‘lishi mumkinligi sezilardi " [ 5.125] . Hech shubhasiz Varvaraga chizilgan portret orqali Dostoyevskiyning badiiy mahoratiga baho bera olamiz . Shunday yozuvchilar bo‘ladi bir obrazni o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonlantirishi uchun ba’zan bir bet ham kamlik qiladi va yana shunday ijodkorlar ham borki , qisqagina ta’rif bilan cheklanadi . Albatta , har kimning o‘z uslubi bor . Lekin Dostoyevskiy qahramonlarning suratini tasavvuringizda aniq chizib bera olishi va buni qisqa jumllalarda ifodalashi bilan ham kitobxonlarning hurmatini qozongan .

Xulosa qilib aytganda, asarning bosh g‘oyasini yetkazib berishda qahramonlar portreti ahamiyati hisoblanadi . Lekin faqatgina tasvirga berilib asosiy maqsad ikkinchi darajaga tushib qolishi asarning qadr-qimmatini tushiradi . Shuning uchun ham yozuvchidan chinakam mahorat va yuksak did talab etiladi . " Telba " romanidagi ayollarga berilgan tavsif esa hech qanday me'yorni buzmagan va o‘z vazifasini to‘laqonli bajargan . Bu esa asarning yutug‘idir .

### **ADABIYOTLAR**

1. F.Dostoyevskiy . "Jahon adabiyoti durdonalari " turkumi . " Telba " romani " Bayoz " Toshkent . 2019 . 47 - bet .
2. F. Dostoyevskiy . "Jahon adabiyoti durdonalari " turkumi . " Telba " romani." Bayoz " Toshkent . 2019 . 58 - bet .
3. F. Dostoyevskiy . "Jahon adabiyoti durdonalari " turkumi . " Telba " romani ." Bayoz " Toshkent . 2019 . 95- bet .
4. F. Dostoyevskiy . "Jahon adabiyoti durdonalari " turkumi . " Telba " romani ." Bayoz " Toshkent . 2019 . 96-bet .
5. F. Dostoyevskiy . "Jahon adabiyoti durdonalari " turkumi . " Telba " romani ." Bayoz " Toshkent . 2019 . 125-bet .





**Tohir Malikning "Alvido bolalik" asarida obrazlar tasviri**

**Borataliyeva Noila Shuxratjon qizi**

**Ingliz tili va adabiyoti fakulteti Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo‘nalishi 2-  
bosqich talabasi**

**Ilmiy rahbar: Sevara Usmonova**

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda Tohir Malikning "Alvido bolalik" qissasidagi qahramonlar, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, bu qissa yozilishining jamiyatga qanday bog‘liqligi xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** "Alvido bolalik", oilaviy muhit, yetishmovchilik, tarbiya, jinoyat va jazo

O‘zbek yozuvchilarining namoyondalaridan biri bo‘lgan Tohir Malik so‘zlardan shunday mohirlik bilan foydalanadi, u yaratgan asar har bir o‘quvchi ongida, qalbida ko‘p yillar muhrlanib qoladi. Uning asarlarini o‘qir ekansiz, bevosita asar qahramonining his-tuyg‘ulariga sherik bo‘lib ketasiz. Shu jumladan, "Alvido bolalik" qissasi ham o’tkan davr kitobxonlarining ham, yangi davr kitobxonlarining ham qalbidan allaqachon o‘rin egallashga ulgurgan. Ushbu asar haqida so‘z borar ekan, asar zamonaviy hayotni yoritishga xizmat qilgan, asarda ilgari surilgan g‘oya esa jamiyatda dolzarbliji va ahamiyat kasb etishi bilan boshqa asarlardan farq qiladi. Asar xususida gap ketadigan bo‘lsa, qissaning bosh qahramonlari Asror, Qamariddin, Dilfuza va Salim bo‘lib, ularning orzu-o‘ylari, qarashlari, umid-istiklari turlicha, lekin ularning diqqat-e’tiborlarini bir nuqtaga qaratadigan narsa esa kimdandir yoki nimadandir bezor bo‘lishlik, alamzada bo‘lib, o‘qiguvchini mulohazaga undaydi. Bu alamzadalik, bezor bo‘lishliklar asarning boshlanishidayoq keltirilgan: "Hozir qo‘limga miltiq berib qo‘yishsa-yu darvozadan otam bilan onam kirib kelishsa, shartta otardim. Ana undan keyin o‘zimni ham otib yuborishsa mayli. Yo‘q, avval sud bo‘lishi kerak. Sudda gapirishim shart: "Bolasini tashlab ketgan ota-onaning jazosi shu", deyman. "Tirik yetimlar, hammangiz ablah ota-onalaringizni topib, otib yuboring. Yolg‘on gaplar to‘qib, ularni yaxshi odam qilib ko‘rsatmang bir- birlaringizga. Ayamay, otib tashlang!" deyman. "Tirik yetimlarga miltiq beringlar!" deyman. Ana shundan keyin meni otishsa ham mayli..." Shu kabi alamzadaliklar asar qahramonlarining egri yo‘llarga kirib ketishiga katta turtki bo‘lgan. Asror obrazi haqida so‘z ketsa, u dastlab bilimga chanqoq, bilimdon maktab o‘quvchisi bo‘lgan. Lekin otasining o‘zi bilan birga to‘ylarga olib chiqishi, yetmaganiga majburlashi ham bolaning ruhiyatiga ta’sir qilgan va Qamariddin ismli kichik jinoiy to‘daning boshlig‘iga yaqinlashib jinoyatlar sodir etishigacha borgan. Aslida esa, Asrorning Dilfuza bilan bo‘lgan munosabatlarida uning qanchalar mehribon va samimi yigit bo‘lganligi qissada yaqqol berilgan. Qamariddin



esa ko‘plab orzular qilgan, lekin atrofidagilarning munosabatlar, jamiyat zulmlari uni holdan toydirgan. Shuningdek, u tug‘ilganidanoq shunday munosabatlar orasida voyaga yetishi uning jinoyatchi bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Salimning ehtiyojmand, otasining ichishi, onasining oilaviy qiyinchilik natijasida bolalarga e’tibor bo‘lishi, uning jinoyat ko‘chasiga kirishga undagan. Qissadagi eng namunali va jonkuyar obraz mayor Soliyev hisoblanadi. Yozuvchi bu obraz bilan hech qanday jinoyat jazosiz qolmasligini, haqiqat albatta qaror topishligini isbotlagan. Asarning syujeti haqida gapiradigan bo‘lsak, avvalo, syujet so‘zining lug‘aviy ma’nosi fransuzcha "predmet", "asosga qo‘yilgan narsa" degan ma’noga to‘g‘ri keladi. Badiiy asardagi bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda kechadigan, qahramonlarining xatti-harakatlaridan kelib chiqqan holda tashkil topuvchi voqealar tizimidir. "Alvido bolalik" asarining syujetiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu qissa konsentrik, ya’ni tadqiqot syujet turi hisoblanadi. Bunda asardagi voqea-hodisa sabablari, ularning kelib chiqishlari atroflicha o‘rganilib, ommaga taqdim etiladi. Asosan detektiv asarlarni shular jumlasiga kiritishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilib o‘tilgan fikrlardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, asar qahramonlarining bu darajadagi ayanchli qismatlariga yangona katta aybdor jamiyat hisoblanadi. Jamiyatda jinoyatlarning avj olishi, ularga befarqlik, poraxo‘rlik, shu bilan birga bolaning tarbiyasida ota-onaning e’tiborsizligi jamiyat hayotida katta xavf tug‘diradi. Qissa xotimasi ayanchli tarzda yakunlandi. Asrorning bunday jinoyatga bиринчи мarta дuch kelishi, qissada jinoiy to‘da tomonidan jabrlangan insonni hech unutolmasligi, unga tunlari uyqu bermasligi Asrorning hali go‘dakligi va soddaligidan nishona edi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Tohir Malik. "Alvido bolalik" 2018
2. D. Qurbonov. "Adabiyot nazariyasi asoslari" - Toshkent, Navoiy universiteti 2018
3. <https://www.erus.uz>
4. <https://fayllar.org>





## TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.

### Dinoraxon Qurbanaliyeva

Farg'onan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** Maqolada Yaponiya, Germaniya, Fransiya, AQSH kabi ilg'or xorijiy ta`lim tizimi tuzilmasi, tajribasi va zamonaviy ta`lim dasturlari qisqacha tahlil qilingan. Shuningdek ta`lim tizimidagi yutuqlari, ta`lim standartlari monitoring qilingan.O`zbekistonning ayni damdagi yutuqlari e`tirof etilgan.

**Kalit so`zlar:** mamlakat, ta`lim, tajriba. xorijiy tajriba, ta`lim inspeksiyasi, tuzilma, xalqaro baholash.

Ta`lim tizimida, jumladan, oliy ta`limda amalga oshirilgan islohotlar natijasida yuz bergan o`zgarishlar ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma`naviy jihatdan katta tarixiy ahamiyatga ega. Amalga oshirilgan islohotlar nafaqat mamlakatimizda ijobiy o`zgarishlarga olib keldi, balki xalqaro maydonda ham mamlakatimiz nufuzini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu borada bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli qarori bunga yaqqol misoldir. Vatanimiz ta`limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko`zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o`quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta`lim to`la ma`noda yangicha tafakkur, sog'lom fikr demakdir. Hozirgi davrda ta`limning qadr -qimmati, obro va nufuziga teng darajada unnig ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoyilik va ishbilarmonlik ham bo`lmogi zarur. Ta`limdagи muvvafaqiyat, aksariyat dadil harakat qiluvchilar tarafida bo`ladi. Dadil harakat, shijoat tufaylidir. Shijoatni esa insonga, o`zbek milliy pedagogikasining mumtoz namoyondasi Abdulla Avloniy takidlaganlaridek maktab ilm- ma'rifat baxsh eta oladi. Vatanimiz ta`limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko`zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o`quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta`lim to`la ma`noda yangicha tafakkur, sog'lom fikr demakdir. Hozirgi davrda ta`limning qadr -qimmati, obro va nufuziga teng darajada unnig ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoyilik va ishbilarmonlik ham bo`lmogi zarur. Ta`limdagи muvvafaqiyat, aksariyat dadil harakat qiluvchilar tarafida bo`ladi. Dadil harakat, shijoat



tufaylifdir. Shijoatni esa insonga, o'zbek milliy pedagogikasining mumtoz namoyondasi Abdulla Avloniy takidlaganlaridek maktab ilm- ma'rifat baxsh eta oladi.

Xabaringiz bor, yurtimizda professional ta'lismiz tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rtalig' va o'rtalig' maxsus professional ta'lismiz bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lismiz tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Mamlakatimizda pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi yo'lga qo'yilgan. Bu boradagi xalqaro tajriba ham o'rganilmoxda. Professor-o'qituvchilarimiz Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstriya, Italiya, Fransiya, Chexiya, Slovakiya, Gretsya, Ispaniya, Belgiya, Niderlandiya kabi davlatlarda ta'lismiz olib, malaka oshirib kelmoqda. Yevropa Ittifoqi komissiyasining «Erasmus+», «Texnik yordam dasturlari» kabi loyihalari oliy ta'lismiz modernizatsiyalash, yanada takomillashtirishda qo'l kelmoqda.

Mamlakatimizdagi barcha oliy ta'lismiz muassasalari professor-o'qituvchilarining kasb malakasi muttasil oshirib borilmoqda, Oliy ta'lismiz muassasalari xodimlari Yevropa oliy ta'lismiz tizimidagi samarali usullar, ta'lismiz berish va ta'lismiz olish jarayonini yaxshilashga doir ilg'or yondashuvlar bilan tanishdi.

Qadimdan bizda bilim olish qadrlangan. Bilimdon kishilar esa el- yurt ardog'ida bo'lganlar. Shuning uchun ham bilim olish va olingan bilimni mamlakatimiz xizmati yo'lida xizmat qildirish oliy insoniylik burchimizdir. Bu vazifalarni muvvafaqiyatli hal etishni muhim shartlaridan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalari o'rganishdir. Xalqaro tajribalarini sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali ta'lismiz tarbiyada qotib qolgan, o'z dolzarbligini yo'qotb borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ega bo'lamic. Davlatimiz rahbari mamlakatda kadrlar muammosi mavjudligini barcha sohalarga islohotlar sur'atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi. Shu maqsadda butun ta'lismiz takomillashtirilmoqda. Maktabgacha ta'lismiz rivojlantirilayotganini maktab saboqlariga puxta zamin bo'lmoqda. Umumiy o'rta ta'lismiz sifati ilg'or xalqaro tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda. Prezident maktablari, buyuk allomalarimiz nomi bilan ataladigan ixtisoslashtirilgan maktablar, ijod maktablari, Temurbeklar maktablari kabi zamonaviy va innovatsion ta'lismiz maskanlari tashkil etildi. Ularda xalqaro tajribalar yo'lga qo'yilganligi kelajakda yetuk kadrlar yetishib chiqishidan dalolat beradi. 2019-yil 26- noyabrda O'zbekiston Respublikasi



Prezidentining „Zamonaviy maktab“ larni tashkil etish chora tadbirlari to`g`risida“gi qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq 2021-yilgacha maktablarning kamida 3 foizi, 2025-yilgacha 20 foizi 2030- yilga qadar esa 50 foizini, „zamonaviy maktab“ larga aylantirishning asosiy parametrlari belgilandi. Prezidentimiz shu yil yanvar oyida Oliy Majlisga yo’llagan Murojaatnomada maktab o’quv dasturlarini ilg’or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o’quv yuklamalari va fanlarni qayta ko’rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligini takidladi. Maktablarda moddiy-texnik ta’minotini yaxshilash, o’quv tarbiya jarayonida xalqaro zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo’llash bo'yicha vazifalarini belgilab berdi. Yurtimizda matematika, kimyo, fizika, va biologiya darslarining 10 foizigina amaliy mashg’ulotga ajratilgan. Rivojlantirilgan davlatlarda bu ko`rsatkich 30-50 foizni tashkil etadi.

O’zbekiston 2021-yilda PISA va PIRLS xalqaro baholash tizimida ishtirok etishi rejulashtirilgan. Bu sinovga barcha tayyorgarlik ko’rishi kerak. Ya’ni bu yilgi 3- sinf o’quvchilarimiz 2021-yilda 4-sinf bo’ladi. Bu o’quvchilarni mazkur jarayonga tayyorlash uchun xalqaro baholash tizimida ishtirok etib kelayotgan rivojlangan davlatlarning xalqaro tajribalari bilan o’rtoqlashishga to’g’ri keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yo’ldoshev J.F. Xorijda ta’lim (metodik qo’llanma) - Toshkent: 1995- yil
2. Ikromov A.B., Mxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta’lim, ilmfan (metodik qo’llanma. Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.
3. G.Anorqulkova, A. Karimov. Xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimining o’ziga xos yo’nalishi uslub va tahlili. Xalq ta’limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son.
4. A.Nosirov. Fransiyada talim sifati qanday nazorat qilinadi? -, , Boshlang’ich ta’lim“ jurnali. 2019- yil. 12- son.



## ABDULLA QAHHORNING BEMOR ASARIDA JAMIYAT MUAMMOSI. Abdusalomova Nozima

Farg‘ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasida aks etgan davr muammolari va hikoyaning bugungi kundagi ahamiyati yoritib beriladi. Asar qahramonlarining xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Bugungi kun va asar muhiti o’zaro qiyoslanib, farqli va o’xshash jihatlar taqqoslanadi.

**Kalit so’zlar:** Chilyosin, baxshi, tabib, bemor, davr, insoniylik, ilmsizlik, tibbiyat, nochorlik, qoloqlik, johillik.

O’zbek adabiyotining yirik namoyondasi Abdulla Qahhor ijodini hikoyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Ijodkorning o’zi yashab o’tgan davr bilan bog’liq, turli mavzulardagi, ijtimoiy va tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyat kasb etuvchi hikoyalari bisyor. Ana shunday hikoyalardan biri „Bemor” hikoyasidir. Kichik hajmli va mo’jazgina bo’lishiga qaramasdan hikoyaning salmog’i, zalvori anchayin katta. Ijodkor yashab turgan va qisman bugungi kun haqiqatlarini o’zida jamlagan hikoya har bir detalga, obrazga e’tibor berishni talab qiladi. Asarda davrning muammolaridan bo’lmish qashshoqlik, ilmsizlik, loqaydlik qoralanadi. Mana shu illatlarni atrofida voqaealar birlashtiriladi. Iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi sababli kishilarning ijtimoiy imkoniyatlari ham chegaralanishi haqida so’z yuritiladi. Boy va kambag’allar o’rtasidagi farq, munosabatlar va inson qadr-qimmati o’sha davr muhitida yoritib beriladi. Xalq orasida bir naql yuradi: „Yer yuzida yomon insonlar ko’p emas, ularga qarshi kurashmaydiganlar ko’p“. Hikoyada ham ana shunday uchinchi tabaqanining qurboni, bemor ayol sifatida butun boshli millatning o’sha davrdagi taqdiri ochib beriladi.

Zamonni qarangki, kichik bir hikoyaga jo bo’lgan birgina hayot manzarasi ustida shuncha savol paydo bo’ladi! Xo’sh, bu qanday zamon edi? Hikoya qahramonlari zamonning qanday kishilari edilar? Gapni shundan boshlasak.

Siz 5-sinf adabiyot darsida Abdulla Qodiriy, Fitrat, Hamza, G’afur G’ulom, Oybek singari ijodkorlar hayoti va ijodi bilan tanishgandingiz. Ularning bolalik paytlari naqadar og’ir davrga to‘g’ri kelganini bir necha misollar orqali bilgansiz. Bu o’tgan XX asrning dastlabki yillari edi. Chor Rossiysi tomonidan bosib olingan o’lkamizning iqtisodiy, madaniy hayoti parokanda holga keltirilgan bu davrda aholi nihoyatda qashshoq holda hayot kechirar, yurtimizning aksariyat boyliklari chetga tashib ketilardi.

«Bemor» hikoyasidagi Sotiboldi, guvohi bo’lganingizdek, chigit po’choq va kunjara bilan savdo qiladigan Abdug‘aniboyning qo’lida xizmat qiladi. Boy uning mehnati uchun qancha haq to‘lashi to‘g’risida hikoyada gapirilmasa-da, buni



Sotiboldining qanday turmush kechirayotganidan ham bilish qiyin emas. Axir, kasal xotinini do‘xtirga ko‘rsatish uchun talab qilinadigan 25 so‘m pulni u faqat tushida ko‘rishi mumkin, xolos. Uning orttirgan «boyligi» bir marta tabib chaqirishga, bitta tovuq so‘yishga, kasalni baxshiga o‘qitishga yetadi-yu tugaydi. «Chilyosin» o‘qitish uchun esa o‘zi «to‘qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan yigirma tanga qarz» ko‘tarishga majbur. Hali bu ham hammasi emas. Endi o‘lgan xotinini ko‘mishi, uning turli ma’rakalarini o‘tkazishi lozim. «Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo‘ladi. Bunday vaqtarda yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi...» Qishloqlardagi dehqonlar, shaharlardagi hunarmandlar kun bo‘yi qilgan og‘ir mehnati evaziga juda oz haq olishardi. Oila boqish, uning kam-ko‘stini butlash, farzandlarni o‘qitish masalalari kishilarni o‘ta qiyin ahvolga solib qo‘ygandi. Iqtisodiy nochorlik kishilar turmush darajasining tobora pasayib borishiga, aholi o‘rtasida turli kasalliklar keng tarqalib, oddiy betoblik ortidan odamlarning bevaqt hayotdan ko‘z yumib ketishiga sabab bo‘lgandi. O‘lkada tibbiyat masalalarini hal etishga deyarli e’tibor berilmas, faqat chor amaldorlari, harbiylari va mahalliy boylargina malakali tibbiyat xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ega edi.

Ilojsizlik, biror joydan yordam umidining yo‘qligi Sotiboldi va uning oilasiga qo‘shib o‘quvchini ham qiyndi, qalbingizda odam bolasining naqadar uvol bo‘layotganidan nadomat tuyg‘ulari qo‘zg‘aladi. Boya aytilganidek, Sotiboldining ozgina yordamiga umid qiladigani xo‘jayini Abdug‘aniboy edi. O‘zi «omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o‘ladigan bo‘lganida» markaziy shaharga – Sim (hozirgi Farg‘ona shahri)ga borib davolanib kelgan bu bag‘ritosh kimsa xizmatkorining ayoli yosh o‘lib ketishi mumkinligini bila turib zarracha yordam ko‘rsatishga yaramaydi. (Biz Sotiboldining xotini hali nisbatan yosh ekanini uning qizchasi bor-yo‘g‘i to‘rt yoshga kirganidan anglashimiz mumkin!) Aksincha, bechora xizmatkoriga uni yana ham chiqimdar qiladigan turli bid’atlarni maslahat beradi. Axir uni boy qilgan, xohlagan joyiga borib davolanishi, istaganicha maishat qilishi uchun yetarli mablag‘ga ega qilgan Sotiboldi va unga o‘xshaganlarning mashaqqatli mehnati emasmidi? Nahotki, bir ayolning hayotidan «izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so‘mlik pul» azizroq, qimmatiroq bo‘lsa?... Nochorlik sabab ayolini kasalxonaga olib bora olmaydi, xo‘jaynidan qarz so‘raydi. Asarning eng ayanchli haqiqatlaridan biri ushbu davrda faqatgina iqtisodiy emas, balki ma‘naviy qashshoqlikning ham keng avj olganidir. Buning isboti o‘laroq, imkoniyati yetishiga qaramay Abdug‘aniboy ishchisiga pul bermasligini olishimiz mumkin (uning bunga imkonи borligini ustidan qop ag‘anaganda „SIM“ga borib davolanib kelganidan ham bilish mumkin). Ayolning yoshligi, mittigina qizalog‘i borligini, ayolning hayotini asrab qolishga umid borligini



bu umid o'zidan ekanligini bilsa-da yordam bermaydi. Vaholangki, o'sha davrning boy kishilaridan biri nochor bir ayolning umri, bir farzandning onasi,bir insonning rafiqasini hayotini saqlab qolishi mumkin bo'lgan pullarini qizg'anadi. Insoniylikni bir chetga surib qo'yadi.Yordam qo'lini cho'zish o'rniga Sotiboldiga turli xil bid'at va foydasiz amallarni tavsiya qiladi. Boyning holatga nisbatan fikrlari o'sha davr boylarining qashshoq aholiga nisbatan bo'lgan munosabatini ko'rsatadi.Boylarda pul bo'lsa-da ma'naviyatlari sustlik qilib, loqaydlarcha yordam berishmaydi, qo'ni-qo'shnidan esa najot yo'q. Bu davrga kelib qashshoqlik juda kuchayadi. Shu boisdan ham tashqaridan boshqa tovush emas, gadoning sadaqa so'rab baqirgan tovushi eshitiladi. Bemor u xlabelotgan xona ham tund bir ruhda tasvirlanadi. Xuddi xlabelotgan, kasallangan, tomiriga bolta ur xlabelotgan, quriyotgan millat kabi.Hikoya davomida Sotiboldining,ayolining qarindoshlari haqida mutalaqo so'z yuritilmaydi, bu qarindoshlar yo'qligini emas,yordam beruvchilar yo'qligini bildiradi.Bemorning qanday kasallikkha chalinganligi haqida ham so'z bormaydi, uning kasalini tabiblar-u baxshilar ham bilishmaydi. Zamona ilmsizligining qurbanini bo'lgan bu kimsalardan biri— tabib.

Bir amallab «tabib» nomini olib olgan kimsa, yuqorida aytilganidek, ayolning nima kasal bilan og'riyotganini bilmay turib undan qon oladi. Buning oqibatida esa «betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib» qoladi. Demak, «tabib» bemorga foyda emas, balki zarar yetkazdi. Holbuki, u bunday «davolash usuli»ni birgina Sotiboldining xotini emas, o'sha atrofdagi yuzlab bechoralar ustida qo'llaydi. «Tabib»dan keyin xonadonga baxshi kirib keladi. U xotinning yonida o'tirib bir narsalarni o'qiydi. Lekin bu o'qigan narsalari xotinning dardiga em bo'ladimi-yo'qmi, bu bilan uning ishi yo'q. Baxshi ham qayerga chaqirilsa, qaysi kasalga ro'para kelsa, hammasiga ko'r-ko'rona yodlab olgan narsalarini o'qib, chiqib ketaveradi. Uning uchun ko'richak ham, tomoq og'riq ham, ruhiy xastaliklar ham bir – farqi yo'q!

Sotiboldiga tavsiya etilgan navbatdagi «najotkor»ning qilig'i bo'lsa hammasidan oshib tushadi. U (yana kasalning asli nima ekanini surishtirib o'tirmay!) betob xotinni... «tolning xipchini bilan» savalaydi, «tovuq so'yib» qonlaydi...

Ko'ryapsizki, johillik butun jamiyatni, kishilar ong-u shuurini butunlay band qilib olgan, millat «tanasidan qon oldirgan bemor» (Hamza Hakimzoda Niyoziy iborasi) holiga tushgan edi.

Hikoyaning mazmun-mohiyati, ta'sir kuchi hali bu bilan ham tugamaydi. O'layotgan xotini uchun biror najot yo'lini topa olmagan Sotiboldi qo'shni kampirning maslahati bilan endi to'rt yashar qizchasining saharlab turib uyqusiragan holda qiladigan duosiga umidvor bo'ladi. Qarang, butun boshli jamiyat bor – doktorxona bor,



tabib bor, baxshi bor, qo‘lida pul o‘ynagan boylar bor, har qanday mehnat bo‘lsa qilishga rozi Sotiboldi bor... biroq najot yo‘q! Bor-yo‘q umid – shu to‘rt yasharlik qizaloqning ojiz duosi.

Xulosa: Abdulla Qahhorning „Bemor” hikoyasida XX asrning bir qancha haqiqatlari yoritib beriladi. Jumladan, o‘lkadagi ilmsizlik, qashshoqlik, insoniy fazilatlarning inson bolalaridan uzoqlashishi kabilari. Hikoyada insonni qashshoqlik emas, loqaydlik halokat(hikoyada o’lim)ga yetaklashi isbotlab beriladi. Asar bugungi shiddatli zamonada yashab, bir qamcha tuyg’ulardan uzoqlashayotgan yangi davr kishilari uchun ibrat bo‘la oladi. Tegishli xulosalar chiqarishga va xatolarni takrorlamaslikka undaydi. Shu sababdan, Abdulla Qahhorning hayotning ko’plab haqiqatlarini o’zida jamlagan bu kichik hikoyasi asrlar davomida ham o’z ahamiyatini yo’qotmay kelmoqda.

#### **REFERENCES:**

1. 6-sinf Adabiyot darsligi I qism(2017) —Toshkent, Ma’naviyat, 108-118-betlar
2. <https://uz.m.wikipedia.org>
3. <https://talaba.su>
4. <https://www.ziyouz.com>



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA BIZNES VA TURIZM TERMINLARINI  
ISHLATISH METODIKASI.

Nematova Maxsumaxon

Farg'onan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** Fan va texnika rivojlanayotgan bir davrda insonlarning o`zga mamlakatlar tarixi, madaniyati, urf-odatini o`rganishga bo`lgan ishtiyoq va havas tobora ortmoqda. Bugungi kunda nutqimizda juda ko`plab turistik leksemalar va frazalar lug`atshunoslikda yangi o`zgarishlarga sabab bo`lmoqda hamda leksikografiyaning rivojlanishiga turtki bermoqda. Mamlakatlararo mustahkamlanayotgan turli ko`rinishdagi aloqalar, diplomatik munosabatlar, turli tadbirlarning keng miqyosda nishonlanishi turizm leksikologiyasining yanada rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida biznes va turizm terminlarini ishlatish metodikasi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Fan-texnika, biznes, o'zlashma so'z, tourism, tourism word units, touristic expressions

O'zbek leksikologiyasidan farqli holda ingliz leksikologiyasi turizm bilan bog`liq tushunchalarni o`zida keng mujassamlagan yo`nalishdir. Turizm fransuzcha tour so'zidan olingan bo`lib, sayr-sayohat ma'nosini anglatadi. «O'zbek tilining izohli lug`ati» da sayohat so`zi haqida quyidagi ma'lumotlar beriladi. «Sayohat-arabcha dam olish, hordiq chiqarish yoki dunyonи ko`rish, o`rganish maqsadida qilingan safardir»-deyiladi. Safar tushunchasining o`zi ham arabchadan olingan bo`lib, xizmat yoki sayohat maqsadida biror joyga borishdir. Karvonsaroy-karvonlar tunab o`tadigan rabot, saroy. Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo, Kavkaz orti shaharlari savdo yo`lida barpo etilgan.

Ingliz leksikologiyasida turizmga oid quyidagi birliklar yuzaga kelgan: Baggage. Travelling bags and personal possessions of a traveler. In travel terms, accompanied baggage is that carried in the same vehicle as the passenger; unaccompanied baggage is that carried separately. Checked baggage is handed over by the passenger, to be claimed at the destination; unchecke(d) or carry on baggage stays in the passenger's possession. Yuk. Sayohat sumkalari va sayohatchining shaxsiy narsalari. Sayohat nuqtai nazaridan, hamrohlik qilingan bagaj-bu yo'lovchi bilan bir xil transport vositasida olib boriladigan yuk; kuzatib borilmagan bagaj-bu alohida olib boriladigan yuk. Tekshirilgan bagaj yo'lovchi tomonidan belgilangan joyga da'vo qilish uchun topshiriladi; tekshirilmagan(yoki olib yurilmagan) bagaj yo'lovchining posessiyasida qoladi. Baggage allowance. Per-person amount of baggage by total weight, number of pieces, or volume that will be transported without additional charge. Yuk uchun ruxsat.



Qo'shimcha to'lovsiz tashiladigan umumiy og'irligi, dona soni yoki hajmi bo'yicha har bir kishi uchun yuk miqdori. Baggage check. Receipt or claim ticket for accompanied baggage, issued by a carrier. Bagajni tekshirish. Birga bagaj uchun olish yoki da'vo chipta, tashuvchi tomonidan issued. Banquet room. Often part of a hotel, providing a paying group with a private area where the necessary service personnel, and prearranged amounts and varieties of food and beverage service. Banket xonasi. Ko'pincha mehmonxonaning bir qismi, pullik guruhni xususiy maydon, zarur xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va oziq-ovqat va ichimliklar xizmatining oldindan belgilangan miqdori va xilma-xilligi bilan ta'minlaydi. Coffee shop. Commercial food facility designed to offer the customer a meal or snack in an informal atmosphere without the service, variety or cost associated with a restaurant, and at those times when a restaurant may not be open. Qahvaxona. Tijorat oziq-ovqat inshooti mijozga restoran bilan bog'liq xizmat, xilma-xillik yoki xarajatlarsiz norasmiy muhitda ovqat yoki gazak taklif qilish uchun mo'ljallangan va restoran ochiq bo'lmasligi mumkin bo'lgan paytlarda murojaat etiladigan maskan.

To'gridan-to'g'ri tarjima ya'ni kalka usulida o'zbek tiliga chet tilidan tarjima qilingan so'zlar guruhi: ingliz tilidagi sky-scraper; nemis tilidagi klassen kampflarni misol qilishimiz mumkin. Yana shuni ham aytish lozimki, o'zlashma so'zlarni muhimlilik va boylik tomonidan farqlashimiz mumkin. Birinchidan so'z qachonki referent (ya'ni obyekt g'oya va fikr) bilan birga bo'lsa, masalan: patata gaytan so`zi bo'lib italyan tiliga ispan tili orqali kirib kelgan, yoki caffe so`zi turk tilidan, zero arab tilidan (roman sonlarida zero ya'ni nol mavjud bo'lmasgan), tram, transistor, juke-box kabi so'zlar ingliz tilidan kirib kelgan. O'zlashma so'zlarning boylik jihatdan stilistik va ijtimoiy holati muhim o'rinn tutadi. Jamiyatni, madaniyatni, yashash sharoitini eslashga xizmat qiladi. O'zlashma so'zlarning boyligi leader, baby-sitter, week-end so'zlarida ko'rindi. Ingliz tilidagi so'zlar va birikmalar ba'zida ularning qisqaligi tufayli qulaylik tug'diradi.

O'zlashma so'zlar yozma va og'zaki shakllar orqali tilga kirib keladi. Tunnel so`zi yozma til orqali kirib kelgan. Agar tunnel so`zi og'zaki tildan kirib kelganda edi tanel deb talaffuz qilinar edi, xuddi ingliz tilidagidek. Budget so`zi esa aksincha badjet deb talaffuz etiladi, chunki og'zaki tildan kirib kelgan. Shunday turdag'i ingliz tili so`zları borki, ular bizning nutqimizda bir xil talaffuz etiladi va yoziladi, masalan: flirt so`zi shu kabi yoziladi va o'qiladi. Biz shuni bilishimiz kerakki, neologizm va o'zlashma so'z o'rtasida farqlar mavjud. Yuqorida biz o'zlashma so'zlar tilimizga singib ketgan va lug'atlarimizdan joy olgan so'zlar hisoblanadi deya ta'rif berdik. Neologizmlar esa tilimizga yangi kirib kelgan va hali keng yoyilmagan so'zlardir. Yana



shuni aytishimiz kerakki, neologizmlar vaqt o‘tishi va iste’moldagi so‘zlarimiz qatoriga qo‘shilishi bilan o‘zlashma so‘zlarga aylanadi. Neologizmlarni o‘rganuvchi fanni esa neologiya deyiladi. Hozirgi kunda neologizmlar ustida ish olib borib va hozirgi kun neolgizmlarini yig‘ib lug‘at holatida chiqarilsa, u muayyan vaqt davomiyligida neologizm holatida turishi mumkin, ammo keyinchalik o‘zlashma so‘zlar lug‘atiga aylanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, o‘zbek tilidagi mavjud turizm terminlarining izohli, elektron va tarjima lug`atlarini yaratish o‘zbek terminologiyasining muhim vazifalardan biridir. Izohli lug`atlarda, turistik terminlar uchun tuziladigan maxsus lug`atlarda terminlarning berilishi va izohlanishi o‘quvchining shu fan borasidagi eng zaruriy va umumiy tushunchalar bilan tanishishiga va uning bilim saviyasini oshirishga, bundan tashqari shu sohaga qiziqish paydo qilishga ham xizmat qiladi.

### **REFERENCES**

1. M.Q.Ismoilova. Turizmga oid leksikaning lingvomadaniy jihatlarida tarjimaning nazariy va amaliy masalalari. -Qarshi.-b.14
2. Сирожиддинов Ш. Сўз ўзлаштириш омиллари хусусида// Ўзбек тили ва адабиёти, 22390 – № 60 – 6.
3. Metelka, Charles J. The dictionary of tourism. Wheaton III.: Merton house Travel and Tourism publishers. 1986.
4. Mirzayev Murotjon Ahmadjonovich. Aliyeva Mahbuba To‘ychiyevna. Turizm asoslari. O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent, 2011.





## MODERN TECHNOLOGIES IN LEARNING FOREIGN LANGUAGE

Bahromova O‘g‘iloy

Fergana State University, Faculty of English Language and Literature, 2nd year

**Annotation:** The topic of the paper is how to use cutting-edge pedagogical innovations to teach foreign languages effectively.

**Keywords:** Communicative competence, the formation of professional competencies, education, students, English.

**Аннотация:** Тема статьи – как использовать передовые педагогические инновации для эффективного обучения иностранным языкам.

**Ключевые слова:** Коммуникативная компетентность, формирование профессиональных компетенций, образование, студенты, английский.

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda xorijiy tillarni o‘qitishda qanday qilib yuqori natijalarga erishish mumkinligi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Kommunikativ kompetentsiya, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, ta’lim, talabalar, ingliz tili.

Like any other language, learning a foreign language is largely for communication. Therefore, the objective of teaching a foreign language today is for pupils to master conversational abilities. According to our perspective, such techniques as mindless memorization of foreign language texts have no place at a modern institution. These techniques offer the young specialists no useful benefits for their future. In later life and at employment, students must be able to utilize the language intentionally.

Modern employers value candidates with strong language skills. The two main methods that methodological science separates are communicative and constructivist. The capacity to recognize different speech patterns that enable you to construct behavioural tactics and background settings in the course of professional communication is known as discursive competence.

Formation In the context of professional work, lexical competence enables you to create a meaningful vocabulary and fill it with varied terms. Our opinion is that thematic texts combine intensive and thorough reading promotion based on training session experience and students’ passive knowledge while also taking into account the priority learning and extracurricular activities. Need Text must use a range of dictionaries and should increase student vocabulary as needed. The interaction between



text and verbal context enables you to broaden the lexical scope, streamline word usage, and create thematic texts that blend lexical and semantic types.

Language proficiency is the development of knowledge of language concepts (phonetics, vocabulary, grammar), as well as proficiency in a variety of speech activities (listening, speaking, reading and writing). According to a particular speaking context, communication aim, and desire, sociolinguistic competency enables the speaker to select an appropriate language form and expression style.

The ability to understand the national characteristics of authentic speech, including customs, values, rituals, and other national and cultural features of the country in which they live and compare them with the country where the language is being studied, is a component of sociolinguistic competence.

Communication strategy. The mastery of communication skills is its aim. This method's exercises are usually communicative in nature. Orientation. Through their interactions with one another, students develop their communication skills.

Consequently, professional competency development is a process that is not just a part of education. Increased subjectivity and motivation among students to learn English enables them to begin the process of developing their professional competencies over time.

#### **REFERENCES:**

1. Расходова И. А, Еремина А. С, Россия, г. Казань 2020 страница 396
2. Валеева Р. Р., Гисматуллина А. И. Технология коллективного обучения. Международная научно-практическая конференция „Целевая подготовка Кадров: направления, технологии и эффективность“. Казань, 2019. — С. 42–44.
3. Волкова Н. П. Педагогика: учеб, пособие. — Киев: Академвидав, 2007.
4. Кузьминский А. И., Омельяненко В. Л. Педагогика: учебник. — М.: ЗнаниеПресс, 2008.



O'TKIR HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" ASARIDA URUSH  
MAVZUSINING YORITILISHI.

O'g'iloy Xatamova

Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O'tkir Hoshimov adabiy merosida asosiy o'rnlardan birini egallagan "Ikki eshik orasi" romani haqida. Asarda insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligi zo'r mahorat bilan tasvirlangani, tinchlikka rahna solgan urushning qoralangani, uning g'ayriinsoniy mohiyatiga urg'u berilgani, urush voqealarining har bir ota-onasini qalbini jarohatlagani, ko'ngillarga ozor yetkazgani romanning umuminsoniy pafosini tashkil etishi haqidagi fikr-mulohazalar isning mohiyatini tashkil etadi. Yozuvchi yaratgan obrazlarining mardlik, matonat, insonparvarlik va sabr-bardoshlilik fazilatlari orqali millatning ruhiy takomilini ochishga muvaffaq bo'lgani haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** qonli urush, individual qiyofalar, insonparvarlik, to'qqizta personaj hikoyasi, umuminsoniy pafos, Orif oqsoqol, Xusan Duma, Robiya, Ra'no, hikoyalar kompozitsiyasi, taqdirlar romani.

O'tkir Hoshimov – el ardoqlagan adib, so'z san'atkori. Adibning barcha asarlari o'zbek va va boshqa qardosh xalqlar multiga aylanib ketgan. "Bahor qaytmaydi", "Tushda kechgan umrlar", "Ikki eshik orasi", "Nur borki soya bor", "Dunyoning ishlari", "Ikki karra ikki – besh" kabi qissa va romanlari, yuzdan ortiq dilbar hikoyalari, komediya va fojealari xalq orasida juda mashhur bo'lib ketgan. Kitobxon sifatida men adibning "Ikki eshik orasi" romaniga to'xtalmoqchiman „Ikki eshik orasi“ — o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub roman. Asar O'tkir Hoshimov merosining asosiy o'rnlardan birini egallaydi.<sup>1</sup>

Asarda insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligini mahorat bilan tasvirlangan. Adib, birinchi navbatda, tinchlikka rahna solgan urushni tilga oladi. Ayniqsa, urush voqeligining har bir ota-onasini qalbini jarohatlagani, ko'ngillariga ozor yetkazgani romanning umuminsoniy pafosini tashkil etadi. Adib qalamga olgan obrazlari oddiy odamlarning fazilatlari — mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr-bardoshini haqida so'zlaydi. Tajribali yozuvchi roman hodisalarini teran o'rgangani uchun har bir epizod o'quvchini qalbiga jiddiy ta'sir qiladi. Asarda tasvirlangan hayot manzaralari, insonlararo munosabatlar shuningdek, yozuvchining o'ziga xos badiiy uslubi juda tabiiy hamda samimiyligi bilan ajralib turadi. Yetti qism, qirq yetti bobdan tarkib topgan roman kompozitsion qurilishi jihatidan ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.<sup>2</sup> Undagi voqealarning bayonida qatnashgan to'qqizta personaj hikoyalarini adib bir-biriga ustalik bilan bog'lagan.



„Ikki eshik orasi“ romanidagi Orif oqsoqol, Husan Duma, Komil tabib kabi obrazlarni yoritib bergen. Ayniqsa, Orif oqsoqol obrazi romanga ko‘rk bag‘ishlaydi. Uning insonparvarligi, odamlar orasida qozongan obro‘-e tibori, eng og‘ir damlarda qiyinchiliklarni yengib o‘tishga kuch topishi bilan o‘quvchi xotirasiga muhrlanadi. U donishmand, tajribali, hayotning achchiq-chuchugini tatib ko‘rgan o‘zbek qariyalariga o‘xshab har bir ishda tashabbuskorlikni o‘z qo‘liga oladi. Shu bilan birga asarda Robiya ismli ayol qahramon ham mavjud.

O‘tkir Hoshimov o‘z romani haqida va shu orqali dildagi so‘zlarni ham aytib o‘tgan:

„Rost bilan yolg‘onning o‘rtasi — to‘rt enlik“, degan gap bor. Qiziq, nega endi oz emas, ko‘p emas, to‘rt enlik? Gap shundaki, ko‘z bilan qulquning orasi — to‘rt enlik ekan. Eshitganingga emas, ko‘rganingga ishon ... Maqsad — shu. Bu kitobdagi ko‘p odamlami o‘zim ko‘rganman. Ko‘plari bilan gaplashganman. Ba’zilarining o‘zi bilan, ba’zilarining ... ruhi bilan ... Ba’zilari nimani gapirgan bo‘lsa, shuni qog‘ozga tushirdim. Ba’zilari nima gapirganini emas, nima o‘ylaganini yozishga majbur bo‘ldim.(Nachora, hamma rost gapiravermaydi. Ammo yolg‘on gapirayotgan odam ham ichida, baribir rostini o‘laydi.)

Xullas, bu savdolar ko‘p yillar davomida ko‘p kishilaming boshidan kechgan. Ular ustidan hukm chiqarish — sizlarga havola ... Tilimning uchida turgan yana bir andishani aytmasam bo‘lmaydi. Ehtimol, siz bu kitobda foje ko‘payibroq ketmadimikin, degan xayolga borarsiz. Nachora, avvalo hayot — nuqlul bayramdan iborat emas. Urush esa o‘yin emas. Ikkinci jahon urushi ellik million odamning uvoliga qoldi. Shundan yigirma millioni bizning odamlar edi. Eng aziz, eng asl kishilarimiz. Qolaversa, urush faqat okopdagagi jangchila ming joniga chang solib qolmadi. Minglab chaqirim naridagi odamlami ham sinovdan o‘tkazdi. Mushkul damlarda imonini, insonligini saqlab qolgan ota-onalarimiz, aka-opalarimizning hayoti bugungi zamonda bizga o‘rnak bo‘lsa ne ajab!

Xulosa sifatida shuni aytishim mumkinki, asarda urush va urushdan keyingi yillardagi qishloq hayoti, urushning jamiki og‘irliklarini, marhumularini Azamat yelkasida ko‘targan, o‘zi yemay barchasini jangchilar og‘ziga tutgan fidoyi dehqonlar jasorat madh qilingan. Nikoh kechasini ertasigayoq kuyovini jangga jo‘natib, o‘zlarini kelinlik liboslarini ish kiyimiga almashtirib og‘ir va mashaqqatli mehnatlari, ota o‘rniga ketmon ko‘tarib dalaga chiqqan go‘daklar, o‘g‘li o‘rniga yer chopgan chol-u kampirlar ko‘z o‘ngingizda paydo bo‘ladi. Siz ularning ovozini eshitasiz. Ularning qaddini tik ushlab turgan kuch g’alabaga ishonch edi. Urush yillarida chol-kampirlar ko‘zlarini nigoron bo‘lib jigargo‘dshalarini tonggacha duo qilib chiqqanlari ko‘z oldingizga



keladi... Ochlik, yupunlik, ayriliqlar, erta hazon bo'lgan muhabbat alamlari, judolike, qarg'ish, yig'i, g'azab – hamma-hammasi romanda nihoyatda ishonarli tasvirlangan. Shu o'rinda ijodkorning mashhur jumlasini aytmoqchiman "Hamisha bir orzu bilan yashayman. Shunaqa kitob yozsangki, uni o'qigan kitobxon hamma narsani unutsa, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Kitobni o'qib bo'lgan kuni kechasi bilan uxlolmay, to'lg'onib chiqsa. Oradan yillar o'tib asarni qo'liga qayta olganida tag'in hayajonlansa, yangi ma'nolar topsa. Eng katta orzuyim shu..."deb yozadi sevimli adibimiz, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov.<sup>5</sup>

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (references)**

1. Hoshimov, O'. (2013). Ikki eshik orasi. Roman.
2. Hoshimov, O'. (2009). Sakkizinchi mo'jiza. Toshkent.
3. Boltaboyev, H. (2011). El sevgan adib. Toshkent.
4. Dusenboyev, O. "Ikki eshik orasi" romani haqid.
5. Sharafiddinov, O. "Ikki eshik orasi" romani haqida
6. Ahmad, Said. "Ikki eshik orasi" romani haqida



**«XXI ASRDA INNOVATION TECHNOLOGIES, SCIENCE AND EDUCATION  
TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR» NOMLI  
KONFERENSIYANING 1-TOM, 1-SON (12 APREL)  
MUNDARIJA**

<b>1</b>	<b>ОПУХОЛИ И ОПУХОЛЕВЫЕ ПРОИЗВОДНЫЕ МЯГКИХ ТКАНЕЙ И КОСТЕЙ ЛИЦЕВО-ЧЕЛЮСТНОЙ ОБЛАСТИ Абдишукрова Барчиной Гулбой кизи.</b>	<b>5-7</b>
<b>2</b>	<b>MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI TAYYORLOV GURUHI BOLALARIDA MATEMATIK TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI. Lola Mammadiyeva Pölatovna</b>	<b>8-13</b>
<b>3</b>	<b>STRATEGIC DIRECTIONS OF REFORMS IN THE EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN Tursunova Matluba Kholmatovna</b>	<b>14-16</b>
<b>4</b>	<b>"XXI ASRDA INNOVATION TECHNOLOGIES, SCIENCE AND EDUCATION TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" To'ychiyev Bobur</b>	<b>17-18</b>
<b>5</b>	<b>Siz bilgan va siz bilmagan o'simlik va hayvonot dunyosi. Egamova Zeboxon</b>	<b>19-24</b>
<b>6</b>	<b>MATEMATIKA OTASI AL-XORAZMIY HAQIDA Nurmatov Elbek Rayimqul o'g'li</b>	<b>25-29</b>
<b>7</b>	<b>Uzumni quritishda qo'yiladigan talablar va quritish usullari Payg'ambarov. B. R<sup>1</sup>, Sultonov. S. S<sup>1</sup>, Xudoyerberdiyev. J. R<sup>1</sup></b>	<b>30-34</b>
<b>8</b>	<b>Ko'chkunchixonning hukmronligida Shayboniyalar sultanati. Erkinjonov Elomon Umidjon o'g'li.</b>	<b>35-38</b>
<b>9</b>	<b>Shayboniyarda qolg'a (valiahd) tayyorlash an'anasi. Erkinjonov Elomon.</b>	<b>39-42</b>
<b>10</b>	<b>Shayboniyxon avvoldolarini qismati. Erkinjonov Elomon Umidjon o'g'li.</b>	<b>43-46</b>
<b>11</b>	<b>SULTON MUHAMMAD SHAYBONIYXONNING SIYOSIY FAOLIYATIGA TARIXIY CHIZGILAR Elomon Erkinjonov</b>	<b>47-55</b>
<b>12</b>	<b>ПРОБЛЕМА КОМПЛЕКСНОГО КОНТРОЛЯ И ОЦЕНКИ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ЮНЫХ МИНИ-МИНИ-ФУТБОЛИСТОВ. Каримов Ж.З</b>	<b>56-58</b>
<b>13</b>	<b>MAHMUD KASHGARI IS THE FIRST COMPARATIVE TYPOLOGIST IN THE HISTORY OF LINGUISTICS Matluba Kholmatovna Tursunova, Siddikova Iroda Abdughuzurovna</b>	<b>59-61</b>
<b>14</b>	<b>МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРОГРАММА ОЦЕНКИ ДОРОГ IRAP КАК СОВРЕМЕННЫЙ МЕТОД ОЦЕНКИ БЕЗОПАСНОСТИ ДОРОЖНОГО ДВИЖЕНИЯ. ОБОЗРЕВАТЕЛЬ</b>	<b>62-65</b>



	<b>ИНФОРМАЦИИ О БЕЗОПАСНОСТИ. СОН ЕЛЕНА ВЛАДИСЛАВОВНА, ХОШИМОВ ИФТИХОРЖОН</b> <b>БУРХОНЖОН УГЛИ</b>	
15	<b>НЕДОСТАТКИ МЕТОДОВ ОПРЕДЕЛЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ ДОРОЖНОГО ДВИЖЕНИЯ. СОН ЕЛЕНА ВЛАДИСЛАВОВНА, ХОШИМОВ ИФТИХОРЖОН</b> <b>БУРХОНЖОН УГЛИ</b>	<b>66-69</b>
16	<b>O'QUVCHILARDA OVQATLANISH MADANIYATI SHAKILLANTIRISH</b> Sh.Xudayqulov, Qo'ziyeva Mashxura	<b>70-72</b>
17	<b>O'QUVCHILARGA IZONIT-IPLAR GRAFIKASI USULIDA TASVIRLAR TAYYORLASHNI O'RGATISH.</b> Sh.Xudayqulov, Dolimova Aziza Otabek qizi	<b>73-76</b>
18	<b>KASHTACHILIK SAN'ATINI O'QUVCHILARGA O'RGATISH TEHNOLOGIYASI</b> Adashaliyeva Zarnigor Sobirjon qizi	<b>77-79</b>
19	<b>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLLARGA INGILIZ TILINI O'RGATISH METODLARI.</b> Mirhaydarova Zulfizar	<b>80-82</b>
20	<b>ZULFIYA SHE'RIYATIDA BADIY OLAM TALQINI Nishonova O'g'iloy</b>	<b>83-85</b>
21	<b>TURLI TIZIMDAGI TILLARDA LINGVOKULTUROLIK BIRLIKLER TADQIQI</b> Muhammadjonova Muslimaxon	<b>86-89</b>
22	<b>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA CHET TILIGA BO'LGAN QIZIQISHNI O'YINLAR YORDAMIDA O'STIRISH.</b> G'ulomjonova Ma'sumaxon G'ayratjon qizi	<b>90-93</b>
23	<b>ERKIN VOHIDOVNING "NIDO" DOSTONIDA DAVR MUAMMOSI</b> Avazbekova Dilafruz	<b>94-97</b>
24	<b>BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARDA O'QUV MOTIVATSİYASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI</b> Mohinur Mahmudxonova	<b>98-100</b>
25	<b>BOLALARDA ILMIY-TEXNIK, IJODIY QOBİLYATLARINI RIVOJLANTIRISH</b> Sharipova Xakimaxon	<b>101-103</b>
26	<b>O'ZBEK TILIGA JARGON SO'ZLARNING O'ZLASHUVI</b> Anvarova Madinaxon	<b>104-107</b>
27	<b>BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA LUG'AT BOYLIGINI RASMLAR YORDAMIDA O'STIRISH.</b> Ismoilova Dildora	<b>108-110</b>
28	<b>DARS MASHGULOTARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH</b> O'ktamova Durdona	<b>111-113</b>
29	<b>O'TKIR XOSHIMOVNING „DUNYONING ISHLARI“ ASARIDA ONA SIYOMOSI</b> Jo'raqulova Shoxzoda	<b>114-116</b>
30	<b>EP ИСЛОХОТИ ЖАРАЁНЛАРИДА EP ҲИСОБИНИ ЮРИТИШНИНГ АҲАМИЯТИ</b> K.M.Хожиев	<b>117-122</b>



31	<b>SULFAT KISLOTA ISHLAB CHIQARISH VA SANOATDAGI O'RNI Normeliyev Dalerbek Iskandar o'g'li</b>	123-126
32	<b>O'ZBEK INGLIZ TILLARIDA HUSHMUOMALALIKNI IFODALOVCHI LEKSEMLAR Ahmedova Kamola</b>	127-129
33	<b>BOLALARGA INGILIZ TILIDA OT(NOUN )SO'Z TURKUMINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK VA INNOVATSION USULLARI Valiyeva Dilshoda</b>	130-132
34	<b>O'ZBEK INGLIZ TILLARIDA HURMAT KATEGORIYASI. Kamoldinova Odina</b>	133-135
35	<b>BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O'QITISH METODLARI Sheraliyeva Omina</b>	136-138
36	<b>TILLARNING SHAKILLANISHI VA TARAQQIY QILISHI. Rayimjonova Saodat</b>	139-142
37	<b>BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING CHET TILLARIDA LUG'AT BOYLIGINI OSHIRISH METODIKALARI Axmedova Gulira'no Raximjon qizi</b>	143-147
38	<b>ERKAK VA AYOLLAR NUTQIDA HURMAT KATEGORIYASINING TURLI KO'RINISHLARI. Turdaliyeva Nilufar</b>	148-150
39	<b>O'ZBEK ADABIY ASARLARIDA BADIY TIL O'RNI VA AHAMIYATI Po'latjonova Odina</b>	151-154
40	<b>Dostoevskiyning " Telba " asarida ayollar tasviri Xulkaroy Nosirova</b>	155-157
41	<b>Tohir Malikning "Alvido bolalik"asarida obrazlar tasviri Borataliyeva Noila Shuxratjon qizi, Sevara Usmonova</b>	158-159
42	<b>TA'LIMDA ILGOR XORIJIY TAJRIBALAR. Dinoraxon Qurbonaliyeva</b>	160-162
43	<b>ABDULLA QAHHORNING BEMOR ASARIDA JAMIYAT MUAMMOSI Abdusalomova Nozima</b>	163-166
44	<b>INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA BIZNES VA TURIZM TERMINLARINI ISHLATISH METODIKASI. Nematova Maxsumaxon</b>	167-169
45	<b>MODERN TECHNOLOGIES IN LEARNING FOREIGN LANGUAGE Bahromova O'g'iloy</b>	170-171
46	<b>O'TKIR HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" ASARIDA URUSH MAVZUSINING YORITILISHI O'g'iloy Xatamova</b>	172-174
47		
48		
49		
50		

